



ADABIY MEROS

2024-YIL 4-SON / ILMIY JURNAL

Alisher Navoiy oliy majlisining nadimlari.

“Boburnoma”ning tarixiy aspektida o’rganilishi.

O’zbek jadid hikoyachiligining tadrijiy takomili.

Образ пророков и святых в народных легендах.

Kulliyotlardagi “Favoyid ul-kibar” manbalari va nashrlar.

Mumtoz adabiyotda nafshi anglatuvchi tushunchalar tavsifi.

Muhammadjon Hakimov – “Mahbub ul-qulub” tadqiqotchisi.

XX asr 60-70-yillari o’zbek adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari.

Arab va o’zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlari va semantik tavsifi.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi “holat” semali frazemalarning konseptosferasi.

XV-XVI asrga oid adabiy-tarixiy manbalarda Abdurahmon Jomiy tasviri.

“Boburnoma”ga oid lug’atlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish.

Ubaydiy she’riyati manbashunosligi: qo’lyozma bayozlar asosida.

Folklorda xalq tabobati masalasining o’rganilishi xususida.

O’zbek reklama matnlarining lingvistik xususiyatlari.

Kulgi va humor haqida nazariy qarashlar tavsifi.

Folklorshunos olim va mahoratli ijodkor.

ADABIY MEROS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI

Bosh muharrir:
Jabbor Eshonqulov

Bosh muharrir o'rbinbosari:
Shahnoza Nazarova

Mas'ul kotib:
Feruza Abdurahmonova

Muharrir:
Rustamova Dilnoza

Texnik muharrir:
G'iyosiddin O'narov



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani
Navoiy ko'chasi, 69-uy
e-mail: adabiymeros@gmail.com
Tel.: (99871) 241-02-75
Jurnal 2020-yil 26-noyabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Axborot
va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №200936238
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
ISSN 2181-2500

Jurnal 2024-yil 2-oktyabrdra
nashrga berildi.

"Adabiy meros" ilmiy jurnali
O'zbekiston Respublikasi VM
huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining qaroriga ko'ra
(№327/6, 30.11.2022-y.) filologiya
fanlari bo'yicha PhD va DSc
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

2024
4-son (14)

Tahrir hay'ati:
Ahmedova Shoira
Asadov Maqsud
Abdirashidov Zaynobidin
Abdurahmonova Feruza
Barakayev Rahmatulla
Bekimbetov Azamat
Boltaboyev Hamidulla
Davlatov Olim
Jabborov Nurboy
Jo'raqulov Uzoq
Jo'raboyev Otabek
Karimov Bahodir
Kamilova Saodat
Mahmudov Nizomiddin
Ochilov Nasim
Pardayev Azamat
Palimbetov Kamalboy
Soriyev San'at
Sulaymonov Mo'minjon
Sabirova Nasiba
Rajabova Burobiya
Rashidova Ma'mura
Rahmonov Nasimxon
Turdimov Shomirza
Tursunov Yusuf
To'xliyev Boqijon
Tilavov Abdumurod
Sheraliyeva Mashhura
Shodmonov Nafas
Shofiyev Obidjon
Xalilova Dilbar
Hamdamov Ulug'bek
Hasanova Shafoat
Eshchanova Gavhar
Qalandarova Dilafro'z
Qosimov Abdug'ofur
Qobilov Usmon
Quronov Dilmurod
Qobilova Zebo
Yodgorova Mehribon
Chulliyeva Nilufar

Hakamlar hay'ati a'zolari:
Abduhalimov Bahrom (*O'zbekiston*)
Abdullahjon Axmataliyev (*Qirg'iziston*)
Ayse Yucel Cetin (*Turkiya*)
Acek Fatma (*Turkiya*)
Almas Ulvi (*Ozarbayjon*)
Anarboy Boldiboy (*Qozog'iston*)
Ahmet Bican Ercilasun (*Turkiya*)
Ali Duymaz (*Turkiya*)
Asel Isayeva (*Qirg'iziston*)
Baydemir Husayn (*Turkiya*)
Bakchiyev Talantaali (*Qirg'iziston*)
Basangova Tamara (*Rossiya*)
Demir Necete (*Turkiya*)
Fayzulloyev Baxtiyor (*Tojikiston*)
Fikrat Turkman (*Turkiya*)
Gurer Gulseven (*Turkiya*)
Vahit Turk (*Turkiya*)
Veli Savaş Yelok (*Turkiya*)
Ismat Çetin (*Turkiya*)
Ibrayev Shokir (*Qozog'iston*)
Karl Rechl (*Germaniya*)
Metin Ekici (*Turkiya*)
Mirzayeva Salima (*O'zbekiston*)
Ocal Oğuz (*Turkiya*)
Emek Uşenmez (*Turkiya*)
Eunkyoung Oh (*Koreya*)
Rixsiyeva Gulchehra (*O'zbekiston*)
Sakaya Heroki (*Yaponiya*)
Sirojiddinov Shuhrat (*O'zbekiston*)
Sodiqov Qosimjon (*O'zbekiston*)
Selami Fedakar (*Turkiya*)
Temur Khocaogli (*AQSH*)
To'laganova Sanobar (*O'zbekiston*)
Zaytsev Ilya Vladimirovich (*Rossiya*)
O'rayeva Darmanoy (*O'zbekiston*)

**“ADABIY MEROS”
ILMIY JURNALI
2024-YIL, № 4 (14)
USHBU SONDA:**

MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK

Burobiya Rajabova. XV-XVI asrga oid adabiy-tarixiy manbalarda Abdurahmon Jomiy tasviri.....	4
Ozoda Tojiboyeva. Kulliyotlardagi “Favoyid ul-kibar” manbalari va nashrlar.....	13
Shuhrat Hayitov. “Boburnoma”ning tarixiy aspektda o‘rganilishi.....	19
Aziza Almardonova. Mumtoz adabiyotda nafsn anglatuvchi tushunchalar tavsifi.....	32

NAVOIY ABADIYATI

Sherxon Qorayev. Alisher Navoiy oliv majlisining nadimlari.....	41
--	----

JADID ADABIYOTI

Xoliyor Safarov. O‘zbek jadid hikoyachiligining tadrijiy takomili.....	50
---	----

OLTIN BESHIK

Aзамат Бекимбетов. Образ пророков и святых в народных легендах.....	56
Umida Tadjiyeva. Arab va o‘zbek xalq maqollarining mavzuiy guruhlari va semantik tavsifi.....	65
Munisa Matkarimova. Folkorda xalq tabobati masalasining o‘rganilishi xususida.....	72

TANQID VA TAHLIL

Selami Fedakar. Kulgi va yumor haqida nazariy qarashlar tavsifi.....	80
Feruza Qarshiyeva. Muhammadjon Hakimov – “Mahbub ul-qulub” tadqiqotchisi.....	93
Tursunoy Jarkinova. XX asr 60-70-yillari o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	99

TILSHUNOSLIK

Dilafruz Muhammadiyeva. “Boburnoma”ga oid lug‘atlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish....	107
Muhabbat Qurbanova., Go‘zal Qo‘ziboyeva. Abdulla Qodiriy asarlaridagi “holat” semali frazemalarining konseptosferasi.....	113
Dilafro‘z Qo‘shmurodova. O‘zbek reklama matnlarining lingvistik xususiyatlari.....	119

FANIMIZ FIDOYILARI

Sarsen Kazaxbayev. Folklorshunos olim va mahoratlari ijodkor.....	126
--	-----

ADABIY MANBALAR XAZINASIDAN

Maryam Eshmuhamedova. Ubaydiy she’riyati manbashunosligi: qo‘lyozma bayozlar asosida.....	131
--	-----

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi.

SHAVKAT MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

BUROBIYA RAJABOVA,

O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi

XV-XVI ASRGA OID ADABIY-TARIXIY MANBALARDА ABDURAHMON JOMIY TASVIRI (GENERAL IMAGE OF ABDURAHMAN JAMI IN LITERARY AND HISTORICAL SOURCES OF THE XV-XVI CENTURY)

Annotatsiya: Maqolada Abdurahmon Jomiy haqida ma'lumot, xabar yozilgan 20 ga yaqin tarixiy-adabiy manbalar hamda buyuk mutafakkirning qalamiga mansub ayrim asarlar o'r ganilgan. Ma'lum ma'noda "Jomiy va o'zbek adabiyoti" masala va muammosi ochiqlangan. O'r ganilgan kitoblarda Jomiy faqat daho shoir, adib sifatidagina emas, balki uning adabiyotshunos olim, filosof, faqih, so'fiy, jamoat arbobi sifatida ham tilga olingani aytib o'tilgan. Navoiy va Jomiy matabining ta'sirida badiiy adabiyotga kirib kelgan shoir, adiblarning asarlariga ham murojaat qilingan hamda an'ana va adabiy ta'sir masalasi yoritilgan.

Kalit so'z va birikmalar: Adabiy muhit, tazkira, adabiy-tarixiy manbalar, tarixiy shaxs, shoir, adib, faqih.

Abstract: The article examines about 20 historical and literary sources with information about Abdurrahman Jami, as well as some of the works of the great thinker. In a certain sense, the issue and problem of "Jomi and Uzbek literature" has been revealed. In the studied books, Jami is mentioned not only as a brilliant poet and writer, but also as a literary critic, philosopher, lawyer, sufi, and public figure. The works of poets and writers who came to fiction under the influence of the Navai and Jami schools were examined, and the issue of tradition and literary influence was also highlighted.

Key words and phrases: Literary atmosphere, tazkira, literary and historical sources, historical figure, poet, writer, lawyer.

Temuriylar Uyg'onish davrining mutafakkiri, fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandası Abdurahmon Jomiyning ulug' shaxsi, u yozgan durdona asarlar o'z davrida o'r ganila boshlagan. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Abdurahmon Jomiy hayoti va faoliyatiga qiziqish va o'r ganish uning shonli zamonidan boshlanib, to bugungi kunga qadar so'nmay kelmoqda. Jomiy zamondoshlarining adabiy-tarixiy asarlarida keltirilgan qimmatli ma'lumotlar Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro, Abdurazzoq Samarcandiy, Davlatshoh Samarcandiy, Zayniddin Vosify, Mirxon, Xondamir, Bobur asarlarida yozilgan. Keyingi asrlarda esa Navoiy va Jomiy matabining ta'sirida badiiy adabiyotga kirib kelgan Mirza Haydar, Hasanxo'ja Nisoriy, Mutribiy Samarcandiy, Aliy Safiykitoblarida Jomiy to'g'risida nodir ma'lumotlar bitilgan.

Navoiy yozgan ma'lumotlarga asoslansak, Jomiy haqida xabarlarni malik ul-kalom Lutfiyga tegishli ekanini ko'ramiz, ammo bu ma'lumotlar ham Navoiy asarlarida Lutfiy to'g'risida bitilgan fiqrallarda gapirilgan. Ya'ni, birinchi ma'lumot vasiyat xarakterida bo'lib, "Majolis un-nafois"

tazkirasida keltirilgan o‘ziga xos vasiyatlarining uchinchisidir[Alisher Navoiy, 1997: 15]. Mazkur vasiyatni maqola muallifi “Boqiy vasiyanomalar”[Rajabova, 2022: 17-30] kitobida tahlil qilgan. Bu to‘qson to‘qqiz yoshdagi Lutfiyning vafoti oldidan shogirdi Abdurahmon Jomiyga aytgan vasiyatidir. Navoiy tazkirada yozishicha, Lutfiy o‘z vasiyatida yakunlashga ko‘zi yetmagan “aftad” radifli g‘azalini Jomiy yakunlab, o‘z devoniga kiritishni vasiyat qiladi.

Lutfiy haqidagi ma’lumotda bizni qiziqtirgan masala, bu – “Va o‘tar vaqtida bu g‘azal mat-la’inkim, tunganmaydur erdi, vasiyat qildikim, hazrati Maxdumi Nur an tugatib, o‘z devonlarida bitisunlar...” degan muhim ma’lumotdir. Lutfiy devonini nashrga tayyorlagan S.Erkinov mazkur vasiyatning ijrosi haqida devonning “Lutfiy va Jomiyning munosabatlaridan lavhalar” nomli bobida to‘xtalgan[Lutfiy, 2012: 393-396].

Endi “Nasoyim ul-muhabbat”dan o‘rin olgan “Mavlono Lutfiy zikri”ga murojaat qilsak. Unda Navoiy jozibali hikoya bayon qilgan. “Suxan” – Mavlono Lutfiyning “Suxan” radifli saj’ qasidasi. Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlab yozgan. Mazkur qasida Hirot adabiy muhitida juda mashhur bo‘lib ketgan. Bu haqda Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”dan o‘rin olgan “Mavlono Lutfiy zikri”da alohida mehr va zavq bilan bayon qilgan: “To‘qson yoshidin tajovuz qilg‘onda, Hazrati Maxdumi n.m.n. otig‘a radifi “Suxan” saj’ qasidae aytib erdiki, zamon xushgo‘ylari barcha xo‘bluqqa musallam tuttilar” [Alisher Navoiy, 2001: 15].

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” va “Majolis un-nafois” tazkiralarida Jomiyga alohida fiqralar bag‘ishlagan. Mazkur fiqralar o‘zbek va tojik adabiyotshunoslari tomonidan diqqat bilan o‘rganilgan. Ayniqsa, “Majolis un-nafois”ning muqaddima qismida buyuk mutafakkirning o‘g‘li Ziyovuddin Yusufga bag‘ishlab yozgan “Bahoriston” asarini tilga olgan. Va bu asarning 7-ravzasini tazkira deb yuksak baholagan. Jomiy mazkur 7-faslda Rudakiydan boshlab, to Navoiy va o‘ziga zamondosh bo‘lgan qalam ahli haqida fiqra shaklida ma’lumot yozganini gapirib o‘tgan. Navoiy tazkirada 459 nafar ijodkor haqida ma’lumot berar ekan, asarning 3-majlisi Jomiyga bag‘ishlangan fiqra bilan boshlagan. O‘rganishimizga ko‘ra, tazkiraning Mavlono Sog‘ariy, Hofiz Ali Jomiy, Mavlono Mir Ali, Mavlono Ma’sud, Mavlono Sulton Ali Qoyiniy, Mavlono Xoja bilan bog‘liq fiqrالarda ham Jomiy nomi va asarlari yodga olinadi.

Tazkiraning 3-majlisning xulosa qismida Navoiy Jomiy va Sulton Husayn Boyqaroni “bu hazratu ul hazrat” deb tilga olgan. Mazkur ruboiyda Jomiyning vafot etganligiga ishora qilsa, Sultonga uzoq umr tilaganini yozgan:

*Chun bor edilar bu hazratu ul hazrat,
Kim, ul hazrat haq sari qildi rihlat.
Bu hazrat ko‘p umr ila topsun davlat,
Men bandag‘a davlatida kunji uzlat.*

Ma’lumki, Abdurahmon Jomiy ham Temuriylar Uyg‘onish davrining mulkdori, katta mulk egasi bo‘lgan. U Hirot ichkarisida o‘zning xususiy mulklari hisobidan madrasa qurdirgan. Jomiyning mazkur madrasasida Bobur ham bo‘lgan va “Boburnoma”da ma’lumot yozgan. H.Nisoriy ham tilga olgan.

Mavlono Ma’sud Navoiy va Jomiyga zamondosh shoir bo‘lgan. Navoiyning ma’lumotiga ko‘ra, u Jomiy madrasasida tahsil olgan, Jomiyga mulozim sifatida faoliyat yuritgan va mana shu malakalari asosida keyinchalik Shohruh Mirzoning katta xotini qurdirgan Gavharshodbegim madrasasida va boshqa madrasalarda mudarrislik bilan shug‘ullangan.

Yoki Navoiy “Xamsa” dostonlarining Kirish qismida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviylar qatorida buyuk xamsanavis sifatida Jomiyga ham alohida boblar bag‘ishlagan. Qizig‘i

shundaki, Navoiy Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyga bir bob, Jomiya esa alohida bob bag‘ishlagan. Asarning ma’lum bir lavhalarida Navoiy “Xamsa” dostonlarini birma-bir sanab ko‘rsatar ekan, buyuk ustozining o‘ziga nisbatan qilgan ixlosi, himmati, e’tiroflaridan ma’mun bo‘lganini yozgan. Xususan, u Jomiy portretini badiiy so‘z bilan tasvirlashga harakat qilgan va shu o‘rinda atoqli sharqshunos olma M.Ashrafiyning 1966-yilda Germaniyada nashr bo‘lgan “Jomiy XVI asr miniyaturlarida” degan kitobini eslashni ma’qul topdik. Navoiy boshqa asarlarida Jomiyning o‘ttiz sakkizta asarlari xususida ham qimmatli ma’lumotlar bitgan. Masalan, “Xamsat ul-mutahayyirin”ning “Uchinchi maqolat” faslida “Kutub va rasoyil bobidakim, alarning musannofatining te’dodi (adadi) budurkim” deb uning 38 ta asarini sanab ko‘rsatgan. O‘zbekiston Qahramoni Suyima G‘aniyeva “Navoiy yodga olgan asarlar”[G‘aniyeva, 2019: 36] risolasida Abdurahmon Jomiyning kitoblarini ham tilga olgan va olma Navoiy uchun Jomiy yozgan sharhlarga alohida tushuntirishlar bergen. Bu borada A.Mirzoev o‘zining “Alisher Navoyi va Abdurahmon Jomiy” nomli maqolasida ham Jomiyning kitob va risolalarining Navoiy hayotida tutgan o‘rnini shunday sharhagan, ya’ni Jomiy Navoiyni ko‘proq e’tiborini ijod qilishga undagani va u Navoiy uchun maxsus risolalar yozgani kabi masalalarni yaxshi tahlil qilgan[O‘zbek adabiyoti tarixi, 1978: 382]. Yoki S.Ayniyning yozishicha, “Jomiy Navoiyning iltimosi bo‘yicha yoinki unga bag‘ishlab yigirma yettita fors-tojikcha kitob va risolalar yozdi”[Ayni, 1967: 32].

Ma’lumki, Navoiy Xoqoniy qasidalariga javoban yozgan 129 baytdan iborat “Nasim ul-zuhd” (Tatabbu’i Hoqoni) qasidasida Xusrav Dehlaviy va Xoqoniylar qatorida Abdurahmon Jomiyni faxr bilan tilga oladi va ularning oliy klassik uslubi va izidan borib, qasida janrini davom ettirgанини qayd etgan, shu ma’noda Jomiy nomi tilga olingen baytga diqqat qaratamiz:

*Ba Jomi gar nadoram rohi da’vo andar in ma’ni,
Ki hast ustodi man v-in nazm gashta zebi devonash.*

Mazmuni: Jomiyga uning qasidasi yuzasidan da’vom yo‘q. Bu (gapim) shu ma’nodaki, bu (zot) “ustodi man” – “mening ustozim” va uning qasidasi devoniga ziynatdir[Alisher Navoiy, 2003: 309].

Navoiy Jomiy borasida “Muhokamat ul-lug‘atayn”da iliq gaplar bitgan: “Barchadin kulliyroq sanad bukim, hazrati irshod panohi... Nuranki... forsiy so‘zda jam’i alar so‘zidin yuqoriroq so‘z yo‘qtur ko‘proq kutub va rasoil va g‘azaliyot va qasoyiddaki, maoniy gavharlarin nazm silkiga kiydirur erdilar va zamir nihonxonasidan anjuman tamoshogohig‘a jilva berur erdilar, aning musvaddasin burunroq bu faqirg‘a iltifot va e’tiqod yuzidin berur erdilarkim, “bu avroqni ol va boshtin oyog‘ig‘a nazar sol, xotiringg‘a har ne aytg‘udek so‘z kelsa, ayt” deb va har ne ishorat bo‘lg‘onikim, mazkur bo‘ldi, zohir qilsam maqbul tushar erdi” [Alisher Navoiy, 2000: 68].

Navoiy “Lison ut-tayr” dostoning “Bu kitobda taxallus tag‘yirining uzri” nomli SXSI bobida shoirlarning taxallusini “tavqi”, “muhr”, “tamg‘o” deb sifatlar ekan, murakkab talmeh san’ati vositasida Jomiyni uning taxallusini ham eslagan, buni quyidagi baytlarda o‘qiyimiz:

*Kim-o ‘zi tahsisig‘a imlodur ul,
Muhri yo tavqi’yo tamg‘odur ul.*

*Safsha debosiyu nazm inshosidur,
Kim taxallus nozimi tamg‘osidur.*

*Bu nishoni birla topti imtiyoz,
Ne varaqkim nazm qildi ahli roz.*

*Kim bu Sa'diy, yo Nizomiyningdurur;
Yo bu Xisravning, bu Jomiyning durur*[Alisher Navoiy, 1996: 282].

Akademik V.Zohidov “Ulug‘ shoir ijodining qalbi” kitobida “Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida Jomiy haqida ham baytlar yozgan”[Zohidov, 1970: 394] degan izohni yozgan va ikki baytni misol tariqasida keltirgan.

Xondamirning “Makorim ul-axloq” kitobida yozishicha, Navoiyning murabbiy va muqavviyligi bilan qalam ahlining e’tibori Hirot madaniy muhit rivojlangan. O‘z navbatida Jomiy va boshqa shoir, adiblar asarlarida maqtovga loyiq holat uchun Navoiyga tahsin aytishgan. “...ul hazrat madhida manzum kitoblar yozdilar, balki haqiqat egasi Maxdumiylar Jomiy o‘zlarining ko‘p she’riy asarlarida bu ravshan fikrli Amirni maqtaganlar. Shuning oqibatida o‘z nafis she’rlarining pardoz va bezagini orttirganlar. U qimmatli asarlardan ba’zilarining nomlari quyidagicha: “Tuhfat ul-ahror”, “Subhat ul-abror”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Xiradnomayi Iskandariy”[Xondamir, 2015: 51]. Ya’ni, Xondamir bu o‘rinda Jomiy Navoiyni tilga olgan asarlarni sanab ko‘rsatgan.

Xondamir yana yozadiki, Navoiy Jomiy huzurida va Jomiy Navoiy kutubxonasida mutolaa bilan mashg‘ul bo‘lgan: “...Xususan, olijanob maxdumi Jomiyiga yaqin mulozamatda bo‘lib, u kishining huzurida darvish va so‘fiylarning kitoblarini o‘qish bilan shug‘ullanar edi. Ul javob Jomiy ham bu bobda qilgan tasniflarini amir huzurida mutolaa qilar va bu kishi (Navoiy) u kitoblarning nozik nuqtalarini fayzli xotiri lavhiga naqshlardi, balki ul olijanob bu asarlarni hidoyatli amirning ismi sharifiga bag‘ishlab yozgandir. “Nafahot ul-uns” va “Ashi’at ul-lamaot” muqaddimasini o‘qilsa bu narsa quyoshday ravshan va oshkora bo‘ladi”[Ahmedov, 1988: 89].

Shoh va shoir Sulton Husayn Boyqaro o‘zining “Risola” asarida Hirot madaniy muhiti haqida yozar ekan, asosan, Navoiy va Jomiy ijodiga diqqat qaratganini ko‘ramiz hamda e’tiroflari isboti uchun tamsil qilib Navoiyning “Xamsa”da Jomiyiga bag‘ishlab bitgan ikki baytini keltirgan. Navoiy va Jomiy kabi mutafakkirlar bilan zamondosh yashaganiga, ular u bilan ham davlat boshqaruvida, ham madaniy va adabiy muhitda birga ijod qilgani xususida faxr tuyg‘usi bilan tasvirlagan. Kitobda Sulton Husayn Boyqaro Nurjan Mahdum to‘g‘risidagi e’tiroflarini oliv uslubda shunday bayon qiladi. Chunonchi: “Ularning ichida eng bilimli va fazilatlisi, fazilatlar daryosining pok duri va valiylik falagining porloq quyoshi, nazm javohirining sohib intizomi hazrati shayxulislomiy Mavlono Abdurahmon Jomiy (salamahullohu va abquo) dirki... Nazmu javohiridan jahon sadafi qimmatbaho durga to‘la va nasri injularidan falak atlasi ziynatlangandir. Turli fanlar bo‘yicha asarlari behad ko‘p va har asarida ma’nolar xazinasi behisobdir

G‘azallari olamga g‘avg‘o soluvchi, baytlari latif va hayajon uyg‘otuvchidir. Ko‘p yillar haq subhonahu va taolo ularning to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishlari soyasi (panohi)ni uzoq qilsin va bu davlat davrida uningdek sohibdavlat umrini ziyoda qilsin”[Husayn Boyqaro, 1995: 20-21].

Abdurahmon Jomiy borasida uchta tarixiy ma’lumotlarni mumtoz muarrix Abdurazzoq Samarqandiyining “Matlai sa’dayn va majmai bahrayin” kitobida yozib qoldirgan. Shulardan birinchisi “Xutbani o‘zgartish niyatida bo‘lgan va shiy‘a mazhabini izhor qilishga mayl ko‘rgazgan bir guruhning a’lo Hazrat (Sulton Husayn) tomonidan man’ etilganligi zikri” [Abdurazzoq Samarqandiy, 2008: 641-642] faslida Said Ali Voiz Qurbon Hayitida islom minbarida turib ahli sunnat kamchiliklari haqida gapirib, shi‘a mazhabi mavqeini ko‘tarish borasida va’z o‘qiydi. Buni eshitgan Sulton Husayn Boyqaro bu masala diniy ishlarning eng muhim masalalaridan biri ekanini anglab, bir guruh diniy ulomo, sudurlarni Abdurahmon Jomiy huzuriga yuboradi. Bu ma’lumotda

biz Jomiyning buyuk faqih sifatidagi siyomosi bilan tanishamiz. Jomiyshunos olim J.Xolmo'minov "Jomiy hakamligi: tasavvuf, kalom va falsafa bahslari" nomli maqolasida Nizomiddin Boxarziy Jomiyning hayoti va faoliyati, maqom va martabalari, buyuk zamondoshlari bilan munosabati haqida "Maqomati Jomiy" nomli asar yozgani hamda unda muallif 109 ta mavzu xususida ma'lumotlar bitganii gapirgan. Va u Jomiy hakamlik qilgan yoki o'z nuqtai nazarini bildirgan o'rinalardan biri sifatida, ya'ni "Naqdi nazari Jomiy dar borai shi'iyoni ro'zhor (Jomiyning davr shi'iyilari haqidagi tanqidiy qarashlari)" [Abdurahmon Jomiy ijod olami, 2014: 85] deb sanab ko'rsatgan.

Jomiy shi'alarning dasturlarini man etadi va hukmdor ham shi'a jamoasiga qahr ko'rsatadi. Xutba odatdag'i dastur bo'yicha tayin etadi. Yana kitobning "Mozandaron tomon yurishga Humoyun otlanish va Mirzo Abu-l-Muzaffar Yodgor Muhammad hujumi zikri" faslida Jomiyiga Samarqanddan Xoja Ahrori Valiydan maktub keladi. Maktub mazmunida Sulton Husayn Boyqaro hal etishi mumkin bo'lgan muammo bayon qilingan edi. Jomiy mazkur maktubi bilan hukmdor huzuriga boradi va saroyda bo'layotgan ziyofat ustidan chiqadi va she'r yozib qoldiradi. Sulton ham javob she'r bitib jo'natadi va yana Jomiy javob she'r yozib yuboradi. Xullas, hukmdor tomonidan Jomiy iltimosi ijobji hal qilinadi. Demak, muallif asarda ssak e'tirof bilan tenquri buyuk Jomiyini uch o'rinda, ya'ni faqih, shoir, jamoat arbobi sifatida tilga olgan.

Abdurahmon Jomiy haqida yana muhim ma'lumotlarni Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuar"da yozganiga guvoh bo'lamiz. U Jomiyning tug'ilgan yeri, tabiatida ilm va fazilat izlashga moyilligi, buyuk mutafakkirligi, o'qishi, ta'sirli asarlari, o'z davri shoir-adiblarga yoki orif-so'fiy shayxlarga e'tibori, tarbiyasi, tasavvufda oliy maqomga erishishi, himmati masalasi yaxshi yoritilgan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuar"ning Xotima qismini "olti fozilning... holat va maqomatlari hamda she'rlarini tahrirga payvasta qildim" deb o'ziga xos tarzda yakunlagan, ya'ni u o'ziga zamondosh bo'lgan olti nafar fozil insonlar haqida ularning nomlari bilan bog'lab alohida fiqralar bitgan. Shulardan biri buyuk Jomiy haqidagi fiqradir. Agar mazkur tazkiraning Turkiya nashriga murojjat qilsak, turk tiliga qilingan tarjima to'liq nashr bo'lgani uchun tazkirada alohida fiqra yozilgan qalam ahli qatori xotimada Jomiyiga bag'ishlangan fiqra ham to'liqroq aks etgan [Devletsah, 2011: 592-604]. Tazkiraning "Nuriddin Abdurahmon Jomiy" fiqrasi murojaat qilsak: "Mavlononing asli va tug'ilgan joyi Jom viloyatida, vatani Xarjerd qishlog'i, o'sgan va kun kechirgan yeri esa poytaxt Hirotdir. Dastlab ilmu adab o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi va bora-bora zamon ulamolarining yetakchisiga aylandi. Tabiatida ilmu fazl yanada yuqoriroq darajaga ko'tarilishini istadi. (Shuning uchun) toliblik dardi oliy himmati etagidan tutdi. Muridlik qo'lini ma'rifat egasi, shayxulislom, haqiqat izlovchilar qiblagohi... shayxlar shayxi, ulug' xoja Bahouddin Naqshband janoblarining... murid va halifalaridan sayyid Sa'diddin Muhammad Koshg'ariyga berdi. Mavlono (Abdurahmon Jomiy) birmuncha vaqt mavlono Sa'diddin (Qoshg'ariy)ning huzurida turli va munosib xizmatlar qildi; riyoza, mujohidlik. Faqirligu sulukdan to'la martaba hosil etdi. Ul buzruk vorning muborak xizmatlari barakoti bila mavlono tasavvufda oliy maqomga erishdi... Mavlono akobiru fuzaloning she'r va qasidalariga ko'p ajoyib (va) ma'rifatli javob aytgan, ularning hammasini ushbu tazkirada keltirish (ancha) mushkuldir..." [Davlatshoh Samarqandiy, 1981: 183-188]. Muallif Jomiyini shoir va adib sifatida tilga olar ekan, nazmiy va nasriy asarlarining ko'pligiga ishora qiladi hamda o'z fikrlari isboti va kitob bezagi uchun Amir Xusravning "Bahr ul-abror"iga javoban mavlono qasidasining yaxshili-giga, "Nafahot ul-uns" tazkirasini, shayx Nizomiyiga javoban bitilgan "Mahzan ul-asror" bir necha manzum kitob, muammo va tasavvufga oid birmuncha asarlari borligini ta'kidlaydi. Xulosani esa "Mavlono azaliy inoyat va abadiy hidoyat bila kelajakda ham bu hikmatu ma'rifat daryosi mavjalaridan vujud sohiliga durdonalar to'kkusidir" [Davlatshoh Samarqandiy, 1981: 184-187], deb yakunlaydi.

Jomiyning kichik zamondoshlaridan biri adib Zayniddin Vosify o‘z davri voqealarini aks ettirib “Badoe’ul-vaqoe” kitobini Hirotda boshlab, Toshkentda yakunlagan. Mazkur kitobda Jomiy olami haqida ham tarixiy voqeа-hodisalar aks etgan. U asarda juda ibratli “Xamsai Mutahayyira hikoyati” nomli fasl yozgan va unda Jomiy rahbarligida to‘rt nafar buyuk olimlar bilan Hirot madrasalarining mudarrislari faoliyatini taftish qilishi haqidagi muhim voqealarni bayon qilgan. Bu jamoat Muhammad Jojarmiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Shayx Husayn, Shamsiddin, Mavlono Dovud, Mu’in Tuniy kabi olimlardan iborat bo‘lib, ularadolat va rostlik bilan madrasa faoliyatini tekshirishi xususida adib shunday yozadi: “Munavvar ra’yingiz ma’lumi bo‘lsinki, bu olijanob silsilaning boshlig‘i ... mavlono Nurriddin Abdurahmon Jomiydir. Biri mavlono Kamoliddin Shayxusayn; yana biri mavlono Shamsiddin, kashf sohibi, yana biri mavlono Dovud, yana mavlono Mu’in Tuniy besh kishidir. Biror aql egasi bularga oltinchi bo‘lib qo‘shila olmadi” [Zayniddin Vosify, 1979: 184].

Jomiy haqida qimmatli ma’lumot yozgan o‘zbek adiblaridan biri Bobur mirzodir. U “Boburnoma”da asar xarakteridan kelib chiqib buyuk Jomiy haqida yetta muhim tarixiy ma’lumotlar bitgan. Qiziq jihatishundaki, Bobur 1506-yilda Hirotda bo‘lar ekan, Jomiy maqbarasini ziyorat qilgan, u qurdirgan madrasada bo‘lgan, ayniqsa, madrasada yashab Jomiyning “Nafahot ul-uns” asariga sharh yozayotgan shayx Mavlono Abdulg‘ofur Loriy bilan suhbat qurban. Bobur ham ma’lumotlarida Jomiyning buyuk siyoshi, ma’lum bir asarlarining nomi, mazmun-mundarijasi xususida o‘z fikrlarini aytib o‘tgan. Bobur ma’lumotlarinn B.Rajabova o‘rganib “Jomiy va Bobur” maqolasida batafsil to‘xtalgan. Yana Bobur “Muxtaras” asarining 5-, 8-vaznlarida buyuk masnaviy navislar qatorida Abdurahmon Jomiyning masnaviy usulida yozilgan asarlarini tilga olgan. Chunonchi: “Bu vaznda dag‘i mansaviy ko‘ptur ul jumladin shayx Nizomiyning “Layliyu Majnun”i va xoja Xusravning “Majnunu Lalyi”si va mavlono Abdurahmon Jomiyning “Layliyu Majnun”i va Mir Alisher Navoiyning “Layliyu Majnun”i va Abdulla Hotifiyning “Layliyu Majnun”i [Bobur, 1971: 161-162].

Tojikistonlik professor E.Shodiev “Zahriddin Muhammad Bobur” risolasining “Bobur va tojik adabiyoti” nomli faslda Boburning fors-tojik adabiyoti namunalarini bolaligidan katta zavq bilan o‘qib-o‘rgangani haqida yozar ekan, u “Boburning “Aruz risolasi” asarini XIV-XVI asrlar fors-tojik adabiyotiga doir yirik bir antologiya deb atash mumkin” [Shodihev, 2001: 71-73] deb yuksak baho bergen. Va u yana fikrlarini davom ettirib “U asarda masnaviyalar xususida so‘z yuritganda ...Abdurahmon Jomiyning “Subha”, “Haft avrang”. “Xiradnomayi Iskandariy” kabi asarlari ustida to‘xtalib o‘tadi va ulardan xilma-xil misollar keltiradi”, degan ilmiy tezisni olg‘a suradi.

Boburdan keyin Jomiy haqidagi muhim ma’lumotlarni Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” kitobida o‘qiyamiz. U mazkur asarining To‘qqizinchi faslda muallif otasi Muhammad Husayn Ko‘ragonning Xurosonga ketishi bilan bog‘liq voqealar bayonida temuriylar davlat boshqaruvida bo‘lgan Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro zamonida yashagan sudurlar, olimlar, shoirlarni tilgan olgan uch lavhada Jomiy bilan bog‘liy xabarlarini o‘qiyamiz. Jomiyni Sulton Husayn Mirzo zamonida yashagan tasavvufning buyuk vakili sifatida “Musulmon dunyosining nuri va shayxulislomi Hazrat Mavlono Abdurahmon Jomiy (Alloh rahmatiga olgan bo‘lsin) zikrida” [Muhammad Haydar Mirzo, 2010: 276] yodga olgan. Muallifning Jomiyning ulug‘ shaxsiga bo‘lgan ixlosi zikr sarlavhasida ham yaqqol ko‘rinadi. Yoki asarning shoirlar bilan bog‘liq ma’lumotda Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasi, fasohatli lirikasi, besh baytli g‘azalining yozilish sharti va g‘azal matni va mutafakkirning shogirdi Mavlono Abdulg‘ofur Loriyning “Nafahot ul-uns” tazkirasiga bitgan o‘ttiz fasldan iborat shari va muallif o‘zining hayrati xususida to‘lqinlanib yozganini ko‘ramiz [Muhammad Haydar Mirzo, 2010: 289-291].

Muhammad Faxriy Hiraviy Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining fors tiliga tarjimoni hisoblanish bilan birga, u Hirot tazkirachilik maktabining davomchisi sifatida “Ravzat us-salotin” tazkirasini yozgan va unda XVI asrgacha bo‘lgan davrda Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Hindiston, Rumda yashab ijod qilgan salotin va amirlarning ijodi va ijodiy merosi hususida qimmatli ma’lumot va muhim xabarlar bitgan. Tazkirani “Va Rudakiy nazm ahlining sarxayli...” deb uni Rudakiy to‘g‘risidagi fiqra bilan boshlangan. Ko‘rinadiki, Hiraviy ham fors tilida yozilgan tazkiralarni kabi ilk fiqrani Rudakiyga bag‘ishlangan va Amir Nasrni Marvdan Buxoroga chorlab yozgan qasidi-sabab ko‘plib in’omlarni qo‘lga kiritganini gapirgan. Qasidadan nimuna tariqasida 10 baytni tamsil qilib keltirgan. U fiqrada “fors shoirlarining muqaddami” bo‘lgan Rudakiyni Amir Nasr bin Ahmad Somoniy ko‘p in’omlar bilan siylagani xususidagi ma’lumotiga tamsil qilib Unsuriy qasidasidan bayt keltiradi. Va yana u yozadi; “Mavlono Abdurahmon Jomiy “Silsilat uz-zahab” kitobida Rudakiynin go‘zal ta’rifini aytgan [Faxriy Xiraviy, 2014: 20]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Jomiy Rudakiy to‘g‘risida “Aruz risolasi”, “Bahoriston” kabi asarlarida ham ma’lumot yozgan va bular xususida B.Rajabova “Rudakiy va Jomiy” nomli alohida maqola yozgan [Rajabova, 2024: 11]. Tarixiy-adabiy manbalarda Sulton Husayn Boyqaroning nabirasi Mo‘min Mirzoning ham she‘r yozganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Lekin Alisher Navoiy “Majolis un un-nafois”ning 7-majlisida 21 nafar sohibdevon, she‘r ijod qilgan temuriyzodalar haqida fiqra shaklida xabarlar yozgan. Ammo Mo‘min Mirzoni bu majlisda Navoiy tilga olmagan. O‘qib-o‘rganishimizga ko‘ra, tazkiraning Amir temur va temuriylarga bag‘ishlab yozgan faslida Mo‘min Mirzoning she‘r yoziishi va aynan u katta zamondoshi ulug‘ Abdurahmon Jomiyning g‘azaliga muxammas bog‘lagani haqida qimmatli ma’lumot bitgan. Muhimi, u Mo‘min Mirzo yozgan muxammasning to‘liq matni tamsil qilib keltirgan. Chunonchi: “Muhammad Mo‘min Mirzo Badiuzzamon Mirzoning o‘g‘li edi. Sulton Husayn Mirzo avlodlarining otasi bilan bu barcha muxolifliklari uning nohaq xuni vositasi sababli bo‘ldi”, deb uning fors tilidagi qit‘asini va meni taqdir qo‘llamadi, shu sababli do‘sstarim dushman bo‘ldi, ular muzaffar bo‘ldi, degan mazmunni beruvchi matla’ni va hamda Jomiy g‘azaliga muxammas bog‘lagan “mazmundor nazmi mashhurdir” deb muxammas matni to‘liq keltiriladi. Demak, Faxri Xiraviyning yozishicha, muxammas o‘z davrida mashhur bo‘lgan. Shuning uchun tazkira muallifi uni tazkirasiga kiritishga jur’at etgan.

O‘rganishimizga ko‘ra, Faxriy Hiraviydan keyin Nuran Maxdum to‘g‘risida baland so‘zlarni buxorolik tazkiraganavis Hasanxoja Nisoriy bitganini bildik. Uning “Muzakkiri ahbob” (“Do‘sstar yodnomasi”) nomli tazkirasini adabiyotshunoslikda eng ishonchli va muhim manbalardan hisoblanadi. Jomiy ijodini yaxshi bilan Nisoriy o‘z tazkirasida 288 nafer qalam ahli haqida ma’lumot, xabar, mulohaza yozgan va fazilati, ijodidan namunalar keltirgan. ma’lumotlari sirasida Jomiy nomi, nasabi va hasabi, ota-onasi, tug‘ilgan, ta’lim olgan manzil-makoni, Hirot madaniy muhitida tutgan o‘rni, ijodining o‘ziga xos yuksak nuqtalari va vafoti haqida ham xabarlar yozgan [Xasanxo‘ja Nisoriy, 1993: 40-41]. U ham Xoji Abdulg‘ofir Loriyni yodga olgan.

Mutribiy Samarqandiy 1605 yilda yozgan “Tazkirat ush-shuar” tazkirasida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy maktabi an’alarini davom ettirib badiiy-g‘oyaviy jihatdan yetuk, rangbarang mavzu va turli janrlarda asar yaratgan 340 nafardan ziyod shoirlar haqida nodir ma’lumotlar bergen. Muhimi, u Payraviy, Vasiliy Marviy, Yatimiy Hiraviy, Sho‘xiy Buxoriy, Zavqiy Miyonkoliy kabi shoirlar fiqrasida Abdurahmon Jomiy nomi tilgan olingan. Buxorolik shoir Payraviyning Jomiyning ikki asari ta’sirida kitoblar yozgani haqida shunday ma’lumotni bergen: “Yaxshi ta’bi bor edi. Hazrat maxdumiyo xo‘jasta farjomiy Abdurahmon Jomiy “Yusuf va Zulayho” va “Tuhfat ul-ahror” kitoblariga ergashib, asarlar yaratgan hamda ilmlar bo‘yicha har xil mavzularda risolalar bitgan...”[Mutribiy Samarqandiy, 2013:139]. Shoir Vasiliy Marviy Nuran Maxdumning “Bahoriston” asaridan aql va dingga ziyon beruvchi ichkilik ichishni qoralab yozgan hikoyat hamda

she'rni tamsil qilib keltirgan [Mutribiy Samarqandiy, 2014: 247-248]. Tazkirada shoir Yatimiy Hiraviy Hirotda Abdurahmon Jomiyning nurga to'la mozori yonida mujovirlik bilan umr kechirishi va Abdullohxon Hirotni istilo etgandan so'ng u Balxga ketgani va u yerda vafot qilgani haqida yozgan [Mutribiy Samarqandiy, 2014: 307]. Mutribiy Samarqandiy shoir Sho'xiy Buxoriyning Hasanxo'ja Nisoriy huzurida ilm o'rganayotgani xususida xabar bitar ekan, uning Abdurahmon Jomiyning she'rshunoslikka doir muhim manba bo'lgan "Risolai qofiya" risolasini yod olayotganini ham aytib o'tgan [Mutribiy Samarqandiy, 2014: 512]. Shoir Zavqiy Miyonkoliy she'rlar yozish asnosida Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" asari uslubida "Nozu niyoz" nomli kitob bitgani va asar Hoqon Vali Muhammadxoniga ma'qul kelib, u shoirga yaxshigina siylov mukofot beriganini gapirgan [Mutribiy Samarqandiy, 2014: 555]. Yana tazkirada Mutribiy "Tazkirat ush-shuar" da Samarqandning Oqsaroyida Abulkayr Sulton bilan suhbatlashgani va Jomiyning Amazon Hayitiga bag'ishlab yozgan g'azalini o'qib bergani borasida qiziqarli hayotiy voqeani keltirgan vag'azalning to'liq matnini ilova qilgani tahsinga loyiq bo'lgan. Chunonchi: "Kamina Amazon Hayiti kuni Samarqandning Oqsaroyida Abulkayr Sultonning qutlug' suhbatlariga yetishganman.

– Hayitlik g'azal aytdingmi? – deb so'radilar o'shanda.

Bunday g'azal yozmaganim uchun juda qiyin ahvolda qolib, uzr so'rashga tushdim va "bu bandaning" aytganlari baribir hazrat sultanatpanohning humoyun suhbatlariga loyiq bo'la olarmidim? Agar vojibul i'zon, ya'ni hamma bajarishi shart farmon sharafini topsam, hazrat haqoyiq panohiy, xo'jasta farjomiy Abdurahmon Jomiy she'rlaridan bir hayitlik g'azalni hazratlarining sharofatli arzlariga yetkazgan bo'lardim" – dedim hijolatpazlikdan chiqishga urinib.

– Qutulishning zo'r yo'lini o'ylab topding-a! – dedilar Sulton tabassum qilib. Shundan so'ng she'r o'qishga ruxsat olib, ushbu latif g'azalni sharif e'tiborlariga havola qildim" [Mutribiy Samarqandiy, 2014: 36].

Faxruddin Ali Safiy o'zining "Rashahot aynul hayot" [Ali Safi, 2003: 181-221] kitobining Xo'ja Ahror valiyga bag'ishlagan. Asar O'rta Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy va ma'naviy hayotni o'rganishda ham qimmatli manbalardan biridir. Fors tilida yozilgan. Kitob domla Xudoybergan tomonidan 19-asr Xorazmda eski o'zbek tiliga tarjima qilingan ushbu nusxasidan mazkur kitob nashrga tayyorlangan. Ali Safi "Rashahot"ni mashhur shayx Xoja Ahrori Valiyning hayoti va faoliyatiga bag'ishlagan bo'lsa-da, unda Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan ko'plab mashoyixlar, olimlar, davlat arboblari, ya'ni Jomiy kabi mutafakkirlarga ham alohida fasllar bag'ishlangan. Unda shayxning hamsuhbatlaridan bo'lgan Abdurahmon Jomiyga salmoqli sahifa ajratgan. Unda Jomiyning tug'ilishi, ilm egallashi, fazli kamol ahliga qo'shilishi, Samarqand va Hirot madrasalarida olgan tahsili, Mavlono Saduddin Koshg'ariydan tasavvuf ilmini o'rganishi, naqshbandiya tariqatiga yo'l tutishi, uning hijoz – haj safari va u haqida 10 ta rashhaning berilishi va Jomiyning tartibli, ibratlari odatlari, uning vafoti tarixi zikr qilingan. Otasini ustozim deb qayd etgan va bolaligida aqlini otisi to'ldirganiga urg'u bergen: "Va biz haqiqatda otamizning shogirdi tururmizkim, tilni ondin o'rgandik" [Ali Safi, 2003:185]. Asarlaridan "Nafahot ul-uns" esga olingan. Qizig'i shundaki, kitobda Jomiydan keyin uning sodiq shogirdi Mavlono Abdulg'afur Loryi [Ali Safi, 2003: 221-234] haqida ham alohida bob yozilgan. Mana shu bobda ham Jomiyning sharaflı nomi va uning "Nafahot ul-uns", "Sharhi Mullo", "Silsilat uz-zahab", "Hiradnomai Iskandariy" singari asarlari tilga olingan.

Xulosa shuki, Husayn Boyqaro Jomiy va Navoiy kabi ko'plab iste'dodlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan va o'z davrining zabardast shoir, adib, olim, muarrix, musiqachi, hattot, naqqoshlari xuddi shu zamonda yetishib chiqqan va faol ijod qilishgan.

XV-XVI asrga oid manbalarda Abdurahmon Jomiyning ibratlari hayot yo'li, samarali ijodi, boy ijodiy merosi, fazilatlari, shoir, adib, olim, filosof, faqih, jamoat arbobi, mehribon ota sifatidagi

olmos qirralari tasvirlanganiga amin bo‘ldik. Jomiyning adabiy va tasavvufiy maktabi an’analari davom etganini bildik. Ma’lum ma’noda jomiyshunoslik tarixi bilan tanishtirishga harakat qildik. Ammo shunga qaramay biz ushbu davrlarda jomiyshunoslik bilan bog‘liq masala va muammo-larni to‘liq o‘rgandik deb ayta olmaymiz va keyinigi taddiqotlarimizda davom ettiramiz degan umidimiz yo‘q emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa’dayn va Majmai bahrayn (Fors tilidan A.O’rinboyev tarjimasi).* – T.: O’zbekiston, 2008.
2. *Abdurahmon Jomiyning ijod olami.* – T.: TAMADDUN, 2014.
3. *Ayniy S. Asarlar. 8-jild. Maqolalar.* – T.: G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashri, 1967.
4. *Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. 12-jild.* – T.: Fan, 1996.
5. *Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. 17-jild.* – T.: Fan, 2001.
6. *Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. 13-jild.* – T.: Fan, 1997.
7. *Alisher Navoiy. Muhokakmat ul-lug ‘atayn. 16-jild.* – T.: Fan, 2000.
8. *Bobur. Boburnoma.* – T.: Sharq, 2002.
9. *Bobur. Mubayyin.* – T.: Fan, 1971.
10. *G’aniyeva S. Navoiy yodga olgan asarlar.* – T.: ToshDShI nashriyoti, 2019.
11. *Devletşah. Şair Tezkireleri (Tezkiretiş-Şuara.)* Çeven Prof. Dr.Necati Lugal.. İstanbul. Pinhan. Birinci Basim, 2011.
12. *Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro.* – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
13. *Zayniddin Vosifiy. Badoe’ul vaqoe’.* – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.
14. *Zohidov V. Ulug’ shoir ijodining qalbi.* – T.: O’zbekiston, 1970.
15. *Lutfiy. Devon.* – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
16. *Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi.* – T.: Mumtoz so‘z, 2013.
17. *Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy.* – T.: Sharq, 2010.
18. *Navoiy zamondoshlari xotirasida.* – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
19. *Rajabova B. Boqiy vasiyatnomalar.* – T.: Fan, 2022.
20. *Rajabova B. Jomiy va Bobur // Ma’rifat.* – 2024 yil 7 fevral.
21. *Rajabova B. Jomiy va Mutribiy Samarqandiy // Ma’rifat.* – 2024 yil 10 iyul.
22. *Rajabova B. Rudakiy va Jomiy // Adabiyot ziyosi.* – 2024 yil, 8 avgust.
23. *Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin.* – T.: Mumtoz so‘z, 2014.
24. *Faxruddin Ali Safiy. Rashahot.* – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashri, 2003.
25. *Xasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi.* – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
26. *Xondamir. Makorim ul-ahloq.* – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
27. *Husayn Boyqaro. Risola. Devon.* – T.: Sharq, 1995.
28. *Shodiyev E. Zahiriddin Muhammad Bobur. – Xo‘jand: Rahim Jalil nomidagi Davlat nashriyoti,* 2001.

OZODA TOJIBOYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

KULLIYOTLARDAGI “FAVOYID UL-KIBAR” MANBALARI VA NASHRLAR

Annotatsiya: Sharq adabiyotida kulliyot tuzish an'anasi ko'proq ijodi yirik hajmni tashkil etib, xalq tomonidan yuqori baholangan mualliflarning asarlariga nisbatan amalda qo'llangan. Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlariga tuzilgan kulliyotlar o'rta asrlar xattotlik, miniatyura, kitobatchilik san'atini o'zida jamlagan meros sifatida ardoqlanadi. Ustozlaridan farqli ravishda Alisher Navoiyning asarlari jamlangan kulliyotlar yirik hajmi, salmog'i, janr jihatidan turfaligi bilan jahonda ayricha baholanadi. Xalqlararo ochilgan keng imkoniyatlar O'zbekistondagi nashrlarga qiyosiy o'rganish imkonini beradi. Ularning har birida "Xazoyin ul-maoniy" devonlarining berilish tartibi, o'rni, matniy xususiyatlari ham o'ziga xos.

Maqolada Istanbuldagi Fotih kutubxonasiga tegishli №808, Parij Milliy kutubxonasida saqlanuvchi №316-317, Istanbul Sulaymoniya kutubxonasiga tegishli №4056 raqamli kulliyotlardagi "Favoyid ul-kibar"ning matni qiyosiy ko'rib chiqildi. Joriy nashrlardagi devon matni bilan solishtirildi.

Kalit so'zlar: kulliyot, an'ana, devon, qo'lyozma nusxalar, nashrlar, qiyosiy matn.

Annotation: In Eastern literature, the tradition of creating an anthology is most often applied to the works of authors who have a large volume and are highly valued by the people. Collections consisting of the works of Sheikh Sadi, Hafiz Shirazi, Abdurrahman Jami are revered as a heritage that includes the art of calligraphy, miniatures and bookmaking of the Middle Ages. Unlike their teachers, the collections of works by Alisher Navoi are highly valued in the world due to their large size, weight and genre diversity. The enormous opportunities that open up between countries allow for a comparative study of publications in Uzbekistan. In each of them, the order, place and textual features of the divans of "Khazain ul-maoni" are unique. The article examines the text of "Favoid ul-kibar" in collections no. 808, belonging to the Fatih Library in Istanbul no. 316-317, stored in the National Library of Paris no. 4056, belonging to the Sulaymaniyah library in Istanbul compared. Compared with the text of the Divan in current editions.

Key words: kulliyet, tradition, divan, handwritten copies, editions, comparative text.

Sharq adabiyotida kulliyotlar asosan sermahsul ijod qilgan, xalq orasida badiiy mafhorati yuksak e'tirof etilgan adiblarning asarlarini o'zida jamlagan yirik manbalar sifatida saqlanib kelmoqda. Mazkur kulliyotlar alohida ko'chirilgan asarlarga qaraqanda o'zining asarlarni tartiblash prinsipi, badiiy bezaklari, miniatyuralari jihatidan ham fan tarixida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, forsiy adabiyotda kulliyotlar tuzish an'anasi ko'proq sermahsul ijod qilgan va xalq ardog'iga sazovor bo'lgan Shayx Sa'diy Sheroziy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlariga nisbatan qo'llangan. Mazkur kulliyotlarni tuzish albatta shohlar yoki mashhur shaxslar homiyligida xattotlar, musavvirlarni jalb etgan holda tayyorlangan. Bugun Angliya, Fransiya, Berlin, Sankt-Peterburg fondlarining qimmatli yodgorligi hisoblangan mazkur kulliyotlar asliyatga yaqin, ishonchli matnni o'zida jamlagan, o'rta asrlar Sharq madaniyatini o'rganish uchun asos bo'luvchi manba sifatida ham ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shular sirasidan kulliyotlar talabiga to‘liq javob beruvchi, o‘zigacha bo‘lgan kulliyotlardan sifat va qamrov, hajm jihatidan salmoqdor bo‘lgan, turkiy tilda yaratilgan Alisher Navoiy asarlari kulliyotlari dunyo kutubxonalaridagi eng noyob madaniy-adabiy merosdir.

Alisher Navoiy asarlari kulliyotlari turk olimi Ogah Sirri Levend, rus olimi S.L.Volin, o‘zbek olimlari Muhammadjon Hakimov, Hamid Sulaymonov tomonidan batafsil yoritilgan. Jumladan, S.Volin Rossiyadagi Navoiy asarlarini tavsiflash jarayonida Sankt-Peterburgdagi 55, 558, 559 raqamli [19], turk olimi Ogah Sirri Levend Istanbuldagi 808, 4056 raqamli kulliyotlar haqida ilk ma’lumotlarni taqdim etgan bo‘lsa [9], M.Hakimov O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutidagi 316, 526, 2589, 163, 1248 inventar raqamli kulliyotlarni tavsiflagan [7, 8]. Alisher Navoiyning lirik devonlarini katta zahmat bilan nashrga tayyorlagan olim Hamid Sulaymon mazkur kulliyotlarning sakkiztasidan foydalanganini qayd etadi [16. 83]. Ular sirasida Tojikistonda saqlanuvchi 1499-1500-yillarda ko‘chirilgan 1990 raqamli kulliyot ham mavjud. Olim “Xazoyin ul-maoniy”ning akademik nashridan keyin e’lon qilgan maqolalarida Istanbul va Parij kulliyotlari haqida atroflicha ma’lumot bergen. Matnshunos olima Oysara Madaliyeva navoiyshunoslikda ko‘p yillardan buyon e’tirof etilib kelinayotgan Alisher Navoiy lirikasi manbalariga oid qo‘lyozmalar, kulliyotlarni o‘rganib, ularni o‘z tadqiqotida batafsil izohlagan. Qo‘sishimcha tarzda Eron kutubxonalaridagi kulliyotlarning qamrovi, tarkibi bo‘yicha ma’lumot beradi [12].

Asosiy qism. “Xazoyin ul-maoniy”dagi devonlar tartibida eng oxirgisi hisoblangan “Favoyid ul-kibar” devoni kulliyotlar tarkibida turlicha keladi. Istanbul kutubxonasida devonning XVI asrda ko‘chirilgan alohida nusxalari ham mavjud. Ayrim kulliyotlarda to‘rt devon tartibi ayricha emas, g‘azallar umumiyligi alifbo tartibida ham berilgan. Biz tahvilga tortayotgan uch kulliyot o‘zining qadimiyligi, fanda yuqori baholanishi, katta asarlar hajmini o‘zida jamlagani bilan ajralib turadi. Xususan, ularda “Favoyid ul-kibar” quyidagi sahifalardan o‘rin olgan:

1. Turkiya, To‘pqop Kutubxonasiyadi Revan 808-raqamli kulliyot. Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotda ko‘chirilgan. “Favoyid ul-kibar” devoni kulliyotning 597^b-658^b sahifalarida joylashgan bo‘lib, 627 g‘azal, 1 mustazod, 2 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 tarjiband, soqiyonna, 48 qit‘a, 84 fard kiritilgan.

2. Parijdagi 316-317-raqamli kulliyot. 1526-27-yillarda Hirotda kotib Ali Hijroniy tomonidan ko‘chirilgan. Kulliyotda “Favoyid ul-kibar” 202^b-268^b-sahifalarda joylashgan.

3. Sulaymoniya Fotih kutubxonasiyadi 4056-raqamli kulliyot. “Favoyid ul-kibar”da 657 g‘azal va boshqa janrlar bo‘lib, 584^b-646^a-sahifalarda berilgan. O.Madaliyeva “Nusxada Sulton Mahmud I ning (1730-1754) muhri mavjudligi kulliyotning mazkur Sulton hukmronligi davrida yoki undan avval tasnif qilinganini bildiradi”, deb ma’lumot beradi [12. 136]. Demak, kulliyot yuqoridagi ikki kulliyotdan ancha keyin ko‘chirilgan. Biroq shunday bo‘lsa-da, kulliyotga 26 ta asar kiritilgan.

Fanda Alisher Navoiy tirikligida, shaxsan e’tibori ostida ko‘chirilgani aytildigan, bugungi kunda Istanbulda saqlanayotgan №808 raqamli kulliyotga adibning 26 ta asari kiritilgan, Parij kulliyotida ham 26 ta asar mavjud. Olim Hamid Sulaymon “Bu uch qo‘lyozma bir-birining ayni nusxasi bo‘lgani uchun Navoiy tuzgan kulliyot tarkibi qat’iy ravishda 26 asardan tarkib topgani shubhasizdir”, deb ta‘kidlaydi va boshqa kulliyotlarda ana shu tartib saqlanmaganini aytadi (91). Shu ma’noda garchi keyingi asrlarda ko‘chirilgan bo‘lsa-da, 4056 raqamli mazkur kulliyot Alisher Navoiy o‘zi tiriklik payti kiritgan prinsip, talablarga muvofiq tuzilgani uchun ham qimmatga ega sanaladi. Zero, bu davrda O‘zbekistonda ham ko‘chirilgan ko‘plab alohida qo‘lyozmalar va kulliyotlar mavjud, biroq ulardagagi hajm yuqoridagidek emas.

Hamid Sulaymon “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi “Favoyid ul-kibar”ni ko‘chirishda Sankt-Peterburg №55, 558, Tojikistondagi № 1990, O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutidagi №677, 1709, 1486, 1315 kabi qo‘lyozmalarga asoslangani ma’lum. Istanbul va Parij kulliyotlari topilgandan so‘ng olim matnni yana qayta ko‘rib, kerakli o‘rnlarni to‘g‘rilaganini ma’lum qilgan.

Har uch kulliyotdagi devon matnlarini 2011-yilda G‘afur G‘ulom nashriyotida chop etilgan Alisher Navoiy asarlarining o‘n jildli “To‘la asarlar to‘plami”dagi “Favoyid ul-kibar” matniga qiyosan tekshirib ko‘rilganida, har uch qo‘lyozmaga xos xususiyatlar borligi ma’lum bo‘ldi [3].

Eslatib o‘tish joiz, Alisher Navoiy tirikligida ko‘chirilgan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan deb qaraluvchi 808 raqamli kulliyotning foto nusxasini turk olimi Gunay Kut nashrga tayyorlagan [13]. Turk olimi Onal Kaya “Favoyid ul-kibar” devoni matni bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan. Onal Kaya Revan 808, Sulaymoniya Fotih kutubxonasiidagi 4056, Parijdagi 316-317-raqamli kulliyotlar, Istanbul universiteti kutubxonasiidagi 1565, 2794-raqamli devonning alohida ko‘chirilgan qo‘lyozmalarini tekshirib, qiyosiy-yig‘ma matn shakllantirgan [17, 18]. Asos qilib 808 raqamli kulliyotni olgan va turk alifbosida nashrga tayyorlagan. Matn ostida qo‘lyozmalardagi qiyoslarni berib borgan. Tartibi bilan 4056 kulliyotdagi “Favoyid ul-kibar” devoni matni hoshiyalarida berilgan, Navoiyning devonlarga kirmay qolgan g‘azallari matnni ham berib borgan. Mazkur tadqiqotga Rossiya, Tojikiston O‘zbekistondagi nusxalar jalb etilmagan, faqat O‘zbekistonda 1963-65-yillarda nashr etilgan 15 tomlik Alisher Navoiy “Asarlar”idagi “Favoyid ul-kibar” matni qiyos uchun olingan.

Yana ahamiyatlisi, boshqa devonlarga nisbatan “Favoyid ul-kibar”ning o‘sha davr muhitiga yaqin alohida ikki nusxasi mavjud. Bular Istanbul universiteti kutubxonasiidagi 1565-raqamli 948/1540-yilda alohida ko‘chirilgan nusxasi. Kotib Jamshid. 643 g‘azal, 85 fard va boshqa janrlar mavjud. Ikkinchisi, shu fonddag‘i 2794-raqamli nusxa. Kotib Husayn ibn Haydar al Husayniy Jurjoniy. 1043/1633-yilda ko‘chirilgan. Qo‘lyozmada she‘r matnlari asosiy sahifadan tashqari hoshiyaga ham ko‘chirilgan. Mazkur devon matni uchun qadimiy nusxalarning ko‘pligi ham har birini o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot uchun jalb qilingan har uch kulliyotdagi qo‘lyozmalar o‘ziga xos. Qiyoslardan matnlarga xos quyidagi jihatlarni alohida ko‘rsatish mumkin:

1. 808 va 316-317 (Parij) raqamli kulliyotdagi matnlar chiroyli husnixatda yozilgani bilan ajralib turadi. № 808 da g‘azallar tig‘iz joylashgan, misra oxiriga borib harflar ustiga chiqib, so‘z tushunilishi qiyinlashgan o‘rinlarni bemalol Parij nusxasiga qarab anglab olish mumkin. Sababi Parij nusxasi juda ravon, tekis, yoyiq, keng va batatsil ko‘chirilgani bilan oson va tez o‘qiladi.

2. Har ikki kulliyotdagi devon matni bir-biriga juda yaqin. №4056 raqamli qo‘lyozmaga nisbatan qiyoslanganda, ularning har ikkisini bir tomonga, bu kulliyotni esa alohida bir guruhga ajratish mumkin. Farqli o‘zgarishlar 4056 raqamli qo‘lyozmada ko‘proq, Parij nusxasi 808 kulliyotga juda yaqin. H.Sulaymonov ham Parij nusxasini “Asar matni kulliyotning boshqa nusxalariga qaraganda muallif tahririga ancha yaqin bo‘lib, unda tavofutlar juda kam” [14. 192], deya ta’kidlagan.

3. Misralarda *anga – onga, aning – oning, aningdek – oningdek* kabi alif bilan boshlanuvchi so‘zlar deyarli №808 kulliyotda o‘z o‘rnida, me’yori bilan *a – ī* yoki *o – ī* bilan boshlanib keldi. Parij nusxasida esa aksariyat *a – ī* bilan, Sulaymoniya 4056 raqamli nusxada esa deyarli *o – ī* (*onga, oning, oningdek* tarzida) bilan boshlangani kuzatiladi. O‘qish jarayonida № 4056 raqamli kulliyotining kotibi forsiy tilli bo‘lsa kerak degan fikr tug‘iladi. №808 raqamli kulliyotdagi **o** bilan boshlanuvchi so‘zlar Parij nusxada *a – ī* bilan boshlanadi, Sulaymoniya nusxasida esa *o – ī* bilan boshlanadi, aynan shu jihatiga ko‘ra 808 va 4056 raqamli kulliyotlardagi matn o‘zaro yaqinlashadi.

4. № 808 va Parij nusxadagi farqlar qo‘srimchalarda ko‘rinadi, 4056 bilan esa so‘zlarda va -ga, -g‘a, -qa, -da, -liq, -lig‘ kabi qo‘srimchalarda farqlanadi.

5. Parij nusxada №808 raqamli kulliyotda bo‘lmagan ayrim baytlar mavjud. Jumladan, 46-g‘azalda “*Qachon behush o‘lurmen o‘zlukumdin / Agar to‘ldursang jomim labolab*”, 137-g‘azaldagi “*Jon aziz asru fido-yu yori joni bo‘lg‘ali / Der na ekin oshiqi bechora ul jonni netar*”, 143-g‘azaldagi “*Demangiz har kecha hajrinda necha qon yig‘lading, / Qonima har dam kiran ul la‘li shakkarkandidur*” misralari faqat Parij nusxasida bor. Mazkur baytlar bilan 7 baytli g‘azallar 8 baytni tashkil qilgan. Demak, Hirot nusxasini ko‘chirgan, hozirda Parijda saqlanuvchi

kulliyot kotibi Ali Hijroniy 808 raqamli kulliyotdan boshqa nusxadan ham foydalangan. Turk olimi Onal Kaya “Favoyid ul-kibar”ni 808 raqamli kulliyot asosida tayyorlagan bo‘lsa-da, turk-lotin alifbosida tayyorlagan matniga Parij nusxasidagi baytlarni ham kiritib ketgan. Umuman, olim asos sifatida bitta manbani olib, barcha qo‘lyozmalardagi ortiqcha g‘azallarni kiritib borgan. Xususan, 4056 raqamli Sulaymoniya nusxasidagi “Favoyid ul-kibar” matni hoshiyalariga ko‘chirilgan Ali-sher Navoiyning devonlariga kirmay qolgan she’rlari matni ham batafsil kiritilgan. Shu ma’noda mazkur nashr Navoiy devonining to‘liq qiyosiy matnini o‘zida jamlagan tadqiqot sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [17, 18].

Har uch kulliyotdagи devon matnini joriy nashrlarga qiyoslaganda, nashrlardagi o‘zga so‘zlar, farqlarning manbalari 4056 raqamli Sulaymoniya nusxasiga muvofiq ekanligi oydinlashadi. Sababi matndagi o‘zgargan so‘zlar Revan 808 va Parij 317-318 nusxasida bir xil, Sulaymoniya 4056 nusxa va nashriy matnda bir xil. Umuman, har uch kulliyotdagи g‘azallarni matniy tekshirish ularning o‘ziga xosligini ochib boradi. Shu o‘rinda ayrim g‘azallar misolida farqlarni, nisbatan farq ko‘proq bo‘lgan *Ruh gulzorida*, *yo Rab, ul ne sarvi nozdur* misralari bilan boshlanuvchi 169-g‘azal misolida ko‘rib o‘tamiz. Ayni matn 808 raqamli kulliyotda quyidagicha berilgan [404. 611^b]:

159

روح گلزارىدە، ئىارب، اول نى سرو ناز دور
كيم، روانبخش اينىيگا روح القدس هماز دور.

اللهـاللهـ، نـي لـطـافـتـ دـورـكـهـ، كـيرـديـمـ باـغـ اـرـاـ،
سـروـيـ مـينـگـدـيـنـ كـفـيـتـورـورـ، لـېـكـنـ بـيرـ آـنـدـاقـ آـزـ دـورـ.

أول پـري عـشـقـيـداـ غـالـبـ بـولـدىـ روـحـانـيـتـيمـ
كـيمـ، اـنـىـنـگـدـيـكـ هـمـ اـنـىـنـگـ سـارـىـ اـيـشـيمـ پـروـازـ دـورـ.

ابـرـدىـ جـانـ بـپـرـماـكـ مـسيـحـ انـفـاسـيـ، بوـ كـيمـ، يـوزـ مـسيـحـ،
جانـ تـاـپـارـ انـفـاسـيـدـيـنـ - بـسـ بـوـالـعـجـ اـعـجازـ دـورـ.

عـشـقـنـىـ ئـيـلـابـ نـهـانـ بـلـاـيـاـ كـهـ، خـونـىـ غـمـزـ هـسـىـ
دمـبـدـمـ خـونـابـهـ اـشـكـيمـ كـيـيـ غـماـزـ دـورـ.

تـانـىـ بـوـلـغـايـ عـشـقـيمـ اـنـجـامـيـ كـهـ، جـانـيمـ قـالـمـادـيـ،
شـوقـيـدـيـنـ بوـ دـمـ كـهـ مـوـفـوشـ دـورـيـغـهـ آـغاـزـ دـورـ.

گـلـ وـصـالـىـ بـيرـ نـىـچـهـكـونـ بـبـشـ اـبـماـسـ، اـىـ عـنـدـلـيـبـ،
يـوقـسـهـانـدـيـنـ بـيـنوـاسـيـنـ، قـيـشـ دـورـرـ گـرـ يـازـ دـورـ.

دـهـرـ بـاغـىـنـىـنـگـ گـلـيـداـ يـوقـ وـفاـ، بوـ طـرفـهـ كـيمـ،
سـرـزـنـشـ قـهـ خـارـىـ يـوزـ مـينـگـ تـيـلـ بـيلـهـ طـنـازـ دـورـ.

بـولـدىـ لـگـلـارـىـ خـامـوشـ نـالـنـگـ حـزـنـ دـينـ،
اـىـ نـواـيـيـ، بوـ نـيـ گـلـانـگـ وـ حـزـينـ آـواـزـ دـورـ.

پـرـدـوـلـاتـ قـهـ شـرـقـتـ خـالـىـ دـورـ	سـيـنـ كـوـكـشـ كـهـ دـيرـاـيـجـهـ تـرـدـىـ	كـىـشـحـ شـهـرـاـيـشـيـ دـورـ يـاـ دـورـ
كـيمـ دـورـ خـوشـنـ باـزـىـخـاـ دـوحـ الـكـتـسـهـ هـاـزـ	حـرـمـيـكـيـدـيـنـ كـوبـ تـقـرـدـرـ يـيـكـيـهـ پـرـآـنـدـاـزـ	دـوحـ كـلـتـاـرـاـ يـيـرـهـ يـارـىـهـ اـولـ تـىـ سـرـنـاـزـ
كـيمـ اـنـىـنـ دـيـكـمـ اـنـىـنـ سـارـىـلـاشـمـ	أـولـرـ كـىـشـتـىـ جـاـيـبـ بـرـدـلـىـ تـرـجـعـتـمـ	اـسـهـ اـسـهـ اـنـهـ اـنـهـ دـورـ كـيـرـمـ يـيـغـ اـرـاـ
دـمـ بـيـمـ خـوشـرـاـ دـيـكـمـ كـيـيـ خـارـدـورـ	عـشـقـتـىـ تـيـلـيـبـ تـهـانـ اـيـلـىـ كـهـ خـونـيـ غـوـزـيـ	اـسـيـدـيـ جـاـنـ پـاكـيـ پـيـجـ اـنـتـسـ بـيـكـمـ وـرـجـعـ
يـوـرـقـسـاـخـوـنـ يـيـ خـارـىـتـيـشـ دـورـ كـيـرـيـدـ	كـلـ مـصـالـىـ پـرـچـكـوـكـ شـيـشـ يـاـسـارـىـ خـيـرـيـ	تـاـقـيـ بـرـغـانـ عـشـقـمـ اـتـجـاـيـ كـهـ جـانـسـ قـاـلـادـىـ
اـىـ خـواـيـىـ دـيـنـ كـلـيـانـ دـخـرـىـنـ تـوـانـ دـورـ	بـرـكـيـشـ قـهـ خـارـىـ يـوزـ مـيـكـيـشـ تـيـلـ يـيـنـ	دـسـرـبـاعـنـ يـيـكـمـ كـلـ دـورـقـ دـيـرـقـ دـقـوـرـ كـيـمـ
آـلـارـيـكـ شـايـيـدـهـ تـوـرـ عـلـىـ تـورـ	غـزـشـشـ قـهـ خـارـىـ يـوزـ مـيـكـيـشـ تـيـلـ يـيـنـ	يـيـرـدـوكـنـ رـدـشـنـ اـيـكـيـلـ كـمـ دـرـدـرـ كـيـزـ
پـيـجـ آـنـىـنـ دـهـ سـكـاـخـاـ دـيـرـيـشـ دـيـرـ	اـيـرـدـرـلـاـ دـرـعـسـ اوـسـرـ كـلـاـكـوـكـ دـاـخـخـورـ	كـيـمـ تـاـقـ كـوـزـ دـوكـنـ پـيارـعـىـنـ كـمـ
كـماـراـوتـ دـهـ دـرـسـ دـاـخـلـ	غـيـنـاـكـاـنـ دـاـخـلـ شـهـدـ	اـسـكـنـ حـسـتـرـ عـشـقـمـ تـوـرـ تـيـرـ شـهـدـ

Xuddi shu g‘azalni matniy qiyosiy jadvalda ko‘rib o‘tamiz (matnda o‘zgargan so‘zlar qora harf bilan ko‘rsatildi):

G‘azal matni	Revan (808)	Parij (316-317)	Sulaymoniya (4056)	Joriy nashr 10 tomlik
Ruh gulzorida, yo Rab, ul ne sarvi nozdur				
Kim, ravonbaxsh irniga Ruhul Qudus hamrozdur.				
Alloh-Alloh, ne latofatturki, kirdim bog‘ aro,	-durki	-durki	-durki	-turki
Sarvi mingdin ko‘pturur , lekin bir andoq ozdur.	ondoq	mingdek	ko‘ptur, ondoq	andoq
Ul pariy ishqida g‘olib bo‘ldi ruhoniyatim				
Kim, atingdek ham aning sari ishim parvozdur.	oningdek, oning	atingdek, aning	oningdek, oning	atingdek, aning
Erdi jon bermak Masih anfosi, bukim, yuz Masih, Jon topar anfositin – bas bul-ajab e’jozdur.	erdi	erdi	bo‘ldi	erdi
Ishqin naylab nihon asrayki , xuni g‘amzası	aylayki	aylayki	osrayki	asrayki
Dam-badam xunobai ashkim kibi g‘ammozdur.				
To ne bo‘lg‘ay ishqim anjomiki, jonim qolmadı,				
Shavqidin bu damki ishqim davrig‘a og‘ozdur.	shavqum	shavqum	ishqim	ishqim
Gul visoli bir necha kun besh emas, ey andalib,				
Yo‘qsa andin benavosen, qishdurur gar yozdur.	ondin	ondin	ondin	andin
Dahr bog‘ining gulida yo‘q vafo, bu turfakim,				
Sarzanishqa xori yuz ming til bilan tannozdur.	-qa, bila	-g‘a, bila	-qa, bila	-qa, bilan
Bo‘ldi gulshan qushlari xomush nolang huznidin,	gullari	gullari	qushlari	qushlari
Ey Navoiy, bu ne gulbongu hazin ovozdur.				

Matniy qiyoslardagi farqlarni ikkiga ajratish mumkin:

1. G‘azal mazmuniga ta’sir ko‘rsatmagan farqlar: *ating, oning, andin, ondin, bila, -qa, -turkabi*.

2. G‘azalda farqli mazmunni yuzaga keltirgan so‘zlar: *aylayki – asrayki, shavqum – ishqim, erdi – bo‘ldi, gullari – qushlari*.

Aslida aksariyat g‘azallarda matn unchalik katta farq qilmaydi, ma‘lum bir so‘zlarning qaysidir qo‘lyozmaga asoslanishiga ko‘ra farqlanadi. Joriy nashr bilan qo‘lyozmalardagi farqlar qiyoslanganda, nashrdagi farqlarning manbalari 4056 raqamli kulliyot matni ekanligi oydinlashadi. Sababi ayni o‘zgargan qo‘sishicha, so‘z Parij (№316-317) va Revan (№808) nusxasida bir xil, Sulaymoniya (№4056) nusxasi va joriy nashrda bir xil.

“Bo‘ldi gulshan qushlari xomush nolang huznidin” misrasidagi qushlari aslida juda muvofiq tushadi. Gulga nisbatan qushning oshiqning hazin nolasini eshitishi mantiqan mos tushadi. Keyingi misradagi “bu ne gulbongu hazin ovozdur” jumlasidagi sayrash, hazin ovoz so‘zları matnda qush bo‘lishi lozim degan fikrni tasdiqlaydi. 808 va Parij nusxasidagi *gulshan gullari* tarzida qo‘llangan so‘zda ma’no yanada noziklashadi: oshiqning hazin nolası hatto bog‘dagi gullarni ham ma’yus qiladi. Umuman, Sulaymoniya nusxasidagi *qushlari* so‘zini yozishga ham qaysidir matn asos bo‘lgan. Farqlar yana olim Hamid Sulaymon ilmiy tanqidiy nashr uchun asos qilib olgan №55, 1990, 677 raqamli qo‘lyozmalarni ham tekshirganda oydinlashadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlari matni Hamid Sulaymondek zabardast olimning mashaqqatli mehnati evaziga yuzaga chiqqani va keyingi yillarda tahrir bilan nashr etilayotgani ham kitobxonning ehtiyojiga to‘liq xizmat qila oladi. Turkiyalik olimlar tomonidan yillar davomida Alisher Navoiy har bir asarining alohida qiyosiy-matniy, yig‘ma-qiyosiy, to‘liq lingvistik tahlili

kabi yaxlit ilmiy tadqiqotlar bajarilmoqda. O‘zbekistonda ham har bir devon, doston, nasriy va ilmiy asarlarining yig‘ma-qiyosiy, qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish lozim. har holda bugun qo‘limizda mukammal nashrlar bo‘lgani holda muallif davriga yaqin nusxalarning qiyoslarini ko‘rib chiqish foydadan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд: Ҳазойин ул-маоний: Ғавоийд ул-кибар. Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. – Тошкент: Фан, 1990.
2. Алишер Навоий. Ғавоийд ул-кибар. Ҳазойин ул-маоний. Тўртинчи девон. – Тошкент: Tamaddun, 2011. – 780 бет.
3. Алишер Навоий. Ғавоийд ул-кибар. Ҳазойин ул-маоний. Тўртинчи девон. – Тошкент: Faqfur Гулом номидаги нашриёт-матбаба ижодий уйи, 2021. – 840 бет.
4. Alisher Navoiy. Kulliyot. Qo ‘lyozma. To ‘rqopi saroyi kutubxonasi. Revan 808-inv. raqam.
5. Alisher Navoiy. Kulliyot. Qo ‘lyozma. Fransiya Milliy kutubxonasi. Suppl. Turc. 317-inv. raqam.
6. Alisher Navoiy. Kulliyot. Qo ‘lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi. 4056-inv. raqam.
7. Ҳакимов Муҳаммаджон. Алишер Навоий “Кўллиёт”ини илмий тавсифлаши тажрибасидан. // Адабий мерос. – Тошкент, 1980. № 3 (15). – Б. 9 – 16.
8. Ҳакимов Муҳаммаджон. Шарқ китобат шишида “Кўллиёт”нинг ўрни // Адабий мерос. – Тошкент, 1988. 3(45). – Б. 74 – 77.
9. Levend Âgâh Sirri. “Türkiye Kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları”. Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten, 1958. 6: 127 – 209.
10. Мирзаҳмедова Марғуба. Навоий асарлари кўллиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. № 3. – Б. 90 – 91.
11. Мадалиева Ойсара. Алишер Навоий кўллиётининг Эрон нусхалари. / “Алишер Навоий мероси ўзбек шарқшунослиги талқинида” илмий амалий анжуман тўплами. – Тошкент, 2020/2. – Б. 97 – 103.
12. Мадалиева, О. Алишер Навоий девонлари қўллэзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Donishmand ziyosi. 2021.
13. Külliyat-ı Nevayı: İnceleme, Tipkibasım. Kut Günü. İstanbul, Türkiye Yazma Eserler Kurumu. 2020.
14. Сулаймон Ҳамид. Алишер Навоийнинг Париж кўллиёти. // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1981. № 2. – Б. 191 – 194.
15. Сулаймон Ҳамид. Алишер Навоий кўллиёти қўллэзмалари тадқиқотидан // Адабий мерос. – Тошкент, 1973. №3. – Б. 83 – 93.
16. Сулаймонов Ҳ. “Ҳазойинул-маоний” текстларини ўрганиши ва нашрга тайёрлашининг асосий масалалари. // Алишер Навоий. “Ҳазойинул-маоний”. Т. 1.: “Ғаройибус-сигар”. – Т.: Ўз ССР ФА нашриёти, 1959. 17-б
17. Kaya Önal. Ali Şir Nevayı. Fevayidü'l-Kiber. – Ankara Üniversitesi, 1996.
18. KAYA ÖNAL. Ali Şir Nevayı «Fevayidü'l-Kiber» (inceleme-metin-dizin). Doktora tezi. Ankara Üniversitesi / Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1989. - 1382 s.
19. Volin, S. L. (Çev. Rasime Uygun), ‘Leningrad Kitaplıklarındaki Nevaî Yazmaları Hakkında’. TDAY-Belleten. – Ankara, 1955. 99 – 141.

SHUHRAT HAYITOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

"BOBURNOMA" NING TARIXIY ASPEKTDA O'RGANILISHI

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va nodir tarixiy manbadir. Unda Movaraunnahr, Afg'oniston va Hindistonda kechgan o'ttiz olti yillik voqealar aks etgan. Asar fanning qirqqa yaqin soha va yo'nalishlarida tadqiq etib kelinmoqda. Dunyo olimlari tomonidan olib borilgan bunday tadqiqotlar orasida tarixshunoslikka oid izlanishlarning ham ko'lami kengdir. Mazkur maqolada turkiy boburshunoslikda "Boburnoma"ning tarixiy aspektda o'rganilishiga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Bobur, "Boburnoma", boburshunoslik, turkologiya, tarix, tarixshunoslik, mamba, manbashunoslik.

Abstract: Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama" is an important and rare historical source in world literature and source studies. It reflects the events of thirty-six years in Movaraunnahr, Afghanistan and India. The work is being studied in about forty fields and directions of science. Among such studies conducted by world scientists, the scope of historiographical research is also wide. This article discusses the main studies conducted in Turkish Babur studies on the study of "Baburnama" from a historical perspective.

Keywords: Babur, "Baburnama", Babur studies, turkology, history, historiography, source, source studies.

Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy asari o'rganilishi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu asar haqida dastlabki fikrlar o'z davridayoq aytilgan. Ko'pgina tarixiy manbalarda bu haqda ma'lumotlar uchraydi. Asarni ilmiy tadqiq etish borasida bugungi kunga qadar G'arb va Sharq olimlari minglab ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Asar XVI asrdayoq adabiyotchilar, tarixchilar umuman, ilm ahli e'tiboriga sazovor bo'lgan. Masalan, yevropalik sharqshunos olimlar Pave de Kurteyl, Herman Vamberi, Mauntstuyart Elfinston bu asarni Yuliy Sezarning ikki qismdan iborat "Xotiralar" kitobi bilan bir qatorga qo'yib yuqori baholagan. Yevropaliklarga Bobur haqida ilk bor ma'lumotlarni taqdim etgan fransiyalik olim Bartoleme Derbelo (1621-1695) o'zining "Sharq kutubxonasi" (1697) qomusidagi "Bobur yoki Bobar" maqolasida shoir hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san'atga qiziqishi borasida to'xtalib o'tgan.

Ko'rinaridiki, "Boburnoma" asarini tarixiy aspektda tadqiq etish masalasi uzoq davrlardan buyon olimlarni qiziqtirib keladi. Bu borada qator tadqiqotlar bajarilgan. Mamlakatimizda S.Azimjonova, T.Fayziev, S.Jalilov, H.Qudratillaev, O.Bo'riev, A.Madraimov, B.Yo'ldoshev, X.Fayziev, A.Zamonov kabi olimlar tomonidan muayyan izlanishlar olib borilgan. Turkiy xalqlar adabiyotida bu borada F.Ko'prulu, R.Arat, H.Boyir, A.Alparslan, R.Askar, F.Bayat, Yu.Bilol, F.Akun, A.Binnatova, H.Temur, M.Jonpo'lat kabi olimlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

O‘zbek adabiyotida S.Azimjonova birinchilardan bo‘lib bu mavzuni tadqiq etgan olima hisoblandi. Olima 1949-yilda “Ferganskiy udel Omar Sheyxa i Babura” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1969-yilda “Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii” nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ko‘rinadiki, S.Azimjonovaning asosiy ilmiy ishlari Zahiriddin Muhammad Boburning Kobul va Hindistondagi faoliyati, O‘rta Osiyo xalqlarining o‘rta asrlarda qo‘shni xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlariga bag‘ishlangan. Bunda asosiy manba esa albatta “Boburnoma”dir. Olimaning asarlari Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Fransiyada chop etilgan[26.55]. Bunga misol tariqasida Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarini olishimiz mumkin. Olima uni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1959 - va 1977-yillarda Toshkentda nashr ettirgan.

S.Azimjonovaning maxsus monografiyasi 9-bobida Bobur podishoh va Sulton Ibrohim Ludiy o‘rtasida kechgan Panipat jangi alohida tadqiq qilinadi[13]. Unda yozilishicha, Bobur to‘lg‘ama usuliga ko‘ra, Ibrohim Ludiy ustidan tarixiy g‘alabaga erishadi va “Odina kuni(27.04.1526 y) Mavlono Muhammad va Shayx Zayn va yana ba’zilar borib Dehlida juma namozida Bobur nomiga xutba o‘qitadilar. Ushbu g‘alabadan so‘ng Bobur podishoh tangalarida “As-sulton ul-a’зам va haqon ul-mukarram Zahiriddin Muhammad Bahodir podishoh”, deb zarb qilina boshlangan degan ma’lumotni aytadi.

Taniqli tarixchi olim S.Jalilov ham “Boburnoma” asarini tarixshunoslik sohasi nuqtai nazaridan tadqiq etib, Vatanimiz tarixini o‘rganishga ulkan hissasini qo‘shgan. O‘z ilmiy faoliyati mobaynida ko‘plab asarlar yaratgan, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning tavallud topgan yurti Andijon o‘tmishini yangi ma’lumotlar bilan boyitish yo‘lida hormay-tolmay mehnat qilgan, haqqoniy tarixni yoritishda fidoyilik namunasi bo‘lgan. Olim umri davomida yigirmadan ortiq monografik tadqiqot, 400 dan ziyod turli mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalar yaratgan va chop ettirgan. “Andijon” (1989), “Saltanatni titratgan kunlar” (1998), “Bobur va Andijon” (1993), “Boburning Farg‘ona davlati” (1995), “Bobur va Yuliy Sezar” (2001), “Sayohatnama” (2002), “Buxoriylar qissasi” (2006), “Buxoro taqdiri” (2011), “Shahzoda Bobur” (2013) va boshqa asarlari shular jumlasidandir. Olim bu asarlari orqali Bobur davrida Farg‘ona davlatining muxtasar bayoni va uning oqibatlari, shuningdek, Afg‘oniston va Hindiston voqeliklari haqida chuqur to‘xtalib o‘tgan.

“Boburnoma” asarining tarixiy ahamiyati haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan yana bir tarixshunos olim O.Bo‘rievdir. Olim “Boburnoma”dagi ma’lumotlar geografik tadqiqotlarda ikki yo‘nalishda – fan tarixi va tarixiy geografiya yo‘nalishlarida o‘rganilganligini yozadi[15.11]. Olim “Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyası” monografiyasi da Markaziy Osiyoning XIV-XVI asrlardagi tarixiy geografiyasini tadqiq etadi. Xususan, unda o‘lkaning ma’muriy-hududiy holati, tabiat, xo‘jaligi, xalqaro aloqalari, joy nomlari bilan bog‘liq masalalarga diqqat qaratadi. Olim boburshunoslik ilmida birinchi marotaba Bobur va boburiylar davlatining geografik xaritasini yaratadi va buning uchun mualliflik patentiga ega bo‘ladi. Olim bundan tashqari 1970-2024-yillar oraliq‘ida “Boburnoma”ning tarixni o‘rganishdagi beqiyos ahamiyati haqida yana qator asarlar yozishga erishgan[14.56].

“Boburnoma”ning tarixiy aspektida o‘rganish borasida so‘z borganda Z.Mashrabov va A.Madraimov hammullifligida nashr etilgan “Temuriy va boburiylar san’ati”(2022) va “Buyuk shoir va olimning ajoyib taqdiri, g‘aroyib sarguzashtlari va ibratli hayoti”(2024) nomli 2 jilddan iborat monografiyasining ham ahamiyati kattadir. Ushbu kitoblarda Bobur yashagan davr, uning shoh asaridagi tarixiy haqiqtlarga oid qator tadqiqotlar jamlab beriladi[22.384]. Jumladan, Boburning taxtga chiqishidan tortib uning Afg‘oniston va Hindistondagi hayoti, ayniqsa “Boburnoma” asarining yozilishi va undagi tarixiy voqeliklar chuqur tahlil etiladi. Bobur va “Boburnoma”ga

doir muhim ma'lumotlarni beradi. A.Madraimov yozishicha, "Boburnoma" asarining yozilishi, jahonshumul ahamiyatga molik yozma manba sifatida ijod etilganligini ko'rsatadi.

A.Madraimov 1979-yili Bobur merosining bir qirrasi hisoblangan "Vekayi" qo'lyozmasiga ishlangan rasmlar borasida nomzodlik tadqiqotini amalgal oshirgan. Shundan so'ng olim, 1974-yil Bobur tavalludining 490 yilligi munosabati bilan "Toshkent oqshomi" turkum maqolalar e'lon qilgan. Shundan so'ng A.Madraimov, aynan "Boburnoma"ning tarixiy ahamiyatiga doir 1971-2024-yillar oraliq "ida yuzdan ziyod maqola va risolalar, kitob va monografiyalar e'lon qilishga muyassar bo'lgan[21.196]. Asarning tarixiy ahamiyati haqida yana ko'plab olimlar ham muayyan izlanishlar olib borganligini ta'kidlash lozim.

"Boburnoma"ning tarixiy yo'nalishda o'r ganilishida shuningdek, Vilyam Rashbrukning "XVI asr buniyodkori" (X.So'fieva bilan hamkorlikda) asarining tarjimas ("Sharq", 2011), G'.Satimovning "Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri" (2008) monografiyasi, H.Boltaboyev tartib bergen salmoqli ilmiy to'plam – "Xorijda Boburshunoslik" (2008), S.Jalilovning "Bobur haqida o'ylar" (2006), "Bobur va Yuliy Sezar" (2001) kabi o'nlab asarlar muhim ahamiyatga egadir[24].

Tarixchi olim A.Zamonov tadqiqotlarida esa Bobur va Shayboniyxon munosabatlariga diqqat qaratildi. Olim sovet ittifoqi davrida xalqimizning bu ikki farzandiga bo'lgan turli salbiy qarashlar hukm so'rganligini yozadi[20].

Darhaqiqat, "Boburnoma" tarixiy asar. U – jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik. Unda Movaraunnahr, Afg'oniston va Hindistonda kechgan 36 yillik voqealar aks etgan. Uning tadqiqi borasida shu kunga qadar minglab tadqiqotlar bajarilgan. Venger sharqshunosi Herman Vamberi 1873-yil Sankt-Peterburgda nashr qilingan "Buxoro va Transaksoniya tarixi" asarida "Boburnoma"ni "Sharq Sezarining xotiralari", deya baholaydi[27].

Turk olimi H.Boyirning yozishicha, "Boburnoma"da bayon qilingan voqeal-hodisalar mufassalligi, ob'ektivligi, ifodasining aniqligi va izchilligi bilan boshqa tarixiy asarlardan tubdan farq qiladi. Xususan, tarixiy manba sifatida o'sha davrning muhim kitoblaridan Mirxondning yetti jildidan iborat "Ravzatus-safo", shuningdek, Xondamirning "Habibus-siyar" va M.Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlaridan butun mazmuni bilan yuqori turishini e'tirof etadi. H.Boyirning "Boburnoma" asarining o'n sakkiz yillik uzilib qolgan voqeliklarini boshqa tarixiy manbalar orqali tiklash borasidagi ilmiy yutuqlari ham e'tirofga loyiqidir.

Tarixchi olim S.Jalilov "Bobur haqida o'ylar"(2006) kitobida [19.56] "Sezar asarlari faqat Rim davlati tarixi uchungina qimmatlidir. "Boburnoma" esa, Farg'ona vodiysi, butun O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tarixi va geografiyasi uchun ham beba ho asardir. Agarda Sezar asarlari, xususan uning "Galliya urushi haqida xotiralari" kitobi faqat qonli janglar, sipohlar ha-yoti, urush anjomlari haqida ko'proq ma'lumot bersa, Bobur asari faqatgina jang haqida emas, unda juda ko'p tarixiy voqealar, odamlar, odatlar, tabiiy sharoit, mamlakatlarning o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar to'plangan. Bu jihatdan "Boburnoma"ni ensiklopedik asar deyish mumkin", deydi[19.57].

Tadqiqotlardan ko'rinadiki, dunyoning ko'plab tarixchi-olimlari nigohida Bobur sohibqiron Amir Temurdan keyin temuriy shahzodalar orasida eng ko'p dovruq qozongan buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, shu bilan birga, O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'r'in egallagan adib, shoir va olimdir.

Boburning, ayniqsa, 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultonı Ibrohim Lo'diyining yuz ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qilib, Dehlini egallashi, bunday qudratli dushmanha oz sonli qo'shin bilan qarshi borish aql bovar qilmas holat hisoblanishi ko'pgina tadqiqotlarda e'tirof etiladi. Tarixchi olim Jumaboy Rahimov dunyo olimlari bunday

nisbiy tafovutli jang manzarasini Chingizzon va Jaloliddin Manguberdi o‘rtasidagi Nilab jangidan beri jahon harbiy to‘qnashuvlarida hali qayd etmaganligini yozadi[23].

Ozarbayjonlik olim R.Askar “Boburnoma” tarjimasi so‘zboshida yozishicha, Bobur qo‘shinidagi zamonaviy qurol-yarog‘, ya’ni hali Hind qo‘shinlarida mavjud bo‘Imagan artilleriya va o‘t sochar miltiqdan foydalanishi harbiy sohada ustunlikni ta‘minlashga qaratilgan muhim tadbirlardan biri bo‘ladi. Bu jihatdan Bobur fan, ilm-ma’rifatning kuchidan foydalanish borasida növator, yangilikka intiluvchi shoh sirasidan ekanligidan dalolatdir. U Hindistonga yurishi oldidan qo‘shinini XVI asr boshlaridayoq Yevropa uslubidagi zamonaviy miltiqlar va artilleriya bilan qurollantirishga erishadi. Shu tarzda Bobur 1519-1526-yillarda Hindistonga besh marta yurish qilib, Panjob (1519-20), Qandahor (1522), Lahor (1523), Dehli va Agrani (1526) egallaganini qayd etadi[11.424].

J.Neru o‘zining “Jahon tarixiga nazar”(1976) nomli asarida Hindiston tarixining XVI asrda kechgan voqealarini sarhisob qilar ekan, bu davr buyuk boburiyilar imperiyasining dovrug‘i butun Ovrupoga tarqalgan qudrat va shon-shuhrat davri ekanligini alohida qayd etadi. Jumladan, u *Bobur o‘zigacha o‘tgan hokimlarning eng ma’rifatparvari va eng dilbaridir. Italiyada va umuman, Ovrupoda Uyg‘onish davrida adabiyotni va san’atni sevgan “avanturist podsholar” ko‘p o‘tgan, ammo Boburdek shaxs kam topiladi*, – deb yozadi[18.36].

Ta’kidlaganimizdek, bu asarning tarixiy qimmati haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Na-faqat turk adabiyotida balki g‘arb adabiyotida asarga tarixiy manba sifatida qarash ustuvorlik kasb etadi. Masalan, “Boburnoma”ni italyan tiliga o‘girgan (2023) tarjimon Federiko Pastore tarjima so‘ngida “Boburnoma” o‘z davrining kundalik hayotini qayta tiklashga imkon beradigan, islom tamadduniga xos avtobiografik asarning ilk rostgo‘y namunasi” ekaniga alohida urg‘u beradi[28].

O‘zbek adabiyotida “Boburnoma”ga tarixiy asar sifatida baho berilgan ishlardan S.Jalilov, B.Valixo‘jaev, R.Vohidov tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin. Akademik B.Valixo‘jaevning boburshunoslikka doir kuzatishlarining natijalari “O‘zbek adabiyoti tarixi”(1993) akademik nashri besh jildligning uchinchi kitobidan o‘rin olgan yirik tadqiqotida o‘z aksini topgan[16.191].

R.Vohidov “Biz bilgan va bilmagan Bobur” kitobida “Boburnoma” badiiy, tarixiy, yodnomma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfshunos, tabiiyot va jug‘rofiya sohasi, shuningdek, yana bir qator mutaxassislargacha qimmatli ma’lumotlar bera oluvchi beba ho ganjinadir” deb yozadi[17.19].

Keyingi yillarda ham bu borada juda ko‘plab muhim izlanishlar risola va maqlolar, katta-kichik asarlar yozildi. Adabiyotshunos olim Sh.Rizayev “Armonu afsunlar diyorining fuqarosiga ehtirom” nomli maqolasida(2023) “Dilbar shaxs”, go‘zal shoir, haqqoniy tarixnavis, mohir sarkarda va buyuk hukmdor Bobur haqida ko‘p va xo‘p yozilgan. Mana besh asrdan ortiq davr o‘tibdiki, bu ulug‘ zotni anglash, ijodini uqish va idrok etish borasidagi izlanishlar to‘xtamaydi. Zukko muxlis hamisha shunday savol qarshisida lol: “Kim o‘zi – Bobur?” hazrat Navoiyni anglash ne qadar mushkul va faraxbaxsh bo‘lsa, Bobur Mirzoni ham idrok etish, undan kam mashg‘ulot va mehnat-mashaqqat, halovat emasdir; deb yozadi[25]. Darhaqiqat bu ulug‘ siymo shaxsi va uning dunyo ilm fani va tarixda tutgan o‘rnib barcha zamonlar uchun qimmatli, ahamiyatli va ayni zamondagi to‘liq ochib ulgurilmagan.

Asarning ilmiy-tarixiy ahamiyati haqida U.Erskin, A.Beverij, Talbot, Pave de Kurteyl, L.King, R.Arat, H.Boyir, F. Ko‘prulu, J.Neru, E.Mano, F.Kardini, Yu.Bilol kabi jahonning o‘nlab yetuk olimu jamoat arboblari tomonidan ko‘plab e’tiroflar bildirilgan. Turkiyalik mashhur tarixchi olim H.Boyir “Boburnoma”ning R.Arat tomonidan tarjima qilingan turkcha nashri (1943) so‘zboshisida “bu tarixiy asar dunyo tarixi bilan chanbarchas bog‘liq bo‘lgan beqiyos ma’lumotlar xazinasidir”, deya ta’kidlagan[12]. Masalan, “Boburnoma” tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini

o‘rganishda, ularning madaniy hayotidagi o‘rnini belgilashda ham juda ahamiyatli asardir. M. Abdullayevanining ma’lumotiga ko‘ra, asarda hammasi bo‘lib 1540 nafar kishi nomlari tilga olingan bo‘lib, shundan 357 nafari Movarounnahrlik tarixiy shaxslarning ismlaridir. Qolgan qismi esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslar nomidir. Asarda Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn, Muammoniy, Shayxim Suhayliy, Yusuf Badavniy, Ahmad Xojibek, Behzod, Sulton Ali, Hoji Abdulla Marvoriy, Shoh Muzaffar, G‘ulom Shodiy, Husayn Udiy kabi bir qator shoirlar va san’atkorlar haqida ma’lumot beriladi. Muallif ularni maqtaydi, asarlaridan namunalar keltiradi, ba’zan hayoti, faoliyati yoki shaxsiy sifatlari haqida qiziqarli fikrlar so‘zlaydi. Bu kabi qimmatli ma’lumotlar va keltirilgan mulohazalarning hammasi tarix uchun albatta muhimdir.

Ozarbayjon milliy ilmlar akademiyasi prezidenti, akademik Iso Habibaylining “Zahirəddin Məhəmməd Babur, “Baburnamə” və Müasir Dövr” nomli maqolasida [3.7] Boburiylar sulolasi jahon tarixida o‘zga xos iz qoldirgani, dunyoda uzoq umr ko‘radigan madaniyatlarni yaratuvchi hokimiyatlar orasida so‘zlashganda Bobur nomi oldingi qatorlarda tilga olinishi va buning o‘ziga xos asosli sabablari borligi qayd etiladi. I.Habibayli shunday yozadi: “Boburnoma” betakror asar. Uning nomi buyuk o‘zbek xalqining, uning madaniyatining muhtasham “nomi”dir. “Boburnoma”-da o‘zbek xalqining taqdiri tasvirlangan. U o‘zbek xalqining qudratini aks ettiruvchi buyuk adabiy yodgorlikdir. Bobur lirikasi, “Devon”, “Boburnoma” Alisher Navoiyning “Devon”i va “Xamsa” kabi chag‘atoy turklarining qudrati va boyligi, o‘zining noyobligini to‘liq ma’nosini bilan, butun go‘zalligi bilan yashaydi, kunlarimizga yetkazadi va kelajak avlodlarga taqdim etadi. Boburning lirikasi umumturkiy she’riyatining yorqin sahifasidir. U XIII asrda Ozarbayjonda Izziddin Hasan o‘g‘li bilan boshlangan va XVI asrda Muhammad Fuzuliy darajasiga ko‘tarilgan”.

Turkiy adabiyotning barcha davr va yo‘nalishlarida ko‘plab tadqiqotlar olib bogan taniqli olim, manbashunos, Navoiy va Bobur ijodiga doir qator ilmiy maqola, kitob va monografiyalar muallifi, professor A.Binnatova “Boburnoma”da ozarbayjonlik san’at ustalari – Kamoliddin Behzod, xattot Og‘a Mirik haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgani, shuningdek, Bobur Nizomiy Ganjaviy va ozarbayjonlik taniqli astronom, matematik Nosiruddin Tusiy haqida ham eslaganini yozadi. Olima boshqa turkiy millat olimlari qatorida Bobur va Navoiy munosabatlariha ham diqqat qaratadi. Xussusan, “Boburnoma”ning Boku qo‘lyozmasining tavsifi va “Boburnoma”da Navoiy haqida”(2022) maqolasida bu borada bir qancha diqqatga molik fikrlarni ilgari suradi. Jumladan, Bobur A.Navoiy bilan uchrashmagan bo‘lsa-da, lekin yoshligidan uning shaxsiga va ijodiga katta mehr qo‘yanligi, asarlarini o‘qib ulg‘aygani, Bobur tug‘ilgan yili Navoiy buyuk “Xamsa”ni yozishga kirishganligi, Bobur o‘zining qomusiy asarida Alisher Navoiy nomini o‘n olti marta tilga olib o‘tganligini eslatib o‘tadi[8.21].

A.Azalp Navoiy va Bobur ijodiy faoliyatida badiiy ijoddagi hamohanglik bilan birga ilmiy ijodda ham mushtarak xususiyatlarni ko‘rish mumkinligini qayd etadi. Bu mushtaraklik ilmiy sohadagi serqirralikda, qomusiy ilmga ega ekanlikda ko‘rinishi, ular zamonasining buyuk shoirlari bo‘lish bilan birga adabiyotshunos olimlari ham bo‘lganligini qayd etib o‘tadi. Darhaqiqat, tarixni, jumladan Navoiy shaxsini o‘rganishda “Boburnoma” o‘ziga xos manba. Bobur A.Navoiyning musiqadan yaxshi xabardor ekanligini, o‘zi kuylar yaratganini ham qayd etad: “Yana musiqada yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur”, deb yozadi[1].

A.Azalp nazarida Bobur va Navoiy ijodida hamohang nuqtalar ko‘plab uchraydi. Bunday hamohanglik ularning ruboiylarida, g‘azallarida, tuyuqlarida, masnaviyalarida ko‘zga tashlanadi. Garchand ular bir zamonda yashashsa-da, jangu jadallarga boy zamon ularning uchrashuviga imkon bermadi. Boburning Navoiyga maktub yo‘llashi, Navoiyning javob xati bilan ular o‘rtasidagi hayot iplari uzildi. Bobur Hirotgaga kelganda Navoiy vafot etgan edi. Bobur yigirma kun Navoiy

uyida yashaydi. Shu yerda Navoiy asarlari bilan to‘liq tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. A.Binnatova va A.Azalp tadqiqotlaridan xulosa shuki, Boburning hazrat Navoiy to‘g‘risida keltirib o‘tgan ta’riflari va xotiralari Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishda asrlar mobaynida o‘z qimmatini yo‘qotmay kelmoqda.

Qирғиз адабиёттада ham “Boburnoma”га тарихий манба сифатидагараш бoshqa xalqlar singari ustuvorlik kasb etadi. Ayniqsa, Qирғиз маданийати, тарихи, etno va toponimikasi тарихи tadqiqida asarga ko‘p bora murojat qilinadi. Qирғизистонлик олим Usmonakun Ibraimov “Boburnoma”да qирғиз xalqi va qирғиз yerlari nomli maqola(2016)sida shunday yozadi: Mo‘g‘ullar sultanating asoschisi (boburiylar sultanati asoschisi, (*bunday noto‘g‘ri ta’rif turkiy tadqiqot manbalari*da ko‘p ko‘zga tashlanadi. Sh.H.) Zahiriddin Muhammad Bobur, ma’lumki, dastlab Farg‘она hukmdori bo‘lgan va hozirgi Qирғизистон O‘zbekistonga tutash hududda o‘sgan. U bu yerlarga mehr qo‘ygan, Oloy tog‘larida ov qilgan, Oqburaning suvidan ichgan, uni “Boburnoma”да Andijon daryosi deb atagan”... O.Ibragimov o‘z tadqiqotida Boburning yoshligi Farg‘она, Andijon va O‘sh, Oloy, O‘zgan, Oqsi tog‘lari bag‘rida kechgani, aynan shu maskanlar yosh Boburning ongida o‘chmas xotira qoldirib, uning insoniy kamolotiga katta ta’sir ko‘rsatganini yozadi.

O.Ibragimov Boburning eng yaqin safdoshlari orasida etnik qирғизлар ham bo‘lgani va ular zo‘r chavandozlar bo‘lishganini yozadi. Bundan tashqari “Boburnoma” asarida qирғиз hududlari haqida ham bayon qilinganini, asarda Madi qal’asini qanday egallab olgani, Oloy vodiysiga qanday sayohat qilgani, O‘zgan uchun qanday jang qilgani va hokazolar haqida katta g‘urur bilan yoziladi.

Boburga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, u tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish, jangujadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, tabiatni, etnografik holatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarni gavdalantiradi. Shu sababdan ham asar faqat ilmiy-tarixiy ahamiyati bilan emas, balki o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunalardan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidir.

Turk olimi H.Boyir boburiylar sulolasini Usmoniy davlati kabi kuchli bir davlat ekanligi, eng quvonarlisi, Hindistonda Bobur asos solgan turk davlatining yuksak madaniyati zamonamizga qadar yetib kelganligining o‘zi turkiy dunyo tarixida eng katta jarayon ekanligini e’tirof etadi. U shuningdek, “Boburnoma”da bayon qilingan voqealari mufassalligi, ob’ektivligi, ifodasining aniqligi va izchilligi bilan boshqa tarixiy asarlardan farq qilishini, xususan, tarixiy манба сифатida o‘scha davning muhim tarix kitoblari Mirxonning yetti jildlik “Ravzatus-safо” asari, Bobur zamonadoshlari Xondamirning “Habibus-siyar” va Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” nomli asarlaridan butun mazmuni bilan yuqori turishini ta’kidlaydi[30.25].

Turkiyada boburshunoslik ilmiga asos solgan olimlar F.Ko‘prulu, R.R.Arath hamda H.Boyirning “Boburnoma” yuzasidan olib borgan tadqiqot ishlari bugunga qadar turk adabiyotida qator ilmiy tadqiqot ishlaringin bajarilishiga манба vazifasini bajarib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlarga tayanilgan xolda yuzlab ilmiy maqolalar, yirik monografik asarlar yozildi. Yu.Bilolning “Bobur devoni” tarjimasida yozgan tarixiy ma’lumotlari va qator maqolalarida tilga olingan qaydlar, turkiyalik olma T.Seyhanning “Mubayyin” tarjimasida va boshqa maqolalarida keltirilgan dallilar, A.Bilkanning “Risolayi validiyya” asari tarjimasida yozgan ma’lumotlari va shuningdek, M.Tekjon, N.Jeylan, S.Deniz, M.Acha kabi turkiyalik olimlarning “Boburnoma” borasida yozgan qator maqolalari uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Asarni tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish masalasi turkiy xalqlar tarixi va adabiyotida shu qadar kengki, xatto milliy ensiklopediyalarda ham shu omil asosiy jihat sanaladi. Masalan, Ozarbayjon milliy ensiklopediyasida “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli maqolada Bobur barpo etgan ulkan sultanat, uning hayoti va ijodi, ayniqsa, dunyo davlatchilik tarixida tutgan o‘rni hamda

“Boburnoma”ning tarixiy ahamiyati haqida asosiy ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari Ozarbayjon va Turkiyada nashr etilgan ko‘pgina ensiklopediyalarda ham asosiy ma’lumotlar Boburning davlat arbobi sifatidagi o‘rni va “Boburnoma”ning tarixiy manba ekanligidan kelib chiqib yoritiladi. Undan tashqari, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston o‘quv adabiyotlari, maktab va oliy ta’lim darsliklarda ham shu mavzu, ya’ni Bobur buyuk imperiya asoschisi ekanligi, uning harbiy yurishlari, janglari, “Boburnoma” asari va uning tarixiy ahamiyati kabi masalalarga ko‘proq urg‘u qaratilganligi ko‘rinadi.

Turkiyalik professorlar Abdurahmon Guzel hamda Ali Fuad Bilkanning “Alisher Navoiyning Shimoliy Hindistonga ta’siri” nomli maqolasida (2023) Shimoliy Hindistonda XIII asrdan beri hukmronlik qilgan Qutbidlar (1206-1266), Balabanlar (1266-1290), Kaloch sultonligi (1290-1320), Tug‘luqiyilar (1320-1414), Sayyidiylar (1414-1451) va Ludiylar (1451-1526) kabi sultonliklardan keyin Boburning 1526-yilda Ibrohim Ludiyni mag‘lub etishi va Shimoliy Hindistонни bosib olishi boshqa yurishlardan tomomila farq qilgani aytildi.

Tadqiqotlarda Bobur o‘zi hukmronlik qilgan davrda bu geografiyada fors va hind tillari qatori turk tiliga bergen ahamiyati, ayniqsa, saroyda turk tilining so‘zlashuviga, turk tilining she’r tili sifatida rivojlanishiga imkon yaratgani qayd etiladi. Bu jihatdan temuriylar adabiy an’anası davom etayotgan Shimoliy Hindistonda chag‘atoy turkchasi “yangi maydon”ga ega bo‘libgina qolmay, balki madaniy hukmronlik ramzi sifatida mintaqada davom etganligi kuzatiladi.

A.Guzel hamda A.F.Bilkan ma’lumotlariga ko‘ra, Bobur turkiy tilni qadrlagan va uning jozi-basini asarlari orqali yuksak ifoda etgan. Uning tilga bunday munosabati o‘g‘li Komron Mirzo va amirlaridan bo‘lgan Xoja Kalon, Mirzo Ibrohim Chaniy kabi zodagonlarga ham o‘tgan. Ular ham chag‘atoy turkchasida she’rlar yozgan, devonlar tuzishgan. Bu davrda Badaxshon hukmdori Abu Saidning nabiralaridan Shoh Mirzo va uning o‘g‘li Ibrohim Mirzo, Sind hukmdori Sulton Husayn Arg‘un, Bayram Xon, Abdurrahim Xon, Kelbi Ali begim, Baharlu Hamadanli Siyoniy, Darvesh kabilari bo‘lgan. Ular ham turkiychari o‘rganib ijod qilishgan. Yana bir jihat. G‘aznaviyalar va Dehli turk sultonliklari davrida rasmiy til sifatida qo‘llanilgan fors tili madaniyat va san’at sohasida ham birinchi o‘ringa chiqqan. Fors adabiyotining “oltin davri” hisoblangan bu davrda G‘aznaviy hukmdorlari va saroy doiralari homiyligi bilan fors tili keng hududga tarqalgan. G‘aznadan Lahorgachava Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan keng hududda nufuzga ega bo‘lgan fors tili XIII asrdan boshlab Dehli turk sultonligi homiyligida rivojlangan. Bobur Shimoliy Hindistонни bosib olgandan so‘ng temuriylar badiiy an’anasining bu hududga o‘tishi, fors tilining hukmronligiga qaramay, chig‘atoy turklari uchun yangi maydon ochgan. Turk olimi F.Ko‘prulu bu jarayonni klassik davrning davomi sifatida shunday baholaydi: “*XV asrning ikkinchi yarmida Alisher Navoiy bilan boshlangan davr hozir klassik Chig‘atoy davridir. XVI asrda Bobur va uning avlodlari davrida hind saroylarida oliy zodagonlar adabiyoti sifatida davom etgan va Shayboniyalar davrida Turkistonda o‘z evolyusiyasini ko‘rsatgan. Hofiz Xorazmiy devoni, Huvaydo devoni, Seminiy devoni, Ubaydiy devoni kabi chig‘atoy shoirlarining asarlarining hind kutubxonalarida turkiy devonlar qatoridan joy olgani ham Bobur va boburiylar davrida Hindistonda she’riyat an’anası mohiyatini aks ettiradi*” [30.57].

Darhaqiqat, Bobur saroyidagi shahzodalarga turk tili o‘rgatilgan bo‘lib, Boburdan keyin Humoyun, Akbarshoh, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeb va Bahodir Shoh II turkiy tilda gapirgan. Bobur Shimoliy Hindistonda o‘zi asos solgan davlatning temuriylar o‘zligini himoya qilish maqsadida bu hududga chig‘atoy turkchagini hukmronlik timsoli sifatida olib kelgan, u shuningdek, hind tillari va fors tillarining hukmron bo‘lishiga qaramay, o‘z hukmronligi davomida bu siyosatni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

“Boburnoma”ni tarixiy manba nuqtai nazaridan tadqiqiga bag‘ishlangan boshqa turkiy xalqlarda ham qator tadqiqotlar olib borilganligini qayd etish lozim. Ular orasida ozarbayjonlik

olimlar R.Askar, A.U.Binnatova, E.Ibrahimov, turkmanistonlik olim R.Kurienov, qozog‘istonlik olim I.Jemeniy, qirg‘izistonlik olimlar B.Ahmedov va X.Bekmirzaeva kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga molikdir[7.257].

Nizomiy G‘anjaviy nomidagi Adabiyot institutining Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston adabiy aloqalar bo‘limi mudiri filologiya fanlari doktori, professor A.U.Binnatovaning “Ikki qudratli shoh – ikki shuhratli shoir” nomli maqolasida, ma’naviy qudrati, she’rlarining ruhiyatiga ko‘ra bir-birini to‘ldiradigan ikki hukmdor – Shoh Ismoil Xatoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning nomi jahon tarixi va adabiyoti kitoblarida katta harflar bilan bitilganligi, ular XV-XVI asrlarda ikki turk davlati bo‘lgan safaviylar va boburiylar saltanatining bu ikki sarkarda va shoirlari bir birlari bilan qalin do‘st bo‘lganligi qayd etiladi [8.22].

Darhaqiqat, tarixiy manbalarga ko‘ra, bu ikki buyuk shaxsning bir vaqtning o‘zida yaqin do‘st va safdosh bo‘lgani va bir-birlariga yaqindan yordam bergani aytildi. A.U.Binnatovaning maqolasida keltirilishicha, Boburdek ma’naviy daho va adabiy iste’dod sohibi kamdan-kam topiladi. Olima o‘z maqolasida Bobur nima uchun Hindistonga keldi, degan savolga javob izlaydi. Uning nazarida Boburning Hindistondagi hukmronligi bor-yo‘g‘i to‘rt yil davom etgan bo‘lsa-da, biroq u boshlagan imperiya 1857-yilgacha – 300 yildan ortiq davom etdi. Bobur Hindistonga o‘zbek va ozarbayjon madaniyatining birligini olib keldi, bu o‘sha davr va keyingi asrlarning bir qator ajoyib binolarida o‘z aksini topdi. Jumladan, ular Chorbog‘ tarzida suv inshooti va zinapoyalarga ega bo‘lgan bog‘larni olib kelishdi, bu Bobur vafotidan qariyb 120 yil o‘tib, 1650-yilda qurib bitkazilgan Toj Mahalda yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Bobur tabiatni juda sevuvchi bo‘lib, Hindiston tabiatining xilma-xilligidan hayratga tushgan. U tovus kabi qushlar va Hindistonning daraxtlari va mevalari, apelsin navlari haqida yozgan. Bobur hind harbiy texnikasiga to‘p va mushketlarni kiritdi va uning artilleriyasi kuchli Ludiy va Rajput qo‘sishlarini mag‘lub etishga yordam berdi. Boburdan keyin uning o‘g‘illari va nabiralari turk-hind davlatini yanada kengaytirdilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning Shoh Ismoil Xatoiy bilan yaqin do‘stligiga kelsak, yuqorida tilga olingan jangovar to‘plar aynan safaviylar hukmdoriga tegishlidir. Hindistonga yurish qilayotgan yosh jangchiga harbiy yordam edi. Shoh Xatoiy Boburning savafiyalar saroyida bir muddat mehmon bo‘lib qolganidan so‘ng, jangchilar va harbiy o‘q-dorilar ko‘magida Hindistonga qaytib keta boshlaydi. Ikki podshohning do‘stona munosabatlari keyinchalik ularning farzandlari tomonidan davom ettirilgan. Chunonchi, Boburning to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyunshoh otasi kabi Shoh Xatoiyning to‘ng‘ich o‘g‘li Shoh Tahmosibning saroyida bir muddat turadi. Ozarbayjon mug‘omlariga cheksiz havas qilishi natijasida saroyda uning sharafiga “Humoyun dastgoh” yaratilgan va bugungi kunda bu mug‘om Ozarbayjonda juda tez-tez chalinadi. Shunday qilib, ma’lum vaqt o‘tgach, Shoh Tahmosibning harbiy yordami bilan Humoyun Hindistonga boradi va otasi o‘rnagan taxtni egallaydi. Har ikki xalq sarkardalari va shoirlari farzandlari – Shoh Ismoil Xatoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning milliy orzu va maqsadlari yo‘lida kurashgan istiqlol orzusi salkam besh asrdan so‘ng – XX asrning so‘nggi o‘n yilligida yana ro‘yobga chiqdi.

Buyuk siyosat arbobi Javoharla’l Neru mashhur shoir va hukmdor Bobur faoliyatini yuskak baholab, shunday yozadi: “*Boburning Hindistonga kelishi bilan katta yutuqlarga erishildi, yangi turtkilar jon berdi, san’at va me’morchilik, madaniyatning boshqa sohalari bir-biri bilan to‘qnashdi. Bobur maftunkor shaxs, Uyg‘onish davri, tipik hukmdor, mard, topqir, san’atni, adabiyotni yaxshi ko‘rgan, hayotdan zavqlanishni yaxshi ko‘rgan*”. Bu fikrlarni Markaziy Osiyo va Hindistonda bir vaqtida “Tarixi-Rashidiy”, “Humoyunnoma”, “Tarixi-Humoyunshoh”, “Akbarnama”, “Tabaqati-Akbari”, “Tarixi-Ferishta” kabi tarixiy manbalarda yozilgan fikrlar ham isbotlaydi.

Ozarbayjonlik olim R.Askar yozishicha [6.220] Bobur va Shayboniyxon munosabablari haqidagi so‘z yuritib, Boburning otasi Farg‘ona va uning atrofidagi viloyatlar qozisi Umar Shayx Mirzo

nasabnomaga ko‘ra buyuk Amir Temur avlodidan, onasi Qutlug‘ Nigorxonim esa o‘n to‘rtinchı (o‘n ikkinchi) avloddan Chingizxon avlodidan bo‘lganligini aytildi. Uning davlat boshqaruvini o‘rganishi uchun otasi Boburni hali o‘n yoshidayoq Andijonga hokim qilib tayinlaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, Umar Shayx Mirzo baxtsiz hodisa natijasida vafot etadi va Bobur 1494-yilda 12 yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tiradi. Bu orada Samarqand qozisi bo‘lgan amakisi Sulton Ahmad va Toshkent qozisi bo‘lgan amakisi Muhammad Farg‘onaga qo‘sish tortadi. Bobur otasining sarkardalari yordamida bu hujumlarni daf etib, taxtini himoya qila oladi. Oradan bir necha yil o‘tib, Shayboniyxon O‘rta Osiyoda siyosiy sahnaga chiqadi va Temurning vorislari, jumladan Bobur bilan hokimiyat uchun kurasha boshlaydi.

Bobur 1497, 1501 va 1503-yillarda u bilan jang qilgan, lekin har safar mag‘lubiyatga uchragan. Shayboniyxon Samarqanddan keyin temuriylarning muhim shaharlari hisoblangan Buxoro va Hirotni ham egallaydi. Bobur Pomir tog‘lari tomon chekinishga majbur bo‘lib, Hindikush tog‘larini kesib o‘tib, Kobulga kiradi va u yerda o‘zini podshoh deb e’lon qiladi.

R.Askar o‘z maqolasida Shayboniyxon 1510-yilda Marv jangida Shoh Ismoil tomonidan mag‘lubiyatga uchragan va o‘ldirilgan. Bobur safaviylarning harbiy yordami bilan 1512-13-yillarda Buxoro va Samarqandni yana o‘z yerlariga qo‘sib oladi. Biroq 1514-yilda safaviylar va usmoniyalar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Choldiron dala urushida Shoh Ismoil Sulton Salimga yengilganidan keyin safaviylardan hech qanday yordam ololmagan Bobur shayboniylarning shafqatsiz hujumlari oldidan chekinishga majbur bo‘ladi. Bobur bir qarashda ayanchli ahvolga tushib qolgan bo‘lsa-da, bu yangi va qudratli saltanatning vujudga kelishining boshlanishi edi, deb yozadi [11.7].

Shunday qilib, Bobur 1518-yilda janubiy Afg‘onistonga yurish qilib, Sind viloyatini egallaydi. Bir necha yillik urushlardan so‘ng Peshovar, Panjob va Qandahorni bosib oladi. 1526-yil 21-aprelda Panipat jangida Dehli sultoni Ibrohim Ludini mag‘lub etib o‘ldiradi, Dehli va Agrani egallaydi va o‘zini Hindiston hukmdori deb e’lon qiladi. Bobur 1527-yil 15-fevralda Ra’no Sanga boshchiligidagi hind qo‘sini bilan jang qilib, uni mag‘lub etib, g‘oziy unvonini oladi.

R.Askarning yozishicha, G‘arb davlatlarida Boburning ulug‘vor davlatini ataylab Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi deb atashadi. Ammo Bobur butun qoni, joni, tili va fe‘l-atvori bilan turk bo‘lib, u bilan doimo faxrlangan. Inglizlar 1858-yilda Bobur imperiyasiga chek qo‘ydilar, Hindistonni rasman Britaniya mustamlakasi, 1877-yilda esa Viktoriya Hindiston malikasi deb e’lon qilindi. Bobur merosiga da‘vogar davlatlar qatorida Hindiston, Pokiston, Eron, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qирг‘изистон bor. Demak Bobur bu jihatdan ham dunyoviy shuhrat topgandir.

“Boburnoma” va “Bobur devoni”ni ozarbayjon tiliga o‘girgan tarjimon R.Askar “Türk dünyasının nadir şəxsiyyəti” nomli yana bir maqolasida Bobur turk tarixining eng ko‘zga ko‘ringan va ulug‘vor siymlaridan biri, hayoti ulug‘vor g‘alabalarga to‘la ekanligi alohida ta‘kidlaydi. Uning harbiy yurishlari paytida, ya’ni taxtga o‘tirganida olgan unvoni quyidagicha deydi: *as-sulton ul-azam val-l-xoqon ul-mukarram (ya’ni buyuk sulton va buyuk xoqon)* Zohiriddin Muhammad Jalol ad-Din Bobur Padishahi-Goziy. U G‘izi Burhoniddin, Shoh Ismoil Xatoiyiy, Jahonshoh Haqiqiy, Shayboniyxon, Husayn Boyg‘aro, Sulton Salim, Sulton Sulaymon kabilar qatori hukmdor, ham shoir, bundan tashqari, u zo‘r iste’dodli nosirdir. Shuningdek, mohir yozuvchi va qomusiy bilimlarga ega bo‘lgan yetuk tarjimon, turli sohalarga oid chuqr risolalar muallifidir, deb yozadi[29].

Ozarbayjonlik olim Iso Habibayli “Zahirəddin Məhəmməd Babur, “Baburnamə” Və Müasir Dövr) nomli maqolasida safaviylar va boburiylar, ozarbayjonlar va o‘zbeklarning milliy-tarixiy ildizlari nafaqat adabiyot va madaniyatda, balki siyosat va davlat boshqaruvida ham mushtarak ekanligi qayd etiladi. “Bugun O‘zbekiston, Hindiston, Pokiston va Eronda Bobur asarlari hamon tirikdir. Bobur va boburiylar tomonidan yaratilgan arxitektura va san’at asarlari O‘zbekistonning

qadimgi ildizlarga ega bo‘lgan buyuk yurt ekanligini ko‘rsatadi” deb yozadi[3.7]. Turk olimi Mehmed Achaning “Bobur orqali qahramona o‘qish” nomli maqolasida [10.65] Boburning tug‘ilishi, bosib o‘tgan yo‘li, harbiy yurishlari haqida so‘z boradi. Olim Bobur taxtga o‘tirgan davr uning vatanida yuksalishi uchun zarur shart-sharoit yetishmagan davr edi, deydi. Boisi, Bobur taxtga o‘tirgan davrda ulug‘ hukmdor va pahlavon Temur bundan yuz yil o‘tmay tark etgan davlatda to‘la parokandalik hukm surayotgan edi. U boshqargan davlat ko‘plab mirzolar to‘qnashuvli tufayli har lahma parchalanib, cho‘kib, vayron bo‘lib borardi. O‘sha davr ham ba’zi qudratlari qo‘shnilarining Temuriylar davlati yoki davlatlariga hujum qilgan davr edi. Ana shunday sharoitda hokimiyat tepasiga kelib, o‘z qudratini amaki va amakisidan himoya qilishga majbur bo‘lgan Bobur o‘zining bolaligi va yoshligining bir davrini ajdodlari Temur davlatini qayta tiklashga harakat qilib o‘tkazdi. Biroq Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Husayn Baykora va ayniqsa, Shayboniyxon kabi nomlar oldida tajribasi kamlik qildi. Bobur Mavarunnahrni tark etib, o‘z boyligini Turkiston yerlaridan tashqarida izlash vaqt keladi. Hindukush tog‘larini kesib o‘tib, o‘ziga qo‘shilganlar bilan tuzgan katta qo‘shin bilan Kobul tomon yo‘l olgan Bobur 1506-yilda Kobul shohi bo‘ldi. Afg‘onistonidan keyin Balujiston va Shimoliy Hindistonni qo‘lga kiritgan Bobur shu tariqa buyuk imperiyani barpo etdi va bu imperiya XIX asrgacha, ya’ni inglizlar hind yerlarini bosib olguncha mavjud bo‘ldi.

“Boburnoma” tarjimoni, Qozoq Milliy universitetining “Turon-Eron” ilmiy tadqiqot markazi direktori, filologiya fanlari doktori, professor, I.Jemeneyning “Boburnoma”da Qozoq va turkiy el haqidagi qarashlar” nomli maqolasida[5.83] “Boburnoma”da zikr etilgan qozoq hamda qozoqlarga oid atamalar, ular qaysi ma’noda, qay maqsadda qo‘llanganini aniq misollar asosida tahvil etiladi. Bundan tashqari, “turkiy el” ma’nosini anglatgan “alash” atamasi, uning etimologiyasi, asarning qaysi o‘rinlarida tilga olingani haqida fikr bildiriladi. “Boburnoma”ning nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun turkiy millat uchun ilmiy-ma’rifiy, tarixiy-adabiy qimmati baland ekani haqidagi xulosaga kelinadi. Olim asarning tili oson va tushunarli, ammo mazmuni muhim tarixiy voqealar, falsafiy-didaktik tafakkur, badiiy obrazni ifodalovchi so‘zlarga juda boy ekanligini qayd etadi.

I.Jemeneyga ko‘ra, Bobur qozoq xalqini, qozoq atamasini, shuningdek, qozoqlarning siyosiy-madaniy makonini mukammal tarzda tasvirlab bergan. “Boburnoma”da qozoqlar orasida qo‘llanadigan “Alash” so‘zini ham muhokama qilgani shu tariqa ham Bobur qozoq tarixi va madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shganini qayd etadi. Masalan, asarda “Alashy” (aljy-älajh) nomining sababini yozganini ta’kidlash lozim, deydi. U janob Sulton Abusaid oilasi haqida shunday yozgan: “Sulton Mahmudxonning kenja o‘g‘li Sulton Ahmadxonni Alashixon tanigan edi”. Alashi ismini qo‘yish sababi haqida: *Qotil qalmoq va mo‘g‘ul tillarida Alashi deb ataladi. Qalmoqqa necha marta hujum qilib, qirg‘in qilingani uchun Alashini chaqirdi. Shu sababdan Alash nomini taxmin qilgan Bobur “Alash” so‘zining kelib chiqishini birinchi bo‘lib o‘rgangan olimdir*, deb yozadi. U 1917-yilda qozoq xalqining milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etgan partiyaning nomi “Alash” edi, deydi. Darhaqiqat, “Boburnoma” turkiy xalqlar tarixi, tili va madaniyati tarixi va uning tub mohiyatini ko‘rsata oladigan bitmas-tuganmas xazinadir.

“Boburnoma”ning tarixni o‘rganishdagi o‘rnii borasida so‘z borganda O‘sh davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori B.Obidovning “Boburnoma” Sharq tarixi bo‘yicha mo‘tabar manba: afzalliklar va muammolar” nomli (2023) maqolasini ham e’tirof etish lozim[5.103]. Ushbu maqolada ham zarur ma’lumotlar qayd etilgan. Olim shunday yozadi: “Boburnoma” biz uchun juda muhim, keng qamrovli hududlardagi xalqlar va davlatlar, bir qator mintaqalar tarixi, ethnografiyasi, madaniyati, geografiyasi, sharqshunosligi, toponimiysi, huquqshunosligiga oid manba sifatida baholanadi. “Bobur eslatmalari” davlat boshqaruvidagi kishilar – hukmdorlar, sarkardalar xatti-harakatlari haqida ko‘p jihatdan va batatsil ma’lumot beradi, shoirlar, san’at,

musiqa arboblari, shuningdek, muvaffaqiyatlari yangi marralarni ochgan olimlar haqida ham mahorat bilan so‘zlaydi”.

Olimning qayd etishicha, “Boburnoma” Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixi bo‘yicha juda qimmatli manba bo‘lish barobarida Qirg‘iziston tarixi Bobur va boburiylar davri tarixi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, qirg‘izlar yashagan O‘sh, O‘zgan, Axsikent, Xo‘jand, Mada shaharlari, Farg‘ona vodiysining tog‘li hududlari va unga tutash viloyatlar tarixi, bularning barchasi boburshunoslarga nafaqat yangi asarlar yaratish, balki Bobur merosini kitobxonlar, ayniqsa, yosh avlod ongiga yetkazish imkonini beradi. Lekin negadir “Boburnoma” yetarlicha bilimli, keng aql-zakovatga, davlatchilikka ega memuar asar muallifi o‘z qaydlarida qo‘l ostidagi O‘sh, O‘zgan, Madiy, Xo‘jand yaqinida yashagan qirg‘izlar, yirik qabilalar, urug‘lar haqida qayd etmagan. Bobur qirg‘izlar haqida bilmagan bo‘lishi mumkin emas.

B.Obidov Qirg‘izistonda boburshunoslik sohasida biroz muammolar borligi xususida ham so‘z yuritadi. Negadir bir qancha manbashunoslik to‘plamlari yaratilayotganda, fundamental ko‘p jildli Qirg‘iziston tarixi yozilayotganda Boburning asosiy asari manbalar ro‘yxatiga kiritilmagan, muhtasham fundamental manbashunoslik to‘plamlarining birortasida qayd etilmagan.

“Bobur eslatmalari” nafaqat Qirg‘izistonning, balki hozirgi Markaziy Osiyoning barcha mammakatlari tarixiga oid deyarli barcha manbashunoslik to‘plamlariga kiritilishi kerak. Yagona tasall shuki, “Boburnoma” qirg‘izistonlik mashhur olim Z.L.Amitin-Shapiro tomonidan “Qirg‘iziston tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasiga oid adabiyotlarning izohli ko‘rsatkichi” ro‘yxatiga kiritilgan. U yerda 246, 293, 437, 438, 1818 raqamlari, shuningdek, 1214-sonlar ostida Bobur va uning asarları, jumladan “Boburnoma” tarjimalari hamda asarning qozon nashri haqida qaydlar berib o‘tilgan.

Qozog‘istonlik olimlar Batirxon Bolatbek, Shadenuli Sarkitkan Kasterning “Turk dunyosining buyuk merosi – “Boburnoma” va qozoq ma’naviyati” nomli maqolasida [2.133] Zahiriddin Muhammad Boburning davlat arbobi va sarkarda sifatidagi faoliyati, turkiy davlatlar tarixidagi o‘rni atroficha tahlil etiladi. “Babirnom”da qozoq xalqi haqida juda ko‘p ma’lumotlar mavjudligi qayd etiladi. Jumladan, asarda Olmaota, O‘tror, Turkiston, Sayram kabi shahrlar, Arys, Sirdaryo kabi daryolar tilga olinadi. U katta-kichik shahrlar (Oqsikent, Kobul, Shosh, Buxoro va boshqalar), Sirdaryo va Jetisu daryolari bo‘yidagi aholi punktlarining qurilishi, me’morchiligi, vayronagar-chiliklari haqida yozadi. O‘rta asrlardagi Olmaliq (Jarkent etaklarida), Olmaota (Olmaota), Yangi (Tarazkent) shaharlariiga e’tibor qaratib, ular mo‘g‘ullar va Shayboniylar sulolasi hukmdorlari tomonidan vayron qilinganligini aytadi.

“Bobirnom”da qozoq xalqi tarkibiga kirgan dulat, jaloyir, arg‘in, qipchoq qabilalaridan bo‘lgan olimlar va notiqlar, botir va biylar, qahramon va jangchilarni uchratish mumkin. Massalan, qozoq xalqi tarixidan quyidagi misollarni keltirish mumkin: “Sulton Adiqdan keyin qozoq zodagonlaridan Qosimxon Sulton Nigorning xotinini o‘ziga xotin qilib oladi. Xalqning fikricha, qozoqxon va sultonlarining hech biri bu xalqni shu Qosimdek bosib ololmagani.

Boburning bu ma’lumotlardan qozoq xalqi XV asrgacha ham tarixda qozoq (qozoq) nomi bilan ma’lum bo‘lganligini tushunamiz. deb yoziladi[2.133]. Bundan tashqari, Bobur Hindistonni boshqarar ekan, O‘rta Osiyo, jumladan, Qozoq xonligi, Afg‘oniston, Eron va Moskva bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga doimo intilgan, deydi. Olim shuningdek, “Boburnoma”da hozirgi kungacha topilgan ko‘plab maqol va frazeologik iboralar qozoq tilining til fondida o‘z o‘rniga ega ekanligini alohida qayd etib utadi.

“Boburnoma” ustida olib borilgan kuzatishlar, unda juda ko‘p aniqlik kiritish, tuzatish va tartibga solinishi kerak bo‘lgan o‘rinlar, jihatlar borligini ko‘rsatmoqda. Ular:

1. “Boburnoma”ning amalga oshirilgan dastlabki ikki nashri – Qozon va London bosmalarida mavjud bo‘lgan nuqsonlarning keyingi barcha nashrlarda takrorlanishi bilan bog‘liq xatolar.

2. Asar matnining to‘g‘ri idrok etilmagani bois, ularning abjad bo‘yicha hisobi butunlay noto‘g‘ri va nomuvofiq yechimga olib kelgan.

3. Lisoniy (imloviy) hamda milliy xususiyatlarni e’tiborga olmaslik bilan bog‘liq xatolar.

4. Ayrim ta’rixlarning, umuman, izohlanmaganligi yoki milodiy sanasi ko‘rsatilmaganligi.


5. Ayrim voqeliklarning joriy yozuvdagi ifodasi bilan bog‘liq nomuvofiqliklar.

Xulosa o‘rnida aytganda, “Boburnoma” butun dunyoda bo‘lgani kabi turkiy xalqlar orasida ham avvalo tarixiy asar sifatida sevib o‘qiladi. Zero, bugunga qadar o‘zbek, qoraqalpoq, turk, qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon, uyg‘ur va turkmanistonlik olimlar tomonidan olib borilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat beradi. Biz yuqorida tilga olib o‘tgan tadqiqotlar esa ushbu yurt olimlari ilmiy izlarishlarining ayrimlarigina xolos. Vaholanki, ularning soni va hajmi ko‘pdır. Har bir tadqiqotni o‘rganish esa kelgusida boburshunoslik sohasi taraqqiyotida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akif Azalp (Bagirov). “Baburnamə”da Əlişir Nəvai Şəxsiyyəti və obrazina dair. –Toshkent, 2023.
2. Bolatbek B., Shadenuli S. Turk dunyosining buyuk merosi – “Boburnoma” va qozoq ma’naviyati // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari. – Toshkent, 2023.
3. Isa Həbibbəyli. Zahirəddin Məhəmməd Babur, “Baburnamə” və müasir dövr, Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan, – Baki, 2022.
4. Jemeney I. Boburnoma”da Qozoq va turkiy el haqidagi qarashlar. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari–Toshkent, 2023.
5. Obidov B. Boburnoma” Sharq tarixi bo‘yicha mo‘tabar manba: afzalliklar va muammo- lar. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari. – Toshkent, 2023.
6. Ramiz Askar. Uzbek adabiyotidanadqiqotlar. – Toşkent, 2021.
7. Turkiy xalqlar adabiyoti: adabiy aloqalar, adabiy ta’sir va tarjima mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022.
8. Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan, – Baki, 2022.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari. – Toshkent, 2023.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 538 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. – Baki, 2021.
11. Zəhirəddin Məhəmməd Babur Baburnama. (Çağatayca, türkcə və rusça nəşrlərinindən çevirən, ön sözün, qeydlərin və izahların müəllifi: Ramiz Əskər) – Baki:Nurlan, 2011.
12. Arat, Reshit Rahmeti. Vekayi: Bobur’ın Haterate. Turk Tarih Kurumu Yayenlare. – Ankara, 1987.
13. Azimjonova S. Upom.
14. Bo‘riyev O. Biblografiya. – Toshkent, 2024.
15. Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida markaziy osiyo tarixiy geografiyası,– Toshkent:Mumtoz so‘z, 2017.
16. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligitarixi. X-XIX asrlar. –Toshkent, 1993.
17. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur.– Toshkent, 1999.

-
18. Javoharla'l N. "Vzglyad ni vsemirnyu istoriyu", – Moskva, 1976.
19. Jalilov S. Bobur haqida o'ylar. – Toshkent, 2006.
20. Zamonov A. Mirzo Bobur va Shayboniyalar o'rtasidagi dushmanlik surunkali bo'lgan (midi?) "Vodiynama", 2019. №4.
21. Madraimov A. Biblografiya. Tuzuvchilar Matmurodova M va boshqalar. – Toshket, 2000.
22. Madraimov A. Temuriy va boburiylar san'ati. – Toshkent: Sharq, 2022. –
23. Rahimov J. Bobur buyuk – sarkarda yoxud jahon harbiy san'ati rivojiga hissa qo'shgan ulkan g'alabalari // Yangi O'zbekiston. – Toshkent, 2022, 16-fevral.
24. Rahmonov V. Boburshunoslikdagi yangi yutuqlar // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2013, №36.
25. Rizayev Sh. Armonu afsuslar diyorining fuqarosiga ehtirom // O'zbekiston adabiyoti va san'ati @uzasgzt, – Toshkent, 2023.14-iyul.
26. O'zbekistonning ma'rifatparvar ayollari, I jild. "Fan" nashriyoti davlat korxonasi. – Toshkent, 2021.
27. Xolbekov M. Fransuzcha "Boburnoma"lar. "Jahon adabiyoti", 2010. №4.
28. Hayitov Sh.M. "Boburnoma" italyan tilida nashr etildi / <https://yuz.uz/news/>. –Toshkent, 2023. 3-iyun.
29. <https://edebiyyatqazeti.az/news/science/9965-babur-540-turk-dunyasinin-nadir-sexsiyyeti>
30. Bayur Yusuf Hikmet. Hindistan Tarihi, 1-2. cilt, TTK. Yay. – Ankara, 1987.



AZIZA ALMARDONOVA,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

MUMTOZ ADABIYOTDA NAFSNI ANGLATUVCHI TUSHUNCHALAR TAVSIFI

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda mumtoz adabiyotimizdagi asarlarda uchragan nafsn anglatuvchi tushunchalar saralab chiqilgan. Maqolada nafsga oid timsollar haqida aniq ma'lumotlar berilgan. Nafs tushunchasining turli hayvonlar obrazida gavdalaniши she'riy misralar asosida o'r ganilgan. Tadqiqotda statistik, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalangan holda mumtoz asarlarning nafs tushunchasi bilan bog'liq ko'rinishlari tahlil qilingan. Nafsn ifodalovchi timsollar alohida tasniflangan.

Kalit so‘zlar: Nafs, ayol, qush, to‘tiqush, tuyaqush, arslon, yobon qush, karkas qush, dunyo.

Annotation: In this study, the concepts of the self found in the works of our classical literature were sorted out. The article provides specific information about symbols related to lust. The embodiment of the concept of soul in the image of various animals is studied on the basis of poetic verses. In the study, using statistical, comparative-typological methods, the manifestations of classical works related to the concept of self were analyzed. Symbols representing lust are classified separately.

Key words: Nafs, woman, bird, parrot, ostrich, lion, wild bird, carcass bird, world .

Mumtoz adabiyotimiz tarixida shunday obrazlar mavjudki, ular bugungi kunda ham ulkan ahamiyatga ega. Adabiyotda umuman eskirmaydigan mavzular bo‘lganidek, bir necha asrlar o‘tsa ham insonlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan tasavvufiy tushuncha mavjud. Bu barchamiz uchun yagona ichki dushman nafsdir. Imom G‘azzoliyning “Mukoshafat ul-qulub” asarida keltirilishicha: “Alloh taolo jonli mavjudotlarni uch toifada yaratgan:

1. Farishtalar: Alloh farishtalarga faqat aql bergen, nafs-u-havo bermagan. Ular doimiy ravishda Allohga ibodat qilib turadilar. Nafslari bo‘l magani uchun hech ham gunoh ish qilmaydilar.

2. Hayvonlar: Alloh hayvonlarga aql bermagan, faqatgina nafs bergen. Ular faqat nafsni to‘ydirish g‘amida bo‘ladi. Aqli bo‘l magani uchun ularga gunoh yozilmaydi.

3. Insonlar: Alloh insonlarga ham aql, ham nafs bergen”. [Абу Ҳомид Ғаззолий, 2002:10]

Insoniyat paydo bo‘lganidan buyon nafs va unga bog‘liq istilohlar doimiy u bilan yonma-yon tasvirlanadi. Nafs islomgacha bo‘lgan davrda ham, islomdan keyingi adabiyotlarda ham insonni zalotatga undovchi illat sifatida tasvirlanib keladi. Diniy va tasavvufiy manbalarda nafs ko‘proq insonni tarbiyalash uchun, uni komillikka undash uchun yoritilgan bo‘lsa, mumtoz adabiyotlarda huddi shu maqsadlar turli tushuncha va timsollar sifatida gavdalaniadi. O‘zi dastlab, Odam ato va Momo havo yaratilgandan keyin, nafs ularning vujudiga singdirilgan. Balki shuning uchun ham Alloh taolo ularni sinab, jannatdagi bir mevani (ayrim manbalarda bug‘doy sifatida keladi) yemaslikni talab qiladi. Ammo nafs va shayton u ikki yaratiqning aqliga hukm qilib, jannatdan haydalishiga sababchi bo‘ladi. Quyidagi tadqiqotimizda nafs tushunchasining mumtoz asarlarda qanday obrazlarda gavdalanganini tahlil qildik.

1. Ayol timsolida ifodalanishi. Nafs dunyo, mol-davlatni ichiga kirib borgani sari unga berilib ketib, o‘zligini yo‘qotib qo‘ygan odamlarning holatiga nisbat qilib, dunyo arusi – kelinchak, piri zol – kampir tushunchasi orqali ham ifoda etiladi. Ya’ni mol-dunyo kelinchakdek ming xil kiyimda tovlanib, tuslanib o‘ziga tortadi, uni yaltir-yultiriga mahliyo bo‘lib yaqinlashib, dunyonи ichiga kirib ketganiningni bilmay qolasan, dunyo o‘z domiga tortib ketadi, oxirida seni iskanjasiga tortgan dunyo chirkin, havoyi havas, nafsdan boshqa narsa emasligi, aldanib qolganiningni his qilasan. Shundan so‘nggina seni aldab, o‘z domiga tortgan dunyo kelinchagi haqiqiy yuzini ko‘rsatadi. U hammani aldab kelgan piri zol – eski nayrangboz kampir bo‘lib chiqadi, kechikkaningni, nafsingni quli bo‘lib qolganiningni keyin his qilasan, keyin kech bo‘ladi, degan fikrlar mumtoz adabiyotda asrlar davomida yashab keladi. Shu ma’noda hayotiy haqiqatni majoziy olamda, ramz va timsollar vositasida ifoda etuvchi tasavvuf adabiyotlari nafs tushunchasini turli obrazlar orqali bergen.

Nafs Ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” qissasida **ayol** timsolida gavdalanadi. Asarda Ibsol quydagicha tasvirlanadi: “*Tangri unga (Ibsol) go‘zal ko‘rk va shaydoi husn berdi. Bola balog‘atga yetgach, shayton yangasining ko‘zini unga burib yubordi, ketidan ko‘nglini ham unga bog‘ladi. Xotin unga oshiq bo‘lib qoldiyu, o‘z dardini ichiga sig‘dirishga chiday olmadi*”. [Абу Али ибн Сино, 1973:54] Nafs va shaytonning amriga qulq sola boshlagan ayol, yigitni turli yo‘llar bilan o‘ziga jalb qilishga urinadi. Ammo Ibn Sino yigitni shunchalar kuchli iroda egasi qilib tasvirlagan-ki, har qanday hiyla-nayrangga qarshi chiqqa oladi. Otasi o‘rnida otalik qilib katta qilgan akasini qiyin ahvolda qoldirishni istamagan Ibsol, boshqa o‘lkalarni ishg‘ol qilishga kirishadi. Nafsga qarshi kurashish uchun o‘zini jang maydoniga olib kiradi. Bu asarda Ibn Sino nafsnı qanday ko‘rinishda va qanday hiylalar qilib, insonlarni qiyin vaziyatga solishini yigitning yangasi timsolida namoyon qilgan. O‘z ichki nafsi ammorasiga qanday qarshi chiqqa olishni Ibsol timsolida ochib beradi. Asarning oxirida Alloh taolo nomidan quyidagi gaplar keltirilgan: “*Qaysi bir do‘stimizni huzurimizda bor hukmlardan istagani bilan imtihon qilsak, u sabr qilsa, shunga yarasha mukofotga sazovor bo‘ladi*”. [Абу Али ибн Сино, 1973:54] Abu Ali ibn Sino kuchli sabr va irodaga ega bo‘lgan qahramoni orqali nafsnı yengishni ko‘rsatib beradi. Ibsol ana shunday insonlardan biridir.

2. Qushlar timsolida ifodalanishi. Adabiyot tarixida qushlar haqida asar yozgan ijodkorlar ko‘plab uchraydi. Xuddi shu g‘oya, tasavvufga oid asarlarning, falsafiy fikrlarning eng qimmatlisini yozib qoldirgan allomamiz Jaloliddin Rumiyning bir hikoyatida ham mavjud. Qiziqli jihatni Rumiya ham nafs **qush** obrazida gavdalanadi, ya’ni **to‘tiqush**. Uning “To‘tiqushning hiylasi” [Жалолиддин Румий, 2004: 89] hikoyatida qafasdagi to‘tiqush hiyla orqali ozodlikka chiqib oladi. Erkin bo‘lgan to‘tiqush egasiga quyidagilarni aytadi: “*Hindistondagi to‘tiqush o‘z harakati bilan menga nasihat berdi. Aytidi, gapirishni, sayrashni qo‘y. Chunki sen qafasdasan. So‘ng o‘zingni o‘lganga solib, men qilgan ishni qil. Men kabi o‘zingni o‘lganga solsang, qafasdan qutulasan*”, [Жалолиддин Румий, 2004: 89] shunday deya to‘tiqush uchib ketadi. Ozod bo‘lishni istasang dastlab, nafsingni tarbiyalashing kerak. Ya’ni har bir inson nafsining buyruqlari bilan ish qilar ekan. U huddi qafasdagi qushga o‘xshaydi. Nafsini tarbiyalay olsa, o‘lmasdan turib o‘lsa, haqiqiy ozodlikka erishadi. Rumiyona falsafa bilan yozilgan hikoyatlarni o‘qisangiz, oddiy maishiy mavzudagi asardek ko‘rinadi. Ammo uning botiniga kirib borsangiz, haqiqiy falsafaga duch kelasiz. Rumiy kabi teran fikrlovchi Ibn Sinoning yana bir falsafiy asari “Risolat at-tayr”, “Tayr” qissasidir. Qushlar haqida hikoya qiluvchi bu asarda, quyidagi jumlalar keltiriladi: “*Ajal zahrini yutinglar, yashajaksiz, o‘limni sevinglar tirik bo‘lajaksiz. Qo‘nadigan uya tutmay uchib yuringlar, chunki qushlarning ovlanadigan joyi uyalardir*”. [Болтабоев, 2005: 79] Asarning shu yerida qushlar nafsining aytganlariga kirib, tuzoqqa tushadi va boshqa qushlar tilidan yuqoridagi fikrlar keltiriladi. Aslida, **qushlar** obraziga singdirilgan maqsad insonlarga tegishlidir. Asarning oxirida qushlar – **odamlar**, uzoq safardan so‘ng podshoh – Tangri huzuriga yetib boradi. Oyoqla-

ridagi kishandan qutulish yo‘lini Yaratgandan so‘raydi. Podshoh esa tuzoqni kim qo‘ygan bo‘lsa, xalos qiluvchi ham shu kishi ekanini aytadi. Asardagi ovchi – dunyo, qushlarga qo‘yilgan tuzoq – dunyoviy istaklar, ovchiga yuborilgan elchi esa – aql timsolidir. Faqatgina aql tufayli har qanday inson nafsiga bas kelishi mumkin. Bu o‘rinda Ibn Sino nafsn si sindirish, fano bosqichida “o‘lmashdan burun o‘lishni” ko‘rsatmoqda. Insonning moddiy jihatdan o‘lmay turib, nafsni nazorat ostiga olishi nazarda tutilgan. Aynan tasavvufda shu jihat bor, kimki Alloha yaqin bo‘lishni istasa, avvalo nafsni o‘ldirishi kerak.

Qur’oni karim va Hadisi sharif kabi muqaddas manbalardan oziqlangan mumtoz adabiyotimiz tarixida shunday insonlar o‘tganki, ularning butun hayoti va ijodi barchaga o‘rnak bo‘lарlidir. Ana shunday allomalarimizdan biri Ahmad Yassaviydir. Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari katta ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lib, insonni tarbiyalash uchun she‘rning kuchidan foydalanadi. Har bir hikmatlarida tarbiyaga doir ibratli fikrlar, g‘oyalar ilgari suriladi, she‘rlari bilan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Yassaviy asarida nafs va uning tarbiyasiga ko‘proq to‘xtalgan. Buning sababi: Tasavvuf ahli inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan “Nafs” yoki “Nafsi ammora” deb atadilar va unga qarshi urush e’lon qildilar. Mol-dunyo to‘plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirs-u havas qat’iy qoralandi, insonni (insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan bir to‘g‘ri yo‘li nafsn o‘ldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh-irodani chiniqtira borib, insonga insoniylikni, ya’ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ‘ib qilinadi. Nafsni yomonligini anglash odamning o‘zini, demakki ilohiylik va ezgulikni anglashdir.

Ahmad Yassaviy ijodida ham nafs turli qushlar ko‘rinishida tasvirlanadi. Xususan, alloma-ning mashhur “Devoni hikmat” asarida **karkas qush** timsolida uchraydi:

*...Dunyo mening degonlar, jahon molin olg‘onlar, [Аҳмад Яссавий, 1991: 102]
Karkas qushdek bo‘lubon ul haromg‘a botmishlar.*

Misralarga e’tibor bersak, dunyo moliga, ya’ni turli noz-ne’matlarga berilganlar, unga ko‘ngil bog‘laganlar haqida aytilyapti. Shunday kishilar karkas qush, ya’ni o‘laksaxo‘r qushdek nopol yashashiga ishora qilayapti. Kundalik hayotimiz doirasida ham o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, insonning botiniy nafsi faqat dunyo boyliklarini ko‘radi. Uning buyruqlariga kirgan har qanday inson mol-u davlat yig‘ish dardi bilan yashaydi. Bu yo‘lda ayrim insonlarning shaytoniy hirslari yaqqol namoyon bo‘ladi. Maqsadiga yetish uchun o‘z yaqinlaridan ham kechib yuboradi. Shu sababli Ahmad Yassaviy karkas qushni misol sifatida keltiradi. Chunki bu qush faqat qorni to‘q bo‘lishini istaydi. Uning nafsi shunchalar tubanki, yeyayotgan go‘shti nimaniki ekanligiga qiziqib ham o‘tirmaydi. Hatto karkas qushning jasadi bo‘lsa ham farqi yo‘q. Nafsni yenga olmaganchani aynan shunday qiyoslaydi, alloma. Yana bir she‘rida esa nafsni “**yobon qush**”ga o‘xshatadi:

*Nafsing seni boqib tursang nelar demas,
Zori qilsang Olloh sari buyun sunmas.
Qo‘lg‘a olsang **yobon qushdek** qo‘lg‘a qo‘nmas,
Qo‘lg‘a olib tun uyqusin qilg‘il bedor. [Аҳмад Яссавий, 1991: 196]*

Yassaviyning bu misralari go‘yoki, karkas qush haqidagi misraning davomidek ko‘rinadi. Chunki dunyo noz-ne’matlariga berilib, nafsning har qanday istagini bajaraversa, uning asiriga aylanib qolishini ta’kidlaydi. Insonning ko‘ngli nimalarni tusamasligiga e’tibor qaratib, nafsn domiga tushgan kishilar uni hech qachon yenga olmasligini aytadi. Nafsn aytganlarini so‘zmaso‘z bajarganda, u insonni tubanlik sari boshlashini uqtirmoqchi bo‘ladi, Ahmad Yassaviy. Va

yobon qush kabi qo‘lga qo‘nmas, ya’ni to‘g‘ri yo‘lni yo‘qotib qo‘yishiga urg‘u beradi. Shu sababli ham ana shu yobon qush – nafsn yengib, har bir inson o‘zini poklashi kerakligini ta’kidlaydi.

Tabiatan inson buzg‘unchilik g‘oyalariga ham moyil bo‘lishi, buyuklar ta’bir etganlaridek hayvoniy sifatlar ham unda zuhur etishi barchaga ma’lum. Buning hammasi yoshlikdan berilgan to‘g‘ri tarbiya davomida yo‘naltirilib boriladi. Ulamolarimiz aytadilarki, inson aqlini nafsidan ustun qo‘yib, hayotini shariatga muvofiq o‘tkazsa, u farishtalardan ham afzal bo‘ladi. Sababi – nafsi bo‘la turib, aqlini nafsidan ustun qildi. Ammo insonning nafsi aqlidan g‘olib kelsa va nafsi ning havoyi-istiklariga ko‘ra hayot kechirsa, u hayvondan ham tubanroq bo‘ladi.

3. Hayvonlar timsoldida ifodalanishi. Tasavvuf haqida gapiranimizda, Jaloliddin Rumiy hazratlarini eslamaslikni iloji yo‘q. Sababi bu insonning qoldirgan ilmiy merosining o‘zi bu dunyodagi barcha kishilarni poklanishiga, nafslarini tarbiya qilishlari uchun yetadi. Uning “Masnaviyu ma‘naviy” asarida keltirilgan fikrlar, hikoyatlar insonlarni sabr-toqatl, odob-axloqli, to‘g‘riso‘z bir so‘z bilan aytganda, har tomonlama komil shaxs bo‘lishlariga yordam beradi. Rumiyning mashhur “Fihi ma fihi” ya’ni “Ichindagi ichindadir” asarida qalbni poklab, ruhimizni Alloh taolonning ishqiga bahshida etishimiz haqida aytildi. Bu yo‘ldagi to‘siqlardan biri, albatta, nafsdir. Jaloliddin Rumiy nafs haqida quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Buyurdiki, inson nafсиda shunday bir narsa borki, hayvonlarda yo‘qdir, deyishadi. Ammo bu inson ulardan yomon, degani emas. Balki shundaydir : insondagi yomon fe‘li-ho‘y, nafs va baxtsizlik mavjud bo‘lgan yashirin javhardandir”. [Х.Болтабоев, 2005:191] Rumiy insonlarning yomoni bo‘lmaydi, faqat ularning yo‘ldan adashganlari yoki yo‘lini topa olmaganlari bo‘lishini aytib o‘tadi. Rumiyning bir nechta hikoyatlarida ham nafsn yengib, o‘zlikka qaytish g‘oyalari keng targ‘ib qilinadi. Xususan, uning “**Uch baliq hikoyasi**”da ikkita g‘oya ustuvorlik qiladi. Biri – insonlarni hushyor va aqli, mehnatsevar, g‘ayrat va shijoatli bo‘lishga charqirish bo‘lsa, yana birida – o‘lmasdan oldin nafsn salbiy istaklarini o‘ldirish” maqsadi ifodalanaadi. Rumiy bejizga, aynan, uchta baliqni misol sifatida keltirmagan. Sababi insonlarning ham uch toifasi bo‘ladi: 1 - qiyinchilik, mashaqqat va og‘ir mehnat bilan maqsadiga yetadiganlar; 2 - nafslarini mag‘lub qilib, o‘z orzu-istiklarini amalga oshiradiganlar; 3 - esa arosatda qolgan insonlar, ya’ni ular qiyinchilikni ham, nafs bilan kurashishni ham xohlashmaydi. Shuning uchun bunday insonlar hayotda o‘z yo‘llarini topa olmay, ovchilarning qo‘liga tushgan baliqdek pushaymon qilishadi. Rumiy esa insonlarni shunday ahvolga tushib qolishlarini istamaydi.

Mavlono Rumiyning “Masnaviyi ma‘naviy” asarida nafs yana **yirtqich arslonga** o‘xshatiladi. [Жалолиддин Румий, 2004:87] Kichkinagina quyonning hiylasiga uchgan arslon, nafsining quliga aylanib oxiri halokatga mahkum bo‘ladi. Kundalik hayotimizda ham huddi shunday, botiniy nafsimizga qarshi chiqa olganimizda shayton o‘zining xiylalari bilan bizni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradi. Aqlimizga quloq solmasdan, nafsning buyruqlarini bajarganimizda arslonni ahvoliga tushib qolamiz. Shu sababdan ham dunyo boyliklariga berilmaslik, qalbning, ko‘zning to‘q bo‘lishi va tilning tiyilishi nafsn yengishning dastlabki bosqichlaridir.

Sharq adabiyotida tasavvufshunos allomalar juda ko‘plab uchraydi. Ularning nafaqat hayot yo‘li, balki ijodiy merosi ham tasavvuf g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan. Xususan, barchamizga o‘zining “Mantiq ut-tayr” asari bilan mashhur bo‘lgan ijodkor Fariduddin Attordir. Uning “Qush nutqi” asaridan tashqari falsafiy, tasavvufiy g‘oyalari yo‘g‘rilgan “Tazkirat ul-avliyo”, “Ilahiynoma”, “Asrorno-ma”, “Musibatnoma” asarlarida ham insonlarni odob-axloqqa, to‘g‘ri yo‘lga, nafsin quliga aylanib qolmaslikka o‘rgatuvchi o‘rinlar bisyor. Masalan, uning “Ilahiynoma” asari debochasida quyidagi fikrlar uchraydi: “Agar ajaldan oldin bir dam o‘lsang, ya’ni nafsingi o‘ldirolsang – olamni egallaysan. Usenga yaqin, ammo sen undan uzoqsan. Ogoh bo‘lib anglag‘il, ey ayriliqdagi eran, sen Yaqindan shuncha uzoqlashding, hasratdan qalbing dog‘, sharmandalik boshini tizza ustiga egasan. Agar Xudo yo‘liga loyiq bo‘lsang, hoyu havasning ko‘zi ko‘r bo‘lgach,

ilohiy ko'zing Haq sari ochiladi." [Х.Болтабоев, 2005:168] Bundan ko'riniб turibdiki, Fariduddin Attor insonlarni Haq jamoliga yetishlarini chin dildan xohlagan. Shu sababli birinchi navbatda nafsn mag'lub etishni, hoyu havasga berilmaslikni talab qiladi. Fariduddin Attorning "Pandnoma" asarida ham nafs qush timsolida keltiriladi. **Tuyaqush** sifatida tasvirlaydi, tasavvufshunos. "Tuyaqush" so'ziga e'tibor bersak, ikki jonzotning qo'shilishidan hosil bo'lgan, ya'ni tuya-hayvon yerda yuruchi va qush osmonda uchuvchi. Fariduddin Attor ham aynan shu jihatiga urg'u beradi. Tuyaqushning ustiga biror yuk ortishmoqchi bo'lishsa, men qushman deb javob beradi. Qushlarga tegishli biror topshiriq berilsa, tuyaman deb javob berarkan. Nafs shunday yirtqich narsaki, sizning ko'zingizga turli jonzot qiyofasida, hattoki yaqin insoningiz sifatida ham gavdalanishi mumkin.

"Mantiq ut-tayr" asarida esa Fariduddin Attor nafsn boshqa bir hayvon qiyofasida gavdalantirgan. Garchi bu asar qushlar haqida yozilgan bo'lsa-da, ammo Attor nafsnit **it** sifatida ta'riflaydi. Barcha adabiyot ixlosmandlariga ma'lumki, "Mantiq ut-tayr" asari falsafiy xarakterga ega. Asarda Attor ta'riflagan o'ttiz qush aslini olganda insonlardir. Qushlarning o'z maqsadlari yo'lida qiyinchiliklarni yengib, turli sinovlarga dosh bera olishlarini ko'rsatib, insonlarni ham shunday bo'lishlarini xohlaydi, alloma. "Mantiq ut-tayr" asarida ko'proq qushlarning o'zaro suhbatli keltiriladi. Shu suhbatlar orasida nafsn qanday qilib tarbiyalsh haqidagi savol-javoblar ham uchraydi. Xususan, Humo qushining Hudhudga javobida shunday deyiladi. "*Nafs itiga suyak tashlab, shu orqali ruhni bu itdan omonlikda saqlayman. Nafsga mudom suyak berib turganim uchun, jonim bunday oliy maqomga erishdi.*" [Фаридуддин Аттор, 2006:36]

Fariduddin Attor asarida qahramonlar nutqidan nafs tarbiyasi haqidagi qimmatli fikrlarni berib o'tadi. Uning fikricha, nafsn insonlar bolalik paytidan boshlab, tarbiyalamog'i lozim. Sababi kichkinalik payti har kimning beg'uborlik davri hisoblanadi. Bu davrda insonlar faqat yaxshi narsalar haqida o'ylashadi. Nafs hali aqlga hujum qilmagan davr hisoblanadi. Bolalik vaqtida nafsnini jilovlay olgan har qanday inson, keksayganda rohat va farog'atda yashaydi. Attor nafsning birgina buyrug'ini bajargan inson, unga ipsiz bog'lanib qolishini ta'kidlaydi. Va quyidagi fikrlarni keltiradi: "*Nafsim dushmanimdur, undan qanday qutulaykim, u qaroqchiday men bilan birgadir. It nafsim hech amrimga itoat etmaydi, undan jonimni qanday qutqarishni bilmayman. Sahroda bo'ri menga oshno bo'ldi – bo'ysundi, ammo chiroyli it (nafs) menga itoat etmaydi.*" [Фаридуддин Аммоп, 2006:37]

Fariduddin Attor keksalik davrida shu kabi pushaymonlar qilmaslik uchun, nafsn go'daklik vaqtidan boshlab tarbiyalash kerakligini uqtiradi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlasak, nafs haqida biror bir kitob yozmagan, ammo deyarli barcha asarlarining mohiyatini nafsn yengish g'oyasi tashkil etadi. Xususan, "Xamsa" dostonlari tarkibida nafsnning turli timsollarda kelishiga misollar keltiradi. "Hayrat ul-abror" [Алишер Навоий, 2011:78] dostonining uchinchi maqolotida sultonlar to'g'risida gapirar ekan, ularni vujud tashvishi oldida butun mamlakat, xalqni xarob qilmaslikka chorlaydi:

*Sen chu bo'lub sarxushu xilvatgaroy,
Anda qilib har ne tilab nafs-u roy.
Bazmdagi qari-yu gar xud yigit,
Maydin o'lub har biri bir telba it.
Shaynda qoplondan agarchi fuzun,
Nafs itining ilgida lekin zabun.* [Алишер Навоий, 2011:78]

"Hayrat ul-abror" dan olingan misralarga qarasak, Navoiy **nafsnit** sifatida tasvirlaydi. Alisher Navoiy sultonlarning maishatbozlik, ichkilikka ruju qo'yishini nafsga bo'ysunish, deb biladi.

Hushyorligini yo‘qotgan mamlakat hukmdori nafaqat o‘zini, balki yonidagi barcha amaldorlarini ham “nafs iti”ning qo‘liga topshiradi. Shu sababli Navoiy shohlarni maishatga berilmaslikka, adolat bilan ish tutishga chorlaydi. Taniqli navoiyshunos Ibrohim Haqqul o‘zining “Zanjirband she‘r qoshida” kitobida “nafs iti” iborasini mana bunday izohlaydi: “...tasavvuf she‘riyatida (poetik obraz)” sifatida it – bu nafs. Itlar esa nafs farzandlari, ya’ni nafsoniy xirslar”. Insonning boshiga nafs tufayli turli xil balolar keladi. Sababi turli yomon illatlar aynan nafs tufayli paydo bo‘ladi.

Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,

Nafs itin qilsang zabun, olamda yo‘q sendek shujo’. [Алишер Навоий, 2011:80]

Alisher Navoiy tomonidan nafs haqida aytilgan eng mashhur misralar. Bu baytda “besha” so‘zi to‘qay, o‘rmon ma’nosini anglatadi. Demak, Alisher Navoiy xususiy manzaralarni qo‘llash orqali nafsn ni yengishni ta’kidlaydi. Ya’ni, o‘rmon qiroli, dunyodagi eng dahshatli kuch bo‘lmish sherni-da mag‘lub etsang – bu sening qudrating, shijoating namoyishi bo‘lmaydi. Balki, nafs itini mahv qilsanggina dunyodagi eng shijoatli, botir kishi sanalishga loyiqsan. Navoiy nafsn sherdan ham kuchli ekanligiga alohida urg‘u beradi va misralarida uni itga qiyoslaydi. Shoир uchun nafs go‘yoki **it**, ammo qudratligi, insonni o‘ziga bo‘y sundirish jihatidan sherdan ham kuchli. Shu sababli ham sherdek kuchi bo‘lmasa-da, lekin bir nafsn ni yengishga qodir irodasi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi, Hazrati Navoiy.

4. Mavhum tushunchalar orqali ifodalanishi. Nafs bilan bog‘liq tushuncha va timsollar mumtoz asarlarda turli ko‘rinishlarda uchraydi.

Najmuddin Kubro insonni tubanlashtiruvchi nafsni **dev** qiyofasida tasvirlaydi:

Devest daruni man, ki pinhoni nest,

Bardoshtani sarash ba osoni nest.

Iymonash hazor bor talqin kardam,

On kofirro sari musulmoni nest.

(Ichimda bir dev bor, u yashirin emas. Boshini ko‘tarishi ham osonlik bilan bo‘lmaydi. Ming marta iymonga keltirib, musulmon qilmoqchi bo‘ldim, ammo ul kofirda musulmonlikdan nishona yo‘q). Najmuddin Kubro ichimda dev bor deya, o‘z nafsn ni ta’kidlaydi. Uni kofir sifatida ko‘radi. Kofirlarda musulmonlik xislati bo‘lmaganidek, nafsi devga o‘xshab, yomon bo‘lib ketganlarda, iymon ham bo‘lmaydi.

Nafs – g‘addor dushman va qattol kofir. Nafs devi boshini yanchgan kishi qanoat mulkining sohibqironi bo‘lib, poklik xazinasini qo‘lga kirta oladi.

Podshoh qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerakligi, vazirning mas’uliyatlari haqida xabar beruvchi, pand-nasihat ruhida yozilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari – haqiqiy durdonadir. Uning hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar beruvchi yagona manba ham “Qutadg‘u bilig” kitobidir. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”, 1069–1070) asari islomiy turkiy adabiyotni boshlabgina bermay, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ham ko‘tardi. Asarda o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti, urf-odat va an‘analari yorqin aks etgan. Qolaversa, asar shaxs tarbiyasi, komil inson sifatlari va nafsn qanday yomon illat ekani haqida ham ma’lumot beradi. Yusuf Xos Hojib ijodida ham nafs tushunchasi dunyo sifatida gavdalananadi. Uning “Qutadg‘u bilig” asarida quyidagi fikrlar uchraydi:

“Bu dunyoga ko‘ngil berib u bilan mahliyo bo‘ldim,

U esa mendan qochib vafo qilmadi.

*Dunyo meni aldadi, sevib o'ziga chorladi,
Men ko'ngil qo'ygach, shoshilib mendan qochdi.
Barcha kerakli ishlarimni bir chetga qo'yib,*

Havasga g'arq bo'lib keraksiz (ishlar)ni qildim” [Юсүф Хос Жошиб, 1971:227]

Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarini o'sha davrdagi vaziyatdan kelib chiqib yoza-di. Asardagi to'rt qahramon davlatni boshqarishda odil va halol bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Yuqoridagi misralarda ham Yusuf Xos Hojib insonlarga o'z nafsini jilovlab, dunyoning aldamchi hoyu-havaslariga berilmaslikni uqtirmoqchi bo'ladi. Ayniqsa, shoh va vazirlar bu ishda xushyor bo'lishi kerak ekanini aytadi. Agar biror davlatning hukmdori nafsining quliga aylangan bo'lsa, bilingki, u mamlakat hech qachon qudratli bo'la olmaydi.

Didaktik asarlarning yana bir noyob namunasi Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” kitobidir. Asar qoraxoniylar davrida yaratilgan ijod mahsuli hisoblanib, XII asrda yozilgan. “Hibat ul-haqoyiq” hozirgi tilda “Sevimli haqiqatlar” demakdir. Ahmad Yugnakiy o'zidan oldingi didaktik adabiyot an'analarini izchil va ijodiy davom ettiradi. Asarda ma'rifat g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Adib ilm ma'rifatga, alohida e'tiborni qaratadi. Bilimdonlik va bilimli kishilarni ulug'laydi, nodonlik, jaholat inson sha'nini yerga uruvchi hodisalarini esa qoralaydi.

Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asarining uchinchi bo'limidagi “Dunyoning o'zgarib turishi” haqidagi qismida, dunyoning o'tkinchiligi, insonlarga hech qachon vafo qilmasligi haqida aytildi:

*Dunyo goh qosh qoqar, goh qovoq solar,
Bir qo'lida asal, birida zahar.
Asal bilan totli qilib taoming,*

Ortidan zaharli qadahni tutar. [Ahmad Yugnakiy, 2013:23]

Ahmad Yugnakiy nafsning qanday yomon illat ekanini **dunyo** misolida ko'rsatib bergen. Demak, dunyo – nafs sifatida gavdalanayapti. Hayotingni asaldek shirin qiladiki, aldanib qolganingni bilmay qolasan, deydi shoir. Natijada, uning buyruqlarini so'zsiz bajara boshlaysan va oxiri halo-kat yoqasiga kelib qolganingni bilmay qolasan. Nafs ana shunday xiylalari bilan insonlarni o'ziga bo'ysundirib oladi.

Didaktik asarlarning deyarli barchasida nafs – bevafo dunyo sifatida gavdalanadi. Ammo ba'zi asarlarda u shaytondan ham yomon illat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asarida shu kabi holatlar ko'plab uchraydi. XIII-XIV asrlarning noyob durdonasi hisoblanuvchi bu asar, payg'ambarlar tarixini bayon qilishi bilan boshqa didaktik adabiyotlardan farqlanadi. Rabg'uziyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an'anasisidagi o'ziga xos bosqich bo'ldi. Adib o'zigacha yaratilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarini puxta o'rgandi, ularning yantuqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. Salaflari yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. Oldinlari nabiyalar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Rabg'uziyning turkiy tilda bitilgan qissalar turkiy xalqlarning bebafo ma'naviy mulkiga aylandi. Halollikka, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Rabg'uziy hikoyalarining asosiy maqsadidir. Asarning “Odam alayhissalom qissasi”da insoniyatga nafs qanday berilgani haqida fikrlar uchraydi : “*Xabarda aytadilarki, bir kuni Iblis yetmish ming farishta bilan Odam jasadi yoniga osmondan tushib keldi, ikkala qo'li bilan Odamning qorniga urib ko'rdiki, ichi kovak ekan. Farishtalarga aytди: “Buni yo'ldan chiqarish o'ng'ay ekan”.*”[Носируддин Рағузий, 1991:14] Xo'sh, nega endi Odamning aynan qorniga urib ko'radi? Buning sababi oddiy, insonlar dunyo boyliklariga, turli noz-ne'matlarga berilganidan nafsning buyruqlarini bajara boshlaydi. Ana shunday insonlarni shayton ham oson yengib oladi. Hadisi

shariflarimizda nafsning ham qanday yaratilgani haqida fikrlar uchraydi. Alloh nafsmi bir yil och qoldirgandan keyin, nafs o‘z Robbisini taniydi. Yaratgan egam Odamni ham ochlikka chidamsiz qilib yaratgan. Shu bois shayton ichi kovak narsani yo‘ldan urish osonligini ta’kidlaydi. Asarda Payg‘ambarlar hayoti yoritilarkan, ularning o‘z nafslariga qanday qarshi chiqqanlari, uni yengish uchun nima ishlar qilgani yorqin aks etadi.

Alisher Navoiyning g‘azallarida, **nafs – dunyo** sifatida tasvirlanadi. Taniqli adabiyotshunos, olim Nurboy Jabborovning “Alisher Navoiy asarlarida “dunyo” timsoli va uning talqinlari” [N. Jabborov, 2021:11] maqolasida Naviy dunyoni ikki xil ma’noda qo‘llaganligini aytib o‘tadi : 1. “Dunyo” timsoli inson yashab turgan makon ma’nosida; 2. “Dunyo” timsoli odamzodni ma’rifatdan to‘suvchi parda sifatidagi talqini. Biz aytmoqchi bo‘lgan jihat, aynan ikkinchi turiga kiradi. Nurboy Jabborovning fikricha, Navoiy asarlarida dunyo emas, dunyoparastlik inkor etiladi. Dunyoni emas, dunyoga muhabbatni tark etishga chaqiriladi. Dunyoga muhabbat esa, nafsning amrini bajarish asnosida qo‘yiladi. Shu sababli ham Navoiy quyidagi misralarni keltiradi :

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,

Bir yo‘li bo‘lma zabun bu zoli makkor ollida. [Алишер Навоий, 1988:43]

“Ziynatlanib kelin suvratida ko‘ringani bilan u, aslida, “zoli makkor” – makru hiylani hayotiy a’mol qilgan kampir ekanini aytib, uning oldida hech qachon zabun bo‘lmaslikka chaqiradi. O‘zagi “dun” bo‘lgan “dunyo” so‘zi, bundan tashqari, “turbanlik”, “pastlik” ma’nolarini ham anglatadi. Ya’ni, buyuk mutafakkir nazdida, dunyo – insoning Haq ma’rifatiga erishmog‘i yo‘lidagi to‘siq, uni tubanlikka qulatguvchi illatdir”. [N.Jabborov, 2021:11] Aslida qalbi go‘zal, aqli mukammal bo‘lgan insonlar dunyoning aldamchi xiyalariga uchmaydi. Sababi ular o‘zlarini bu yovuz dushman oldida tarbiyalab boradi.

Y.Ziyayeva o‘zining “Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida nafs talqini” maqolasida “Hayrat ul-abror” da nafsnı quyidagi ma’nolarda talqin etgan: 1) yeish-ichishga bo‘lgan nafs; 2) mol-dunyoga bo‘lgan nafs; 3) maishatbozlik bilan bog‘liq nafs; 4) bu dunyo noz-ne’matlari, zeb-u ziynatlar, kiyim kechakka bo‘lgan xirs-u havas; 5) insondagi barcha qora illatlar – nafs; 6) nafs – bu kibru havo, takabburlik, havolanish; 7) nafs – dunyo, ya’ni moddiy olam; 8) nafs o‘zlik ma’nosida ishlatilgan”. [Y.Ziyayeva, 2021:151] Navoiy bejizga nafsnıng bu turlarini aynan “Hayrat ul-abror” dostonida keltirmagan. Sababi doston boshdan oxirigacha diniy-tasavvufiy ruh bilan boyitilgan. Asarni o‘qib chiqqan har qanday kishi o‘zining bu hayotda qilgan ishlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqi haqida sarhisob qila boshlaydi. Dostondagi maqolotlarning deyarli barchasida komil inson g‘oyasi ufurib turadi.

Yana bir baytida esa, nafs “**o‘zluk imorati**” tushunchasi bilan qo‘llanadi:

Kimki o‘zluk imoratini buzdi,

Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.

Ul imoratni buzmayin solik

Bo‘la olmas bu naqdga molik. [Алииев Набоиү, 1988:540]

Mashhur “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kirgan g‘azaldagi bu baytda, shoir nafsnı “**o‘zluk imorati**” deya, tasvirlaydi. Kimda-kim ana shu imoratni buzsa, uning iymoni mustahkam bo‘lganligini e’tirof etadi. Bu yerda huddi Ibn Sino va Rumiy qo‘llagan “o‘lmasdan turib, o‘lish” konsepsiysi mavjud. Aynan yuqoridagi misralarni taniqli navoiyshunos Ibrohim Haqqul quyidagicha izohlaydi: “*O‘zluk imoratin*” *buzib, naqdi fanoni qo‘lga kiritish bashariy sifatlardan forig‘ quadratli yangi bir ma’naviy “men”ga sohib bo‘lishdir. “O‘zluk imorati”, albatta, nafs. Undan qutulish iztirobi tasavvuf adabiyotidagi asosiy iztirobdir.*” [I.Haqqulov, 2021:50] Demak, Ibro-

him Haqqulning fikricha, nafsni yenggan har qanday kishi, o‘z ichki “men”nini topa oladi. Ya’ni o‘zligini anglab, Haq jamoliga erishishi mumkin. “Alisher Navoiy she’riyatida fano timsolining irfoniy mohiyati” maqolasi muallifi Alisher Razzoqov esa, “o‘zluk imorati”ni biroz o‘zgacha tahlil qiladi : “ “O‘zluk imorati” – obratzli tushuncha. Inson tirikligini ta’minlovchi quvvatlar yig‘indisi – “nafsi hayvoni”ni shu imoratning poydevori yohud ustunlari deyish mumkin. Kibru havo, manmanlik, molu davlat hirsi, xudparastlik va mansabparastlik singari mayl hamda istaklar “o‘zluk imorati” ning jihozlaridir. U buzilgach, bularning barchasi barham topadi”. [A.Razzoqov, 2021:171] Har qaysi tahlilga e’tibor bersak ham, misralardagi mohiyat o‘zgarmagan. Asosiy g‘oya – nafsni mag‘lub etish, o‘zlikni anglash, komilikka intilish va Haq jamoliga yetishish. Alisher Navoiy ham aynan, shu g‘oyalarni ilgari surgan bo‘lsa, ajab emas.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimiz namoyondalari nafs bilan bog‘liq obrazlarni asarlarida keltirish orqali insonlarni to‘g‘ri yo‘lda yurishga targ‘ib qilgan. Didaktik asarlarning bir nechtasini tahlilga tortgan bo‘lsak, nafsga oid tushuncha va timsollar bir nechtani tashkil etar ekan. Ibn Sino ijodida **ayol** va **qush** timsolida, Rumi hikoyatlarida **to‘tiqush, arslon, baliq** sifatida gavdalangan. Farididdin Attorda **tuyaqush** va **it** sifatida namoyon bo‘lsa, Najmiddin Kubroda **dev** qiyofasida ko‘rinadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida **karkas qush, yobon qush** ko‘rinishida uchraydi. Alisher Navoiy ijodida esa **nafs – it, dunyo, o‘zluk imorati, dunyo arusi** timsollari bilan namoyon bo‘ladi. Demak, tasavvuf va mumtoz ijodkorlar o‘z asarlarida nafsni qaysidir qahramon ruhiyatida aks ettirish orqali, insonlarni tarbiyalashga harakat qiladilar. Bu qahramonlar asosida tushuntirilgan nafsni barcha yaxshi anglaydi. Asarlardagi qahramonlarga emas, balki komil inson bo‘lishga intiladilar..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Ҳомид Фаззолий. Мукошафат ул-қулуб – Т.: “Адолат” нашириёти, 2002. – Б.10.
2. Абу Али ибн Сино.Мен англаган дунё. Нашрга тайёрловчи Эргаи Очилов. – Тошкент: Sharq, 2015. – 45 б.
3. Абу Али ибн Сино. Саломон ва Ибсол қиссаси.-Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашириёти, 1973. – 54,55 б.
4. Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol. A.Irisov tarjimasi. <http://ziyo.com.kutubxonasi>
5. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 102, 196 б.
6. Ahmad Yugnakiy.Hibat ul-haqoyiq. – Toshkent: “Sharq”, 2013. – 23 б.
7. Алишер Навоий.Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Faafur Fugum nomidagi HMIU, 2011.
8. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Faroib yus-sigar. III том. – Тошкент: Фан, 1988. –540 б.
9. Алишер Навоий. TAT. 10 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фан, 2011.
10. Болтабоев X. Ислом масаввифи манбалари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2005. – Б.79,168,191.
11. Фариуддин Амтор. “Мантиқ ум-тайир”. – Тошкент: “Фан”, 2006. – 36 б.
12. Jabborov.N. Alisher Navoiy asarlarida “dunyo” timsoli va uning talqinlari. – Toshkent: “Alisher Navoiy va XXI asr”, 2021.
13. Jaloliddin Rumiy. “Masnaviy”dan ibratli hikoyalari. www.ziyo.com kutubxonasi.
14. Носируддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 4 б.
15. Зияева.Ю. Алишер Навоийнинг “Хамса”достонларида нафс талқини. – Т.: ЎЗА (электрон журнал), 2021. – Б.151.

SHERXON QORAYEV,

*Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ALISHER NAVOIY OLIY MAJLISINING NADIMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy huzurida o'tkazilgan adabiy majlislar va uning ishtirokchilari qalamga olingan. Temuriylar davri manbalarida bunday she'riyat yig'inlari "Oliy majlislar" deb yuritilgan. Mazkur adabiyot anjumanlarida o'z davrining mashhur ziyolilari, shoirlari va olimlari qatnashib, adabiy babs va munozaralarga kirishishgan.

Kalit so'zlar: Adabiy anjuman, ma'rify suhbat, nadimlar, g'azallar, qasida.

Аннотация: В данной научной статье описаны литературные посиделки, проходившие в присутствии великого поэта и мыслителя Алишера Навои и их участников. В источниках эпохи Тимуридов такие собрания поэтов назывались "Верховными собраниями". Известные интеллектуалы, поэты и ученые своего времени участвовали в литературных дискуссиях и дебатах.

Ключевые слова: Литературная конференция, просветительская беседа, надимы, газели, касыда.

Annotation: In this scientific article, the literary gatherings held in the presence of the great poet and thinker Alisher Navoi and its participants were written. In the sources of the Timurid era, such gatherings of poetry were called "Supreme Meetings".

Famous intellectuals, poets and scientists of their time participated in these literary conferences and engaged in literary discussions and debates.

Key words: Literary conference, educational conversation, nadimi, ghazals, kasida.

Ozbek adabiyoti tarixida Sulton Husayn Boyqaro huzurida o'tkazilgan oliy majlislar (Xurosonda adabiy majlislar ana shunday nom bilan atalgan – muallif) kabi shoirlar sultoni Alisher Navoiy dargohida ham xuddi shunday she'riyat kechalari tashkil etilgan. Binobarin, Navoiyning adabiyot ahliga ko'rsatgan g'amxo'rligining samarasi o'laroq, Movarounnahr va Xurosonning ziyolilari uning atrofida to'planganlar [16, 453]. Uzoq-yaqindan kelgan shoirlar esa Xondamir ta'biri bilan aytganda, Alisher Navoiyning she'riy majlislarini bezata boshlaganlar. Navoiy "Mahbub ul – qulub"da yozishicha, "goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim. Ulug' kishilarni va yuqori mansab egalarini hurmat va ta'zim yuzasidan mehmon qildim va ba'zan shodlik bog'ida ziyofer tuzib, xonanda va sozandalarning bazmu taronalaridan bahramand bo'ldim [6, 20-24]".

Alisher Navoiy huzuridagi bunday she'riyat kechalarida qatnashish hammaga ham nasib etmagan. Xondamirga ko'ra, "olimlarning ulug'lari qachonki, uning oliy darajadagi yig'inlari da qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishsa, uning samimiyl qalbi sirlari sahifalaridan foydali marvaridlar yig'ishar, fozillarning mashhurlari qachonki, ul hazrat o'tirgan muborak gilamning bir chetida o'tirish sharafiga ega bo'lishsa, nozik fikrlar va nafis so'zlar gavharlarini terishar-

di [12, 33]". Davlatshoh Samarcandiy ham Xondamirning yuqoridagi fikrlarini tasdiqlagan hol-da "fozillarning maqsadi uning oliv majlisiga yetishishdir. Uning hamsuhbatlari xushta 'b, fozil kishilardir. Uning maqbul xotiri ahli dildan boshqasini istamas, og'ir tabiatlilar uning nazari-ga yengiltak bo 'lib ko 'rinar, balki noahillar uning latif majlislariga kirolmasdilar [9, 80]", deb ta'kidlagan. Binobarin, o'z davrining ziyoilari, adabiyot ahli Navoiy huzuridagi yig'inlarda qat-nashishga harakat qilishgan. Adabiyotshunos Atoullohu Husayniy ham o'zi yaratgan yangi she'riy san'atni, ya'ni "Aning har misrai bila qo 'shsalar, o 'shal she'r dan bir bayt hosil bo 'lur, lekin ma 'no va qofiyaga xalal bermaydigan" usul (she'riy san'at)ni Navoiy nazaridan o'tkazish niyatida edi. "Mundoq bir san'atni e 'tibor qilish ko 'pdan beri xotirimga aylanib yurar, ammo oni aytish yo 'li bandaga kelmas erdikim, hazrati xudovandgor (Navoiy) majlisiga erishmak navbati yetti va yaqinlik paydo bo 'ldi. Ul fikrni izhor ettim. So 'zim tugagach, o 'shul bilan ul hazrat davotu qalam tiladilar va badihatan bir ruboiy ayttilar:

*Ro'i tu zi ruxi osmoniy xushtar,
Qaddi tu zi sarvi bo 'stoniy xushtar,
La'li tu zi obi zindagoniy xushtar,
Nutqat zi hayoti jovidoniy xushtar.*

(*Tarjimasi: Sening yuzing osmon yuzida (quyoshdan) yaxshiroq, Qadding bo 'ston sarvidan yaxshiroq. La'ling hayot suvidan yaxshiroq; Nutqing abadiy hayotdan yaxshiroq.*)

Aksari zamona fozillariyu atoqlig ' xushta 'blardan bo 'lmish majlis ahli lol goldilar va taajjub barmog 'in tishlarig 'a oldilar[10, 49]".

Adisher Navoiy xonardonidagi oliy majlislarga Xurosonnning ulug' zotlari, yetuk shoirlar, taniqli ziyoililar qatnashganlar. Sulton Husayn Boyqaro ham bunday adabiy kechalarda ishtirok et-gani haqidagi ma'lumotlar bor. G'iyosiddin Xondamirning "Xulosat ul-axbor" nomli asari ma'lumotlariga tayanib, Alisher Navoiy majlisi nadim (suhbatdosh)lari nomlarini keltirib o'tsak, uning oliy yig'inlarida Abdurahmon Jomiydek zotlar qatnashgan. Ziyolillardan "Mavlono Muhammad Mu'in tabib adabiy majlis ahli jumlasidandir. Ul oljanob amir Alisherning iltifot va e 'tibori tu-fayli uning oliy majlislariga yo 'l topib, yaqin mahramiga aylangan". Mavlono Yusuf Badeiy "ta 'bi va zehnining nuqsonsizligi bilan ma 'lum, doimo oljanob, sulton hazratlarining yaqin do 'sti amir Alisher mulozamatida kun kechirgan [14, 58-79]". Mir Sarbarahna laqabli sayyid Shamsuddin Muhammad Andijoniyki, "fe 'lining xushligi, so 'zlarining muloyimligi, fahmining tezligi hamda zehnining 'tkirligi bilan zamon fozillari va davronning ziyrak kishilari orasida tamoman ajralib turgan. Hammavaqt so 'zları shirin va ma 'noli, hikoyatlari go 'zal, suhbatlari ajoyib va g 'aro-yib (bo 'lgan). Hayotining boshlarida ko 'p vaqt Movarounnahr mamlakatida ilm toliblari orasida kun kechirgan. Hirotg'a kelganidan keyin hidoyatli amir Alisher (Navoiy)ning inoyati va tarbiyati tufayli boshi Furqadondan yuqori bo 'lgan [14, 58-79]. Navoiyning ustoz va do 'stlaridan "Pahlavon Muhammad Abu Said "suhbatlari zavqli, nishonalari ajoyib, maqtashga loyiq axloqining va maqbul xulqining ortiqligi shubhadan xoli va tengsiz (bo 'lgan). Hamisha olhazrat xoqon (Sulton Husayn Boyqaro) majlislarida va oljanob sulton hazratlari yaqin do 'sti (Alisher Navoiy)ning yig'inlarida so 'zamollik bilan mashg 'ul (bo 'lgan), softa 'blik va tugal idroklik odam, ba 'zan yaxshi she'rlar va yoqimli muammolar ham bitgan [14, 58-79]". Majlis ishtirokchilaridan "Mavlono Burhonuddin Atoullohu xulqining yaxshiligi, fazilatining ko 'pligi, ta 'bining benuqsonligi, fahmu farosatining tezligi bilan zamondoshlari orasida mumtoz (bo 'lgan). Tabiatli ul janob (Mirxon) ning tabiatidan ustun bo 'lgani uchun olhazrat amir Alisher (Navoiy) uning so 'zlarini tinglagan va hazilomuz va mutoyibali gaplarni muborakbayon tillariga olardilar [14, 58-79]".

Oliy majlislarda turli mavzularda bahsu munozaralar bo‘lib turgan. Alisher Navoiyga bag‘ishlangan kitoblar ham taqdimot qilingan. “Xulosat ul-axbor”ga ko‘ra, “*olijanob, naqobatpanoh amir jamol ul-millat va-d-din Atoullohhim, diniy va yaqiniy ilmlar bo‘yicha zo‘r kamolot hosil qilgan, sharofatli hadis ilmini tahqiq qilishda shak-shubhasiz Xuroson diyorida unga teng keladi-gan yo‘qdir.*

Olijanob amirga bag‘ishlab, hazrati xayrulbashar amir Alisherning xislatlari haqida “Ravzat ul-ahbob” nomli kitob yozgankim, bundayini hali biron kishi yozmagan bo‘lishi kerak. Daryodil amir Alisher odil podshoh Sulton Husayn hukmronligining boshlaridan to shu kungacha ulug‘ va baland martabalik ul janob haqida ko‘p g‘amxo ‘rliklar qildikim, uzoq va yaqin, turku tojik bundan hayrat barmog‘ini tishlab turmoqdalar [14, 58-79]”.

Amir Burhonuddin Atoulloh “salim ta‘bi gulzorining yaxshi hidlari va mustaqim zehnidan esgan mushkinshior shabboda jon dimog‘ini muattar qilg‘uvchidir. Kasbu kamolotini oshirishda nihoyatda jiddu jahd ko‘rsatib, 902 (1497) yili bir necha oy mobaynida olijanob, sulton hazratlari yaqin do‘stining yig‘ilishlarida va’z aytdi va ul janob amir Alisher (Navoiy) uning qo‘lini olib, o‘zini o‘sha ifodatmaobning muxlislari safiga qo‘shdi”.

Adabiy majlis nadimlaridan “Mir Kamoliddin Husayn fazilati va donishmandligi, ayniqsa tasavvuf ilmida mashhur va ma‘ruf bo‘lgani uchun ko‘p yillardan beri hidoyatli amirning tamomi inoyat va iltifotiga sazovor (bo‘lib kelgan)[14, 58-79]. Mavlono Qutbiddin Odam “*vaqtu zamonning Jolinusi, davru davronning Buqroti edi, oliymaqom amir Alisher (Navoiy)ning zo‘r g‘amxo ‘rliyi va e‘tibori orqasida shon-shuhrat cho‘qqisiga qadam qo‘ydi* [14, 58-79]. Alisher Navoiy mulozimlaridan Amir Ibrohim Mashhadiy va Amir Shamsuddin Muhammad Ibn Amir Yusuflar amirning tarbiyati va muruvvatiga sazovor bo‘lib, xonaqoh va madrasalarda dars bilan mashg‘ul bo‘lganlar hamda adabiy kechalarda ham ishtirok etganlar. Majlis ahlidan “*Amir Ixtiyoruddin Hasan ta‘bining benuqsonligi, fahmu farosatining o‘tkirligi, axloqu odobining yaxshiligi bilan tengqurlaridan ajralib turgan. Xol-ahvoli fiqh va ilohiyot hamda insho ilmi bilan ziynatlangan, lavhiga olibhazrat amir Alisherning madh qilish, unga hamdu sano aytish yozilgan* [14, 58-79]”. O‘z davrining donishmandlaridan Amir Murtazo “*iste‘moldagi tamomi ilmlardan bahramand, hikmat va riyoziyat fanlari bo‘yicha esa tengi yo‘q olim*” bo‘lib, she’riyat kechalariga kelib turgan. Sayyid Raziuddin esa “*oliyhazrat amir Alisherning fayzga to‘la iltifoti bilan o‘sib*”, majlislariga qatnashgan. Majlis ahlidan bo‘lgan Amir Nizomuddin Mashhadiy esa fazilatpanoh amirning Ixlosiya madrasasi hamda Xalosiya xonaqohida ta‘lim olgan bo‘lib, oliy yig‘inlarda nadimlik qilgan. Mavlono Kamoliddin Husayn Vo‘iz “*ma‘qul va maxsus barchasidan to‘la naflangan va bahramand (bo‘lgan). Uning balog‘atoyonlik hamda fasohatsifatlik kitoblari ko‘p va behisob bo‘lib, ularning ko‘pi oliymaqom Amir Alisher (Navoiy)ning atoqli nomi bilan ziynatlangan. Amir Alisherning inoyat va iltifoti ul janobning hol sahifasiga hammavaqt tushib turgan* [14, 58-79]”. Mavlono Kamoliddin Husayn Vo‘iz Navoiy huzuridagi adabiy anjumanlarda ham har doim ishtirok etgan.

Temuriylar davrining yetuk olimlaridan Mavlono Fasihuddin Muhammad Nizomiyga “*qadimga dasturga binoan yana oliy yig‘inlarda va’z aytishga ruxsat berdilar. Ul janob buni mammuniyat bilan qabul qildi va har kuni sulton hazratlari yaqin do‘sti (Navoiy)ning ostonasiga borib turdilar va diniy masalalarni tahqiq qilish bilan band bo‘ldilar*”. U Alisher Navoiy oliy majlislarining nadimlaridan biri bo‘lgan. Shoirlar sultonining yaqin suhabatdoshlaridan “*Mavlono Darvishali tabibga nisbatan iltifot va inoyatlari, ko‘p muruvvat va stylashlari had-hisobsiz (bo‘lgan). Mavlono Darvishali muammo fanida ham mahorat egasi (bo‘lgan)* [14, 58-79]. U doimo Navoiyning muammo yechish majlislariga ishtirok etib kelgan.

Navoiyning do‘stu azizlaridan bo‘lgan “*Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy olijanobi-gi, baland martabaliligi, zehnining softigi, ta‘bining latifligi bilan mashhur (bo‘lgan), doimo fa-*

sohatli baytlar va balog‘at asarlik she’rlar yozib turgan. Uning qasidalari, g‘azallari va devoni mashhur (bo‘lgan), masnu’ot va maknunotlari xalq og‘zida mazkur (bo‘lgan)[14, 58-79]. Yigitligidan olighthazrat Amir Alisher (Navoiy) bilan uning o‘rtasida birodarlik va yaqin suhbatsoshlik munosabatlari mavjud bo‘lgan”. Suhayliy doimo Alisher Navoiy majlislariga qatnashib kelgan.

Adabiy majlislarda doimo ishtirok etib kelgan “*Amir Kamoluddin Husayn Ali Jaloyir fahmu farosatining tezligi, ta‘bining xushligi bilan sifatlangan, yaxshi xulqi va odobi bilan mashhur (bo‘lgan). Ajoyib qasida yozib, unga rangin ma’nolarni kiritgan (Majlislarda o‘qigan). Amir Alisher (Navoiy) ko‘p mehribonligidan uni farzand deb atagan [14, 58-79]”*. U doimo adabiy majlislarda qatnashib, o‘z qasidalarini o‘qigan. Mavlono Abdulla Jomiy esa “*zamonning yirik shoirlari, hamma davrning mashhur fazillari jumlasidan (bo‘lib), aziz vaqtining ko‘p qismini yoqimli masnaviyalar yozishga sarflagan*”. Abdulla Xotif Masnaviyo‘y shoirlar sultonining yig‘ilishlariga ham qatnashib kelgan [14, 58-79]”. “*Xulosat ul-axbor”da yozilishicha, “Mavlono Osafiy sog‘lom zehnining sofligi, mustaqim ta‘bining zukkoligi bilan zamonaning tamomi shoirlari hamda baland martabali fazillaridan mumtoz (bo‘lgan). Ko‘p vaqt olighthazrat amir Alisherning xos mulozimlari qatorida turgan”, mushoiralarida ham ishtirok etib kelgan [14, 58-79]*”. Mavlono Sayfiyning “*talaygina xos ma’oniylari hamda rangin she’rlari bor (bo‘lgan). Ko‘p vaqt Hirotda sokin va olivshon Amir Alisherning in’omu ehsonlaridan bahramand bo‘lib, oliy majlislarida o‘z she’rlarini o‘qib kelgan[14, 58-79]*”. Majlis nadimlaridan Mavlono Nizom Astrobodiy “*zamon qasidago ‘ylarining yetakchisi, olighthazrat amir Alisher (Navoiy) madhida ajoyib qasidalarini nazm ipiga tizgan va she’rlarini majlis ahli hukmiga havola etgan [14, 58-79]*”. Mavlono Ohiyning “*ravon baytlari va pokiza she’rlari ko‘p (bo‘lgan). Bu shoir ham Alisher Navoiy in’omlaridan bahramand bo‘lib, adabiy yig‘inlariga qatnashib kelgan*” [14, 58-79]”. Mavlono Shahob va Mavlono Asiriylar o‘z muammolari bilan Alisher Navoiyning muammo yechish majlislarida qatnashib, qobiliyatlarini namoyon etishgan. Mavlono Shamsiddin Muhammad Badaxshiy “*bag‘oyat xushsuhbat, shirin so‘z, xushchaqchaq, darvishvash, xush xulqlik, latifa‘b va fozil kishi (bo‘lgan). Ko‘proq muammo fanida katta mahoratga ega bo‘lib, qariyb 30 yil baxtu saodatga cho‘mib, olighthazrat Amir Alisher (Navoiy)ning mulozamatida kun kechirgan [14, 58-79]*”. Mavlono Shayx Abdulla Kotib “*qariyb 45 yil olighthazrat Amir Alisher (Navoiy) xizmatida (bo‘lgan) va ul hazratning suhbat va do‘stligidan to‘la bahramand bo‘lgan, doimo oliy majlisda mashhur fazillar va zariflar safida (turgan)*”. Mavlono Nizomiddin Abdulhay Tabib ham “*ko‘p vaqtini olighthazrat Amir Alisher (Navoiy) huzurida o‘tkazgan*”. Mavlono Shamsuddin Muhammad Nigoron “*ko‘p muddat va uzoq zamonlardan beri yordamini ayamaydigan Amir Alisher (Navoiy)ga ixlos qo‘ygan bo‘lib, uning mulozamatida kun kechirgan. Ul janob barcha zarur ilmlarni mutolaa qilib, doimo ulug‘ olimlar va hurmatli shoirlar qatorida majlis peshqadamlaridan biri bo‘lgan [14, 59]*”. Mavlono Kamoluddin Shoh Husaynning “*hol-ahvoli chehrasi fazilat va bilim bilan orasta, kamchilik va nuqsonlardan holi (bo‘lgan). Aqlu hushini yig‘ishtirib olgandan keyin Mavlono Shamsuddin Muhammad Badaxshiy vositachiligi bilan olighthazrat Amir Alisher (Navoiy)ning mulozamatiga yetishgan va ta‘bining sofligi, zehnining o‘tkirligi tufayli uning iltifot va inoyatiga manzur bo‘lgan. Ul hazrat Amir Alisher (Navoiy)ning maxsus xodim (majlis nadim)lari qatorida turgan [14, 58-79]*”. Alisher Navoiy oliy majlisi nadimlaridan Mavlono Fasihuddin Sohibdoro, “*fe‘l-atvori va xulqining yaxshiliqi, ta‘bining muloyimligi, zehnining tozaligi bilan olighthazrat Amir Alisher (Navoiy) mulozimlarining mumtozi (bo‘lgan). Ajoyib qasidalar nazm qilishda, muammolar aytishda balog‘atli va tengi yo‘q (bo‘lgan). (Oliy majlislarda) Nadimlik shevasini hamda suhbat qurishni yaxshi bilgan [14, 58]*”.

Alisher Navoiy majlislarida yangi she’rlar, g‘azallar, qasidalar o‘qish barobarida, xonandalar tomonidan Husayniy, Jomiy, Navoiy kabi shoirlar she’rlari bilan aytildigan qo‘schiqlar ijro qilin-gan. Xonanda va sozanda ahlining ko‘pchiligi hamisha Alisher Navoiyning mulozamatida bo‘lib,

adabiy kechalarida xizmat qilganlar. “Xulosat ul-axbor”ga ko‘ra, Hofiz Qozoq “yoshi ulg‘ayib, oqu qorani ajratadigan bo‘lib qolganda, Alisher Navoiy xizmatiga kirgan va uning diqqat-e‘tibori orqasidan qonun chalishda tengi yo‘q kishiga aylangan. Yaxshi ovozi bor (bo‘lgan). (Majlislarda) Kattayu kichik uning sozi va ovozini eshitib, ko‘p xushhol bo‘lganlar[14, 60]”. Ustod Sayid Ahmad “xushchaqchaq, xushsuhbat va shirin so‘z kishi bo‘lib, g‘ijjakni yaxshi chalgan[14, 62]”. Ustod Shohquli “ham g‘ijjakchi bo‘lgan. Sulton Husayn xizmatida martabasi baland bo‘lib, yoshligida olighthazrat Amir Alisher Navoiy xizmatida bo‘lgan va ul sohib farosatning ishorati bilan ud va boshqa musiqa asboblarini mashq qilgan, qisqa vaqt ichida buni to‘la egallab olgan. Chunonchi, bir kuy tasnif etdikim, peshravi purkordir. Uning sozandalik va xonandalik shuhrati olamning tevarak-atrofiga yoyilgan. U Navoiy oliy majlislarida ham ud, qo‘biz va g‘ijjakni g‘oyat ustalik bilan chalgan [14, 60]”. Ustod Husayn “bolaligidan to yigitligi boshlarigacha sulton hazratlarining yaqin do‘sti Amir Alisher (Navoiy)ning ostonasida bo‘ldi va ul hazratning ko‘rsatmasiga binoan, ud chalish bilan mashg‘ul bo‘ldi va qisqa vaqt ichida bu fanda to‘la mahorat hosil qildi. Udni yaxshi chalgan, ovozi ud ovoziga nihoyatda mos bo‘lgan [14, 58]”. Alisher Navoiy badiiy kechalarida xizmat qilib kelgan Ustod Shayxiy Noiy “yoshligidan Amir Alisher (Navoiy)ning xizmatiga yetishib, oliy majlislariga ishtirok etib kelgan [14, 58-79]”. Oliy majlis ahlidan bo‘lgan Qozi Mas’ud Qumiyy esa “Iroqi Ajam ulug‘laridan edi. Mansur Hoqon zamonida tug‘ilib-o‘sgan vatani Qumdan Hirotg‘a kelib, Amir Nizomiddin Alisher (Navoiy) xizmatlarini ixtiyor qilgan. Ash‘or nazmida mahoratlil bo‘lgani uchun mansur hoqon (Sulton Husayn Boyqaro) o‘zining ahvolini nazm ipiga terishni unga havola qilgan. Xoja bu borada ikki mingga yaqin baytni bayon tizimiga kiritgan. “Yusuf va Zulayho”, “Munozarai shams va qamar”, “Tig‘ va qalam” qissalari ham uning manzumalari jumlasidandir. Bu matla‘ qozi Mas’ud Qumiyning g‘azallar devonidan joy olgan. Bayt:

*Sensiz yig‘layverib uyqu eltadir,
Tush ko‘ribmankim meni suv eltadir [13, 1077].*

Alisher Navoiy “Soqynoma”ning XXI bobidan boshlab, majlisining marhum va barhayot nadim-do‘stlari haqida so‘z yuritgan. XXII, XXIII, XXIV, XXV boblari Jomiy, XXVI bobi Sayyid Hasan, XXVI bobi esa Muhammad Pahlavon xotirasiga bag‘ishlangan. XXIX-XXXI boblarda esa shoir marhum hamsuhbatlari Piri Muammoiy, Xoja Kamol, Mir Saidlarni xotirlagan. U shuningdek “Soqynoma”da majlisida ishtirok etib kelayotgan nadim – do‘stlarini tilga olgan:

*Soqyo do‘stlig‘ni ko‘rguzgil,
Do‘st koni qadahi yetkuzgil.
Kim kirar do‘stlarim yodimg‘a,
O‘t solur xotiri noshodimg‘a...
Biris Piri Muammoiy edi,
Kim haram bodiya paymoysi edi.
Yana biri nag‘mazani sohibhol,
Ham aning hamqadami Xoja Kamol.
Mir Sadr o‘zni tutub ahli vifoq,
Lek ko‘p erdi bade ‘ida nifoq.
Yor Tanbal edi sofу beg‘ash,
Zoti xush, hay‘ati xush, nuktasi xush.
Yana bir Olimi Sabzavoriy edi,*

*Kim maoniy duru guftori edi.
Har bir o'z tavrida beshibhu nazir,
Bordilar borchu – ne aylay tadbir...
Kim agar bordilar andoq as 'hob,
Yana jam'i ham erurlar ahbob.
Birisi Mir Atoiy yanglig',
Biri Darvesh Fanoiy yanglig'.
Ul biri ilm sipehri uza mehr,
Bu biri fazl quyoshida sipehr.
Ixtiyor ulki, erur nozuk tab',
Lutf maydoni aro chobuk tab'.
Osafiy ulki, ne nazm etsa raqam,
Qiymati mulki Sulaymondur kam.
Yana bir keldi Binoiyki funun,
Kasbida aylamadi man'i junun.
Yana bir dardu g'amim Ogohi,
Hamdamim, Yori Ziyoratgohi.
Yana bir Mashhadiy – ul dahrda toq,
Pok tahriru karimul-axloq.
Bir Shafe'iduru ul pok sifot,
Kim muammoza chiqarmishdur ot.
Birisi shorobi jomi tahqiqi,
Munisu rahbaru g'amxoru rafiq.
Yana Devonai Kotibki, xayol,
Tushsa, har g'amg'a qilur daf'i malol.
Yana ham bir nechadurlar goh-goh,
Lutf ila barchadin o'lsun ogoh.
O'zgasin qilmadim ondin mazkur,
Kim majolisda erurlar mastur.
Gar alar tutti esa dashti adam,
Shukr, bu xayl erurlar hamdam [5, 435-437].*

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida ham Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy adabiy majlislari ishtirokchilari nomlari zikr etilgan:

1. *Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Husayn Mirzo, Shohg'arib Mirzo, Muhammad Husayn Mirzo, Faridun Husayn Mirzo, Ibrohim Husayn Mirzo, Muhammad Mo'min Mirzo (va boshqa shahzodalar);*
2. *Abdurahmon Jomiy, Sayyid Badr (raqqos), Shayximbek Suhayliy, Hasan Ali Jaloyir, Xoja Abdulla Marvorid, Sayyid Hasan O'g'loqchi;*
3. *Mir Sarbarahna, Kamoliddin Husayn Gozurgohiy, Mir Murtoz, Mullo Mas'ud Shervoni, Mullo Abdulg'afur Loriy, Mir Jamoliddin Muhaddis;*
4. *Mir Atouollo Mashhadiy, Qozi Ixtiyor, Muhammad Mir Yusuf, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy;*
5. *Sayfij Buxoriy, Abdullo Hotify, Mir Husayn Muammoiy, Mir Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy;*
6. *Muhammad Solih, Shoh Husayn Komiy, Hiloliy, Ahliy, Sulton Ali Mashhadiy, Behzod;*

7. *Shoh Muzaffar, Qul Muhammad Udiy, Shayxiy Noiy, Shohquliy G’ijjakiy, Husayn Udiy, G’ulom Shodiy, Mir Azu, Pahlavon Muhammad* (kabi shoirlar va san’at ahli [7, 146-147]).

Navoiy oliv majlislarning asosiy xususiyatlardan biri bu albatta unda birinchi navbatda mu-shoirlar, she’rxonliklarni tashkil qilinganligidir. “*O’tmish adabiy jarayonida mushoiralar muhim o’rin tutadi, yana ham aniqrog’i, o’tmishda adabiy jarayon ko’proq mushoira (she’r majlisi, shoirlar anjumani) shaklida kechgan. Mushoiralarda shoirlar o’z asarlarini taqdim etish, ular haqidagi o’zgalar fikrini bilish, shuningdek, boshqa shoirlar bilan ijodiy fikr almashish, hamkorlik qilish imkoniga ega bo’lganlar. Mumtoz adabiyotimizdagi bir qator janrlar, ayrim she’r san’atlarining yuzaga kelishi bevosita mushoiralar bilan bog’lanadi: ularning bir qismi mushoira ishtirokchilarining bir-birlariga javob aytishi (tazmin, taxmis), boshqa bir qismi she’riy musobaqa (muammo, chiston, badiha) ruhi bilan bog’liq holda vujudga kelgan. Mushoiralar dastlab san’at va adabiyotga mehr qo’ygan podsho saroylarida, ijod ahliga homiylik qilgan badavlat kishilar xonadonlarida o’tkazilgan. Xususan, Husayn Boyqaro saroyi va Navoiy xonadonida o’tkazib turilgan mushoiralar davr adabiyoti taraqqiyotining muhim omillaridan bo’ldi [8, 210]*”.

Albatta, Navoiy huzuridagi oliv majlislarda olimu adiblar va shoirlar yangi asarlari muhokama qilingan va bu borada shoirlar sultonni maslahatlariga qulqoq tutilgan: “..Va o’ttuz yildin ortuq va qirq yilga yaqindurkim, Xuroson mulkikim, fazlu kamol ahlig‘a olam mamalokining misri muazzami va savodi a’zamidur, bu mulkning jami’ nazm ahli shuaroyi shirin kalomi va fusahoyi vojibul ihtiromi har ne, har ma’ni bilakim, avroq yuziga oroyish va har alfoz bilakim ajzo izorig‘a namoyish beribdurlar, bu faqir(Navoiy) suhbatig‘a yetkurbedurlar va bu zaif ollinda o’tkaribdurlar va haq va isloh iltimosin qilibdurlar va xotirg‘a kelg‘on nuktaki aytilibdur, insof yuzidin musallam tutubdurlar va gar ba’zi ibo qilibdurlar daloyil bila alarg‘a xotir nishon qilibdur, andin so’ngra qabul qilib, o’zlarin shokir va mammun bilibdurlar [3, 79]”.

Zayniddin Vosifyning “Badoe ul – voqoe”sida keltirilgan quyidagi voqeadan Navoiy huzuridagi oliv majlislar mazmuni ma’lum bo’ladi: “Mir(Navoiy) ovoz berdilar:

– Azizlar (majlisga) kiringlar. Hech eshitmagan va xayolingizga kelmagan maqolatlardan eshitinqlar!

Hamma jim bo’ldi. Mir Hofz G’iyosiddin Dehdorga dedi:

– Lofu da’vo qilding. Endi izhorini qil!

Hofz avval Qur’ondan ashara o’qidi. Majlis ahlining hushini oldi. Keyin g’azal o’qidi. Ashula boshladi – do’stu dashmani uning ovoziga ofarinlar o’qidi. “Amir Hamza” qissasini boshladi. Keyin o’zi aytgan bir dostonni o’qidi va majlis ahli hushi yo’qoldi. Uni tugatib “Abomuslim” qissasini o’qidi – hammani sehrlab qo’ydi. Majlis oxirida “Dorob” qissasini boshladi. Bog’bon bilan uning g’ulomi shu yerda turishgan edi. Ularning taqlidini qilib hammani quzdirdi, ba’zilarga shunday ta’sir qildiki, kulaverib yumalab qoldilar.

Har kim har ilmdan bahs qildi. Bularga ham javob qildi. Hammadan g’olib keldi... Keyin Mir (Navoiy)ning buyrug’i bilan o’n besh qo’y keltirdilar. Boshqa kerakli asboblar ham keragicha hozirlandi. Hofz tabbohlik qildi. Ovqati hammaga yoqib tushdi[11, 99].

Zayniddin Vosifyning o’zi ham Navoiyning adabiy majlislarida ishtirok etgan: “*Oliy majlis (Navoiy xonadonidagi yig’inlar nazarda tutilmoqda-muallif)ga kirib bordik. Majlis ahli va hazrati Mir(Navoiy) o’z nadimlari bilan hozir ekan. Janobi Mir biz tomon qaradilar. Faqirga (Vosify)ga ishora qilib, nomini aytmay o’qilgan muammoni yecha (Vosify) oladigan do’stimiz shu kishimi, dedilar. Mavlono Sohibdoro: bali, o’sha maxdum deb javob berdilar. Mavlono Muhammad Badaxshiy suhbatga aralashdilar: “Maxdumlar, xudavandigoro, muammo yechishda Sizdan o’tadigani yo’q-ku?...” Mir dedilar: “Men uning muammo yechishini ko’zidan bildim. Zero, uning fikrlari ko’zlarida zohir bo’lib turibdi. – Keyin shu muammoni o’qidilar:*

*Bog 'ro bin az xazon befarru, sarv az jo shuda,
Bulbulash barham zada minqoru, nogo 'yo shuda.*

(Mazmuni: *Bog 'ini ko 'r, xazonrezlikdan ko 'rki qolmabdi, sarv o 'rnida yo 'q, bulbulning tum-shug 'i yo 'q bo 'lib, kuylashdan qolibdi*).

Mir (Набою) о 'qigan muammoni men yod bilardim. O 'ylanib qoldim: nomini aytib, o 'zimni go 'llikka solib, majlisni o 'tkazaversammi yoki to 'g 'risini aytayinmi? Oqibatda rostini aytishga ahd qildim.

Hazrati Mir (Navoiy) boshlarini egib turdilarda, yonidagilarga, azizlar, bilasizlarmi, buning so 'zi ne ma 'noni bildiradi. O 'z qudratini izhor etib, bunisini bilaman, boshqasini aytинг, demoq-chi, biz buning da 'vosini qabul qilurmiz, dedilar [11, 99]" .

Oliy majlis ishtirokchilaridan bo 'lgan G 'iyosiddin Xondamir "Xulosat ul-axbor"da uning o 'zi ham Navoiy majlislarida hikoyatlar aytganini yozib qoldirgan: "Ulug ' amir, hidoyatpanoh, karomatli Ruhning muayyidi (aksi), so 'fiysifat, sof niyatli ro 'zgor pokizasi, musulmon marosimlarini ulug 'lovchi, saltanat ustuni va mamlakat tayanchi, hoqon davlatining ishonchli kishisi, sultonning yaqini, ulkim, saxovat dasturxonidan barcha muhtoj to 'q, haq va haqiqatu din nizomi Amir Alisher (Navoiy)ning sharif majlisida hikoyatlar so 'ylar edim. Ul janob mening hikoyatlarimdan zavqlanar edilar va hazratning turli inoyatlari bu qanoti siniq banda ahvoli ruhiyatiga issiqlik baxsh etardi. Kundan-kunga bu hol ko 'payar va soat sayin yuksaklikka ko 'tarilar edi".

Navoiy huzurida bunday yig 'inlar tez-tez tashkil qilingan. Biz keltirgan misollar dengizdan bir tomchi, xalos.

Xo 'sh, Navoiy huzuridagi adabiy majlislarda qanday she 'rlar o 'qilgan, degan savol tug 'iladi.


Manbalar Navoiy she 'riyat kechalarida badihalar (ruboilar, qit 'alar), tatabbu 'lar (boshqa shoirlar she 'rlariga naziralar, payravlar, o 'xshatmalar), yangi qasidalar va yangi g 'azallar, ayrim hollarda ta 'rixlar va marsiyalar, muammolar, lug 'zlar, hikoyatlar, qissalar (masnaviyalar ko 'rinishida) o 'qilganidan dalolat beradi

Alisher Navoiy xonardonidagi yig 'inlarning Husayn Boyqaro oliy majlislaridan farqi shundaki, Navoiy sinovidan o 'tgan shoiru hofizlar, qissaxonu, qasidago 'ylar, muammo ilmida tengi yo 'qlar, boringki, turli xil sohadagi yuksak iste 'dod sohiblari podshoh oliy majlislariga tavsiya qilingan. O 'z navbatida aytish lozimki, Navoiy adabiy majlislari o 'z davri adabiyotining rivojida, shoirlar kamolotida muhim o 'rin tutgan.

Foydalaniman adabiyotlar ro 'yxati:

1. Alisher Navoiy. *To 'la asarlar to 'plami. 1 – 10 jildlar.* T: G 'ulom nomidagi NMIU. 2012.
2. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to 'plami. Yigirma jildlik.* 1 – 20 jildlar. – T: Fan. 1983 – 2003.
3. Alisher Navoiy. *Muhokamatu-l-lug 'atayn. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini.* – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.79.
4. Alisher Navoiy. *Asarlar. Majolis-un-nafois.* T. Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – B. 435-437.
5. Alisher Navoiy. *Asarlar. O 'n besh tomlik.* To 'rtinchi tom. T. Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – B. 435-437.
6. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub.* – Toshkent: Yangi asr avlod, 2019. – B.20-24.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma.* T.: Yulduzcha, 1990.– B.146-165.

-
8. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. *Adabiyotshunoslik lug‘ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.210.
9. Ahmedov B. *Davlatshoh Samarcandiy*. – Toshkent: Fan, 1967. – B.79-80.
10. Atoullohu Husayniy. *Badoyi‘u-s-sanoyi’*. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1981. – B.49.
11. Zaynidin Vosify. *Bade‘ul vaqoe’*. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. T: G‘.G‘ulom NMIK – 1979. – B.216.
12. G‘iyosiddin Xondamir. *Makorim ul-ahloq*. T: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU – 2015. – B.208.
13. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. *Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar*. T.: O‘zbekiston, 2013. – B.1077.
14. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1985. – B.224.
15. Davlatshoh Samarcandiy. *Shoirlar bo‘stoni*. (“Tazkirat ush-shuar” dan). Fors – tojik tili-dan B.Ahmedov tarjimasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1981. – B.188-197.
16. Davlatshohi Samarcandiy. *Tazkiratu-sh-shuar*. Xo‘jand: Noshir, 2015. – S.544.
17. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. *Manbalarning qiyosiy-tipologik tekstologik tahlili*. T: “Akademnashr” – 2011. – B.326.
18. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari. – Qarshi, “Qashqadaryo ko‘zgusi OAV”, 2019. – B.180.
19. Qorayev Sh. Navoiy majislari. -Toshkent: Lesson – Press, 2020. – B.312.
20. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). – Toshkent: Donishmand ziyozi, 2021. – B.262.
21. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. – Qarshi, Intellekt, 2023. – B.262.



XOLIYOR SAFAROV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

O‘ZBEK JADID HIKOYACHILIGINING TADRIJIY TAKOMILI

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek hikoyachiligining tub ildizlari, shakllanishi va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati, o‘zbek ma’rifatparvarlarining o‘rnini va roli tadqiq etilgan. Hikoya to XIII asrgacha, asosan, xalq kitoblari, afsonalari zamirida yashab kelganligi, keyinchalik hikoyat, rivoyat, qissa, masal shaklida takomillashib borganligi va jadid yozuvchilarini tomonidan taraqqiy etganligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, jadid, millat, erk, ijtimoiy hayot, milliylik, jaholat, ma’rifat.

Abstract: The article examines the roots of Uzbek storytelling, its formation, the revolutionary movement that arose in Turkestan at the beginning of the 20th century, and the place and role of Uzbek enlighteners. It was considered that until the 13th century, the story lived mainly in the heart of folk books and legends, and then it was improved in the form of stories, narratives, short stories, and parables, and was developed by modern writers.

Key words: history, jadid, nation, freedom, social life, nationality, ignorance, enlightenment.

O‘zbek nasri ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, hikoya janri o‘zining tarixiy ildizlari bilan o‘zbek folkloriga, aniqrog‘i, xalq rivoyat va hikoyat, ertaklariga borib taqaladi. Zero, xalq og‘zaki ijodi adabiyotning mustahkam ildizi, asl qon tomiridir. “Tarixda birinchi yaratilgan nazm asarini aniqlash qanchali qiyin bo‘lsa, dastlabki yaratilgan nasriy asarni aniqlash ham shuncha qiyin”. Adabiyotshunoslar dastlabki mif va ertaklar xalq tomonidan yaratilganligini inobatga olib, adabiyot nasr bilan boshlangan, degan fikrni ilgari surishadi. Bunda ma’lum bir voqe-hodisani so‘zlab, hikoya qilib berish birlamchi hisoblanadi.

Hikoya to XIII asrgacha, asosan, xalq kitoblari, afsonalari, latifalari shaklida, ularning zamirida yashab keldi. Keyinchalik u yangi unsurlar bilan boyidi. Bunga misol tariqasida Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida keltirilgan hikoyalarni keltirish mumkin. Ularda payg‘ambarlar, avliyolar hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ilohiy vogeliklar yetakchilik qiladi. XV asrga kelib, hikoyachilik masal shaklida namoyon bo‘ldi va Yaqiniyning “O‘q va yoy”, Yusuf Amiriyning “Chog‘ir va bang” kabi asarlari maydonga keldi. Majoziy obrazlar orqali davr muammolarini, jamiyatdagi hukmron kishilarning johillik va yovuzliklarini, ma’naviy qiyofasini ochib tashlandi. Hikoyat, rivoyat, qissa, masal shaklidagi ilk unsurlar sekin-asta takomillashib bordi. Bunday yondashuv Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi mulki Ajam”, “Mahbub ul-qulub” asaridagi hikoyatlarda ham ko‘zga tashlanadi. Navoiy nasrining yuksak namunasi hisoblangan “Mahbub ul-qulub”da jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarning ma’naviy qiyofasi real gavdalantirilgan va umumlashma obrazlar yaratilgan. Hatto hukmdorlarning xalqqa yetkazgan zulm va qabohatlari ro‘yrost ko‘rsatilgan. “Navoiy adabiy merosida nasriy tasvirning shuncha ko‘p muhim xususiyatlari mavjudki, shu asosda biz uni o‘zbek nasrining ham asoschisi deb bemalol ayta olamiz” [1. 10].

Alisher Navoiy “Xamsa” dostonida masnaviy imkoniyatlari bilan hikoyaning mumtoz namunalarini yaratdi, deyish mumkin. “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr” asarlaridagi hikoyalar bir muncha o‘ziga xos bo‘lib, ularning asosida ham xalq afsonalari yotadi” [2. 3]. Masalan, “Sab’ayi sayyor” Sharqda mashhur bo‘lgan “Ming bir kecha”dagi “ertak ichida ertak” an’anasiga tayanilgan holda “hikoyat ichida hikoyat” shaklida yaratilgan. Asarda dastlab Bahrom va Dilorom hikoyasi berilib, oraga yetti shahardan kelgan yetti musofir hikoyasi kiritiladi. Keyin yana Bahrom – Dilorom hikoyasiga qaytiladi. Asarning o‘q ildizi bo‘lgan Bahrom va Dilorom hikoyasi asarda qoliplovchi vazifasini bajaradi. “Xamsa” tarkibiga kirgan “Saddi Iskandariy”da esa Iskandar Zulqarnaynning hayoti, sarguzashtlari bilan bog‘liq xalq afsonalari yotadi. Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni bo‘lgan “Hayrat ul-abror”da esa she’riy hikoyaning 20 ta go‘zal namunalarini ko‘ramiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari garcha muallif – roviy tilidan bayon etilgan avtobiografik xarakterdagi voqealar majmui bo‘lsa-da, unda ham hikoya qilingan kichik voqeliklarga duch kelamiz. Masalan, Bobur asar boshida 1493-yil voqealarini bayon qilar ekan, Kandibodom haqida to‘xtalib, u yerning bodomi yaxshi bo‘lishini aytadi va geografik o‘rnini tasvirlay turib, Hodarvesh shamoli haqidagi go‘zal bir hikoyani keltiradi. *“Xo‘jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Hodarveshg‘a mavsumdur. Hamisha bu dashttta yel borur. Marg‘inong‘akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo‘jandg‘akim g‘arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor. Derlarkim, bir necha darvish bu bodiyada tund yelga yo‘luqub, bir-birini topolmay, “Ho, darvesh”, “Ho, darvesh” dey-dey halok bo‘lubturlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar”* [3. 8]. Abdurauf Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidalari” risolasida asarning tulishi, mundarijasi, tabiiyligi haqida fikr yuritib, eski yozuvchilarning asarni “andoq rivoyat qilurlarkim” [4. 25], shaklida boshlashmini aytgan edi. Shunga asoslanadigan bo‘lsak, “Boburnoma”dagi ushbu voqeanning ham “Derlarkim” tarzida bayon qilinishini inobatga olib, hikoyaning o‘rtasidagi bir elementi sifatida qarash mumkin. Bundan tashqari, “Boburnoma”ning 1503-1504 - yillar voqealarini bayon qilingan bo‘limida ham Nijrov tog‘larida yashaydigan, mushukdan yirikroq bo‘lgan parranda – “ro‘bai parron” haqida hikoya qilar ekan, *“Derlarkim, yig‘ochdin-yig‘ochg‘a nishebga boqa bir gaz otimi uchar. Men xud uchqonin ko‘rmadim. Yig‘ochg‘a qo‘yduk, sust yormashib chiqti, andin quvladilar, qanotini yoyib, uchqandek etib, beozor tushti”* [3. 123], deydi. Ahamiyatlisi shundaki, Bobur asarda o‘rtasiga xos bo‘lgan jimmimador uslubdan ko‘ra, xalqona hikoya uslubini tanlagan va ravon til bilan qisqa, ixcham jumlalar tuzgan. Bu esa Boburning o‘ziga xos realistik uslubini namoyon etgan. Ko‘rinib turibdiki, til asarning o‘ziga xosligini ta’minlaydi va xalq orasida ommalashishi, ardoqlanishiga xizmat qiladi.

Hikoyachilik XVI asrga kelib, yangi bir bosqichga ko‘tarildi va o‘ziga xos mazmun, qiyofa kasb etdi. “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”) va “Gulzor” asarlari muallifi Xoja (Poshshoxoja binni Abdulvahhobxoja) o‘zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib, nasriy hikoya janrining taraqqiyetishiga katta ahamiyat berdi. 1508-1510-yillarda yaratilgan “Miftoh ul-adl” va 1538-yilda yozilgan “Gulzor”dagi hikoyatlar va xalq afsonalaridan ulgi oldi. Xoja hikoyalarining syujeti sodda va qiziqarli, qahramonlari obrazlari yorqin ishlangan. *“Hikoyalarning aksariyati tarixdan, xalq og‘zaki ijodidan olingen bo‘lib, tasvir uslubi ko‘p o‘rinda traditsion shartli xarakterga ega”* [1. 13]. Xoja asarni mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, fasllarga bo‘lishi, har bir faslda uning mazmuniga xos hikoyatlar berishi va hikoyatga axloqiy – didaktik voqelik va she’riy misralarni kiritishi XIII asrda yashab o‘tgan shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari shaklini eslatadi. Shuning uchun ham ular yagona syujetga ega bo‘lmay hikoyatlar turkumidir. Har bir hikoyat tugun, voqe va tugall yechimdan iborat. Mazkur manbalardagi didaktik unsurlar hikoyachilikning tadrijiy takomili uchun xamirturush vazifasini o‘tadi. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an’analari, vorislik,

adabiy ta'sir muammolarini o'rgangan Muqaddas Tojiboyevaning fikrlariga ko'ra, "Muslihiddin Sa'diyning pand-nasihat ruhidagi hikoyalari va she'riy aforizmlar majmuasi bo'lgan "Guliston" asari asrlar mobaynida mumtoz janrning "barjastasi" sifatida yuksak axloqiy-ta'limiy sarchashma maqomida o'zbek kitobxonlari qalbiga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, bundagi ibratli lavhalar adib olamining ko'rkan namunasi sifatida badiiy adabiyotga teran kirib bordi va yangi badiiy asarlarning yaratilishi uchun g'oyaviy-ma'naviy sarchashma bo'lib xizmat qildi" [5. 172].

Ta'kidlash kerakki, bunday kichik hajmli hikoyatlar, chuqur mazmunli masallar Sharq adabiyotida ham, o'rtas asr va uyg'onish davri Yevropa adabiyotida ham keng tarqalgan edi. O'tmish ajodlar hayotidan ibratli voqeliklarni hikoya qiluvchi bunday kichik hikoyalar aslida nihoyatda katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, kitobxonlarga biror g'oya yoki axloqiy ta'limni obrazli tushuntirishda muhim vosita hisoblangan. Bu an'ana XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yashab o'tgan Gulxaniyning "Zarbulmasal"ida ham o'z ifodasini topdi. "Gulxaniy hayotda bor real tuyg'ularni ifodalashga intilgani uchun jonli xalq tilida yaratilgan maqollardan samarali foydalana olgan" [6. 22]. Juhon adabiyoti durdonalaridan hisoblangan "Kalila va Dimna" bilan yonma-yon qo'yilgan ushbu asar majoziy usul bilan o'z davridagi ijtimoiy tabaqa vakillarining obrazlarini, xarakter xususiyatlarini, ruhiyatidagi ochko'zlik, maqtanchoqlik, mag'rurlik, ta'magirlilik, laganbardorlik kabi illatlarini qushlar tilidan, xalq maqollarini keltirish orqali fosh etadi. Shundan ko'rindaniki, Burhoniddin Rabg'uziy, Amiriy, Yaqiniy, Gulxaniy va Xoja asarlarida nasrning muhim unsurlari bo'lgan syujet, voqeanning izchilligi, tugallanganligi, obrazlar xarakteri va portretini yaratish, konflekt, yechim o'z ifodasini topgan. Hikoya usulida "andog" aytiburlarki", "naql borki", "ayturlarkim", "kunlardan bir kun" kabi boshlanishlardan foydalanish o'zbek hikoyasining genezesi va tadrijiy takomilini namoyon etdi. Bu jarayon xalq og'zaki ijodidan o'sib chiqqan kichik nasriy janrning mif, ertak, hikoyat, munozara, masal va hikoya ko'rinishida milliy shakllanishini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, jadid hikoyachiligi birdan chaqmoq kabi paydo bo'lib qolmadidi. Xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish va ijodiy an'analarni tahlil qilish, ma'lum ma'noda o'zlashtirish natijasida asrlar davomida an'ana bo'lib kelgan nazmiy uslub, masnaviy shakldan nasrga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshdi. Mahmudxo'ja Behbudiy harakatda qanchalik yetakchilik qilgan bo'lsa, adabiy jarayonda ham karvonboshilikni o'z qo'liga olgan edi. Dastlab, u usmonli turkchadan "Bir vafolik zaifani xususida hikoya" tarjima qilib, 1903 yilning 15-oktyabridan to 1904-yilning 3-fevraligacha "Turkiston viloyatining gazetasi"da e'lon qilgan bo'lsa, 1909-yilda asli xitoy adabiyotidan olingan "Oq yelpog"ichli chinli xotun" hikoyasini taqdim etib, jadid namoyandalari orasida birinchilardan bo'lib, adabiyotga nasr havosini olib kirdi. Oradan besh yil o'tib, 1914-yilda Abdulhamid Cho'lpox "Qurbanji jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor", "Bahor avvallari", 1915-yilda Abdulla Qodiriy "Juvonboz", "Uloqda", Munavvarqori Abdurashidxonov esa "Bizda hamiyat" nomli hikoyalarni yaratdi. Shu tarzda o'zbek hikoyachiliqning tamal toshi qo'yilib, shakl va mazmun, g'oya uyg'unlashdi. Xalqaro tajribalar ham egallana boshlandi. Abdulla Qodiriy vaziyatni inobatga olib, "Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'yidik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz" deya bong uring, adabiy shakllarni yangilashga, millatni zamonasining yangi adabiy namunalari bilan tanishtirishga bel bog'lab, "o'zimizda majburiyat his etamiz" dedi.

Akademik Naim Karimov tadqiqotlarida ham jadidchilik XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonga yetib kelgan taraqqiy parvar gazetalar orqali yoyilgani e'tirof etiladi. Xususan, 1906-yilning 27 - iyunida dunyo yuzini ko'rgan "Taraqqiy", keyinchalik tashkil etilgan "Xurshid", "Shuhrat", "Samarqand", "Oyna", "Sadoyi Turkiston", "Najot", "Inqilob", "Bilim o'chog'i", "Sharq chechagi", "Tong", "Mash'ala", "Farg'ona", "Qizil bayroq", "Maorif va o'qitg'uvchi", "Ishtirokiyun", "Turkiston" kabi gazeta va jurnallar M.Behbudiy, M.Abdurashidov, A.Qodiriy,

A.Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Botu, Said Ahroriy, Shokir Sulaymon singari bir qator qalbi qaynoq, tiynati o'tkir yoshlar millatni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti, ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan tanishtira boshladи. Jadidlarning so'zda, fikrda, ishda birlik g'oyasi va maqsadda sobitlik tamoyili ayni shu davrda yuzaga kelgan edi. Bu shiddatli jarayonda Abdulla Qodiriy "Mushtum" jurnali mualliflariga yozgan murojaati misolida "*Yaxshi bilish kerakki, qalam o'qlog'i va matbuot ketmon bozori emas. Yo'sunsiz ravishda xotirg'a kelgan har bir so'zdan jumlalar to'qimoq fazilat sanalmaydi. So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin!*" [7. 186] – deya ta'kidlab, boshqa ijodkorlarga ham yo'l ko'rsatgan, deyish mumkin. Xuddi shu yillarda Rossiya, Turkiya va Eronda sodir bo'lgan inqilobiy voqealar, Kavkaz, Volgabo'yi, Turkiyadagi jadidchilik an'analari haqidagi xabarlar ham shu nashrlar orqali Turkistonga yetib kelgan.

Jadid adabiyoti aynan mana shu jadidchilik harakatining targ'ibot vositasini o'laroq vujudga keldi. O'zbek jadid hikoyalari namunalari birin-ketin o'sha davr matbuotida e'lon qilina boshladи. Abdulla Qodiriy tatarcha gazetalarni o'qib, shu yillarda o'zbek tilida chiqa boshlagan "Oyina", "Sadoyi Turkiston" gazetalariga xabar yozib turgani, "yana shu yilda tatarlarda chiqib turgan hikoya va romanlarga taqlidan "Juvonboz" otliq hikoyachani yozib, noshir topilmaganidan o'zim nashr qilib yubordim" [8. 18], deb yozadi. Mana shuning o'ziyoq matbuotning naqadar ulkan kuch ekanligidan va ma'rifatparvar yoshlarning tezroq maydonga chiqishiga ko'mak bergenligidan dalolatdir. "Juvonboz" hikoyasi nafaqat adib ijodida, balki Fitrat, Cho'lpon hikoyalari kabi butun bir XX asr o'zbek adabiyotida realistik nasriy asarlarning tug'ilishini boshlab bergen asarlardan biri sifatida ham ahamiyatli edi" [9. 54].

XX asr boshida katta kuch bo'lib maydonga chiqqan ma'rifatparvar ziyolilar jamiyatni, millatni tarbiyalashda adabiyotning roli nihoyatda buyuk ekanligiga to'la amin bo'lganlar. "Jadidchilikning ruhi va mazmunini o'zida bekamu ko'st namoyon etgan jadid adabiyoti milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos rol o'ynaydi. Bu adabiyotning ilk namunalari badiiyatiga ko'ra u qadar yuksak emas, g'oyalari yaydoq beriladi. Yalang'och da'vat va chaqiriqlar, shoirbozlik ko'zga tashlanadi. Jadid adabiyoti 10-yillarning oxiri, 20-yillarning boshlaridagina to'laqonli adabiyotga aylandi" [10. 165].

Bundan ko'rindaniki, bu davrda jadid adabiyoti maqsad bo'lish bilan birga vosita vazifasini ham bajargan va juda kuchli ma'naviy ehtiyojga aylangan. Jadidchilikning shakllanishi va rivojini uning g'oyalarini o'zida aks ettirgan adabiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Deyarli barcha sohalar da yangilikka intilayotgan jadidlar adabiyotga ham yangicha nazar bilan qaraydi.

XX asrning dastlabki yillaridanoq adabiyotning barcha yo'nalishlarida: nazm, nasr va dramaturgiyada yangi nomlar paydo bo'ldi. O'zbek jurnalistikasi yangicha bo'y ko'rsatdi. Jurnalistik janrlar shakllandi. Gazeta va jurnallar tinimsiz chop etilib, yangi-yangi iste'dodlarni kashf etdi. Eng muhimmi, so'z orqali, adabiyot orqali jamiyatga, davlatga ta'sir ko'rsatish, millat ruhini uyg'otish davr talabi ekanligi ayon bo'ldi. Matbuot orqali xalqning ko'zi ochilib, nafaqat siyosiy bilimlari, balki ma'naviy olami boyib bordi. E'tiborlisi shundaki, "Turkiston", "Farg'ona" kabi gazetalarda "Yo'l esdaliklari", "Adabiyot va san'at", "Parcha", "Xotira" kabi ruknlar ostida birinchi marta kichik proza namunalari berila boshlaydi. Fuqarolarning o'zlikni anglash, diniy va dunyoviy fanlarga qiziqishi ortdi. "Najot", "Sadoyi Turkiston", "Turkiston", "Farg'ona", "Qizil bayroq", "Ishtirokiyun" gazetalarini hamda "Tong", "Maorif va o'qitg'uvchi", "Sharq chechagi", "Inqilob", "Mash'ala" jurnallari jadid hikoyalari targ'ibotida muhim vosita bo'ldi. Misol uchun, "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq" va "Turkiston" gazetalarida 1918-1924 - yillar oralig'ida 22 ta hikoya chop etilgan. "Maorif va o'qituvchi" jurnalida esa 1925-1929 - yillar oralig'ida 35 ta hikoya e'lon qilingan.

Jadid matbuotida birin-ketin asarlar nashr qilinar ekan, nazariyaga ehtiyoj sezildi. Abdurauf Fitrat o‘z vaqtida yangi o‘zbek adabiyoti nazariyasini yaratdi va san’at, adabiyot, tur va janrlar haqida ta’riflarni ishlab chiqdi: “*Adabiyot so‘zini tuzukkina anglatmoq uchun boshlab san’at ham go‘zal san’atlar degan so‘zni ta’rif qilib o‘tish lozimdir... Go‘zal san’atlarda tovar (material) tovush ohang bo‘lsa, go‘zal san’at musiqiy bo‘ladir; bo‘yovlar, chiziqlar bo‘lsa, rasm bo‘ladir; tosh yo boshqa turli ma’dan esa haykalchilik bo‘ladir; tosh, yog‘och, kirpitch, ganch turnoq (tuproq, loy) bo‘lsa, me’morlik bo‘ladir; tan, mug‘a (imo, qosh, ko‘z) harakatlari esa o‘yin (tans) bo‘ladir; gap, so‘z esa adabiyot bo‘ladir*” [4. 21]. Fitrat zamonasi uchun peshqadam bo‘lgan nasr, xususan, hikoyaning imkoniyatlarini o‘z davrida yaratilgan hikoyalarning mohiyatidan kelib chiqib izohlaydi va “tirikchiligidan bo‘lib turg‘an ko‘b voqealarning qorong‘i puchmoqlarini oydinlatib ko‘rsatadir”, deya ta’rif beradi.

Shu davrdan boshlab adabiyot ijtimoiy hayotni yaqqol aks ettira boshladi. Uning vazifasi tuyg‘ular tajassumini shunchaki badiiy ifodalash emas, balki fikr berish, o‘yga toldirish, zamonning muammolarini o‘rtaga tashlash va uning yechimlarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lib qoldi. Aytish mumkinki, matbuot bu davrda o‘zbek prozasining beshigi bo‘lib xizmat qildi. Yangilanayotgan davr hikoya uchun ta’rif va tavsifni ham talab etardi. Abdurahmon Sa’diy roman va hikoyani epik turga kiritib, ularning bir-biridan farqini uzunligi va qisqaligiga qarab ajratadi. U “povest” termini o‘rniga “uzun hikoya”, “novella” yoki “hikoya” o‘rnida esa “qisqa hikoya” terminini qo‘llaydi. Abdurahmon Sa’diyning bu kabi tadqiqotlari natijasida Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” va Olimjon Ibrohimovning “Bizning kunlar”ini romanga, Abdulla Qodiriyning “Uloqda”, “Otam va bolshevik”, Fitratning “Qiyomat”, Cho‘lponning “Yo‘l esdaligi”, “Oydin kechalarda” asarini hikoyaga, Olimjon Ibrohimovning “Qizil chechaklar”, Fotih Amirxonning “Qadrli minutlar” asarini uzun hikoyalarga, Sharif Kamolning “Hikoyalar”ini qisqa hikoyalarga misol qilib keltirgan. 1905-1917-yillarda yaratilgan nasriy matnlarni kuzatadigan bo‘lsak, mualliflar o‘z asarlarini qalamga olgan mavzusiga qarab, “ro‘mon”, “roman”, “milliy roman”, “hikoya”, “xayoliy hikoya”, “filyatun”, “ocherk” “maqola”, “latifa”, “ertak” kabi nomlaganligiga duch kelamiz. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Juvonboz” asari janri “ro‘mon”, “Uloqda” “hikoya”, “Jinlar bazmi” “mavhum hikoya”, deb ko‘rsatilgan. Asarlarning mazmun-mohiyatiga qaraydigan bo‘lsak, bu davrda axloqiy masalalarga bag‘ishlangan asarlar “roman”, deb nomlangan. “Juvonboz”da ham, Hamzaning 1915-yilda dunyo yuzini ko‘rgan va “milliy roman” deb e’lon qilingan “Yangi saodat” asarida ham ayni shu masala ilgari surilgan. Cho‘lponning “Muhtaram yozuvchilarimizga” nomli maqolasidagi “Bizga ko‘p teatru, ro‘man kitoblari yozmoq kerakdurkim, bu bir qarz bir hovuch ziyoli yoshlarmiz ila ahli qalam ustlariga tushadir”, ta’kidida ham “ro‘man kitoblari” axloq ma’nosini ifodalaydi.

Hikoya janri xususidagi tahlillar o‘z davrida turli bahs va munozaralarni keltirib chiqargan. Olim Sharafuddinov esa hikoyani roman bilan ajratmasdan, ularning bir-biri bilan bog‘liqligini hisobga olib, “*O‘zbek adabiyotida g‘arb ruhidagi, g‘arb shaklidagi hikoyanavislik Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar”i bilan boshlandi*” [11. 13], deb ko‘rsatadi. Sotti Husayn esa “*Hikoya turmush hodisalarining birortasini tasvirlab beradi. Povest esa hikoyadan yuqori, romandan kichik bo‘lib, hodisalarning hikoyaga qaraganda katta rasmini oladi*” [12], deb ta’riflaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, keyingi davr adabiyotshunosligida nasriy asarlarning janr xususiyatlarini aniqlashda aynan Sotti Husaynning ta’riflari ulgu berdi. Ammo nazariy adabiyotlarda hikoyani janr sifatida xarakterlovchi ta’riflar shu qadar ko‘pki, go‘yoki haligacha hikoyaga muxtasar ta’rif berilmagandek. Sababi, hikoya doimiy o‘sib, takomillashib, yangi unsurlar bilan boyib kelmoqda. Bundan tashqari, hajm ham uning asosiy belgisi bo‘la olmaydi. Demak, janrning asosiy belgisi, badiiy in’ikos etilgan hayotga yondashishda yuzaga chiqadi.

Hikoya janri talablari ayon bo‘lishi bilan bir paytda gazeta-jurnallarda, almanaxlarda turli mavzularda hikoyalar e’lon qilinib bordi. Zamonaviy hikoyalar mavzu jihatdan ko‘lamdor, mazmun jihatdan jadid g‘oyalari bilan to‘yingan edi. Hikoyachilikdagi bunday jonlanish millat ruhi ni tarbiyalash, ularning haq-huquqlarini anglatish, qalblari tub-tubida yashirinib yotgan azaliy orzulari ro‘yobini ko‘rsatish, bu yorug‘lik uchun yo‘llar ko‘rsatishdan iborat edi. Hikoya to‘liq targ‘ibot vositasiga aylandi. Ilm istab yoki tijorat maqsadida yoki haj safari sababli dunyo ko‘rgan jadidlar Turkistondagi qoloqlik va xurofotlarni hikoya, roman, dramalar orqali oshkor etishar, olomon esa tomosha va mutolaa orqali zulmat ortida nur borligini his etib borardi. Hikoyachilikning bunday takomilini Abdulla Qodiri, Abdurahmon Sa’diy, Shokir Sulaymon va boshqalar birin-ke-tin matbuot orqali jonkuyarlik bilan qo‘llab-quvvatlay boshladi.

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

XX ASR 60-70-YILLARI O'ZBEK ADABIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada o'zbek adabiyotining alohida taraqqiyot bosqichi sifatida belgilangan XX asr 60-70-yillar adabiy muhiti haqida so'z boradi. Mazkur davrga xos bo'lgan bir necha xususiyatlar davriy nashrlar, tanqidiy maqolalar yordamida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Falsafiy lirika, sintezlashgan folklorizmlar, poeziya, proza, uslub, sarbast.

Аннотация: В статье говорится о литературной среде 60-70-х годов XX века, которая определяется как особый этап развития узбекской литературы. Некоторые характеристики этого периода анализируются с помощью периодической печати и критических статей.

Ключевые слова: Философская лирика, синтезированные фольклоризмы, поэзия, проза, стиль, сарбаст.

Abstract: The article talks about the literary environment of the 60-70s of the twentieth century, which is defined as a special stage in the development of Uzbek literature. Some characteristics of this period are analyzed with the help of periodicals and critical articles.

Key words: Philosophical lyrics, synthesized folklorisms, poetry, prose, style, sarbast.

Bir necha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan o'zbek adabiyoti har bir davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Adabiyotimizning har bir bosib o'tilgan yo'li ma'lum bir yutuqlari, yaratilgan durdonalari, sara namunalari bilan bilan boshqalaridan farqlanib turgan, bir-biriga ko'prik vazifasini bajargan. Millatimizning estetik idroki, ma'nnaviy ongi qay darajada bo'lganligini ko'zgu misol akslantirib turgan. Bu borada murakkab davr sifatida aytiladigan 60-70-yillar o'zbek adabiyoti ham o'ziga xos tamoyillari bilan xalqimizning menini ko'rsatib bera oladigan alohida davr sifatida o'z o'rniga ega. Bu davrga xos bo'lgan yetakchi belgilarni esa davriy va ilmiy nashrlar qatidagi ma'lumotlarni o'qish orqali anglaymiz.

XX asr 60-70-yillari adabiy muhiti haqida shu davrda faoliyat yuritgan "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida chop etilgan tadqiqotchilarining tanqidiy qarashlari, munaqqidlarning chiqishlari orqali ham xabardor bo'lamiz. Chunonchi, No'monjon Rahimjonovning "Falsafiy lirika haqida" maqolasida bu davr o'zbek lirikasi taraqqiyotini belgilovchi tendensiyalardan biri sifatida falsafiylik, aql va fikrning uyg'unligi ekanligi aytiladi: "30-40-yillarda falsafiy lirikaning ajoyib namunalarini yaratgan shoirlar unchalik ko'p emas, barmoq bilan sanarlidir(G'afur G'ulom, Oybek va Maqsud Shayxzoda). Lekin 60-yillarning oxirlaridan boshlab 70-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan davrda Maqsud Shayxzoda, Uyg'un, Mirtemir, Zulfiya, A.Muxtor, Mirmuhsin, Shukrullo, E.Vohidov, H.Sharipov, A.Oripov kabi turli avlodga mansub shoirlar ijodida, ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'layotgan falsafiylik, teran o'y-mushohadakorlik xususida ko'proq fikr bildiriladigan,

ushbu yo‘nalish poeziya taraqqiyotida yetakchi tendensiyaga aylanganligi xususida keng fikr yuritiladigan, yakkalilik bilan ta’kidlanadigan bo‘lib qoldi”[1. 10].

Bu davr o‘zbek lirikasida sintezlashgan folklorizmlarga murojaat qilish jarayonlari boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’nikim, sintez qilib olingan xalq donishmandligi namunalari asos – mag‘zining intellektual zamonaviy she’riyat bilan uyg‘unligi o‘ziga xos tarzda shoirlarimiz ijodida namoyon bo‘la boshlagan. Sintezlashgan folklorizmlar o‘zbek shoirlari ijodida quyidagi 2 xil tipologik ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda:

1. Xalqning maqol, matal va idiomatik iboralaridan, shuningdek, diniy-mifologik tu-shunchalaridan foydalanish.

2. Tugal sujetli folklor asarlaridan (mif, rivoyat, afsona va ertaklardan) foydalanish.[2. 35]

Abdulla Oripovning “Ishonch”, “Izhor”, “Donishmand dediki..”, “Men anglab yetgan falsafa”, “Istak”, “Otalar bog‘idan..”, Dunyoni qizg‘anma” she’rlarida, Shukrulloning “Alla-yu alla”, “Tuproq” she’rlarida birinchi tipdagi sintezlashgan folklorizmlar uchraydi va ular muallifning badiiy niyatini obrazli tarzda ochib beradi. Erkin Vohidov, Omon Matjon, Muhammad Ali ijodida esa ikkinchi tipdagi folklorizmlarni uchratamiz.

Davr adabiy muhiti, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqealar tahlili “Guliston” jurnali sahifalarida ham muntazam ravishda yoritilib borilgan. O‘zbek poeziysi, shuningdek, prozasidagi yangiliklar ham tanqidchilar e’tiboridan chetda qolmagan. Xususan, Norboy Xudoyberganov 60-yillar prozasining mavzu doirasi, undagi yangilanishlar mohiyati borasida fikr yuritarkan, Abdulla Qahhorning “Muhabbat”, Primkul Qodirovning “Erk” qissalarida hayotdagi ziddiyatlarni aks ettirishdagi eng nozik mezonlardan sanalmish sevgi kuylanishini, bu muqaddas tuyg‘u yuzasidan bahs-munozaralar kechishini, sevgi hayot qo‘shig‘iday goh yuksak pafos, goh ulug‘vorlik, goh quvonch-mungga yo‘g‘rilgan ohangda ifodalanayotganini aytadi: “Oltmishinchchi yillar o‘zbek adabiyotida sevgi olamidagi shodlig-u g‘am-alamlar, murakkabliklar, qiyinchiliklarni ro‘y-rost ko‘rsatishga intilish kuchaydi, qahramonlar, voqealar tanlashda xilma-xillikni, rang-baranglikni ta’minalashga e’tibor yanada ortdi, sevish-sevilishning tabiatga aloqador jihatlarini yoritishda hayotiylikka erishish masalasi esa diqqat markaziga chiqarilmoqda. Xususan, “Chinor”, “Erk”, “Qanon just bo‘ladi”, “Bahor qaytmaydi” singari asarlarda oila, farzand oldidagi burch, mas’uliyat hissi va muhabbat munosabatlari qalamga olinadi”[3. 26].

XX asrning 20-yillarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan erkin vazn 60-70-yillar poeziyasining ham yetakchi xususiyatlaridan biriga aylandi. Bu xususda O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemirning fikrlari o‘rinli: “Yetakchi rus poeziyasining barakali ta’sirida qanot qoqqan Taqtash she’rlaridan o‘zbek poeziyasiga o‘tgan bir vazn bor: erkin she’r, ravon she’r. Bo‘g‘ib qo‘ymaydigan, to‘la nafas olish uchun qulay. Yigirmanchi yillarda bu vaznda Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, ko‘proq Uyg‘un qalam surgalari hammaga ma’lum. Keyinchalik bu vazn, ya’ni erkin she’r Asqad Muxtor ijodining eng xarakterli bir qirrasi bo‘lib qoldi, uning ko‘pchilik she’ri va yaxshi she’rlari shu vaznda. Hozir Zulfiyaxonim, Yusuf Shomansur, Ramz Bobojon bu vaznga ko‘ngil qo‘yishgan”[4. 20]. Mirtemir navqiron qalam egalari sanalmish Omon Muxtor “Ohang”, Mashrab Boboyev “Bahor ohanglari” to‘plamlaridagi ko‘plab she’rlarini mazkur vaznda yozganligi, ularning kamchiliklardan holi emasligi, vazn jihatdan to‘g‘ri kelmaydigan o‘rnlari, so‘z jihatidan noto‘g‘ri qo‘llanilgan so‘zları borligini ta’kidlab, erkin she’r talablarini bajarishda oqsashlar borligini aytib o‘tadi. Ustozning bu fikrlari orqali yosh shoirlar ijodiga adabiy jamoatchilikning yirik va yosh vakillari befarq bo‘limganligini, she’rga, nasrga qo‘yilgan talablar qat’iy bo‘lganligini, shu ustuvor mezonlar asosida ushbu davrda yuqori saviyadagi adabiy muhit shakllanganligini anglaymiz. Tanqidchi Ibrohim G‘afurovning yoshlar she’riyati haqidagi “Yam-yashil daraxt” maqolasidagi quyidagi so‘zlar fikrimizning isboti o‘laroq aytilgan ko‘rinadi: “Oltmishinchchi yillarning ikkinchi

yarmidan boshlab adabiyotga kirib kelgan va hozirda ikki-uch kitoblari chiqqan yoshlari juda ko‘p. Bugungi she’riyatimizda Jamol Kamol o‘z uslubining yorqinligi va ranginligi bilan, Omon Matjon she’rining xush ohanglari, mayin zamzamalari bilan, Gulchehra Nurillayeva nazmining samimiyyati va dilbarligi, Oydin Hojiyeva ijodining tiniqligi, Muhammad Alining fikriy teranligi, Rauf Parfi yoniq va dardli ehtirosga to‘liqligi, Halima otashin qat’iyati, yangi mavzular, yangi shakllar topish yo‘lidagi saboti bilan tanilib, tan olinib turgan yosh shoirlardir”[5. 23].

Bu paytdagi adabiy muhitga xos belgilar haqida bu davrning navqiron vakili Erkin Vohidov: “Yangi avlod she’riyati bahorda qirg‘og‘iga sig‘magan soydek hayqirib, toshib oqmoqda, adabiyotning katta daryosiga hali tiniqmagan, xas-cho‘plardan holi bo‘lmagan, lekin o‘ziga xos oqim sifatida qo‘shilib turibdi. Bu oqimning o‘ziga va faqat o‘ziga xos xususiyatlari bor – yangi avlodning tarjima holi bilan, yoshiga mos nafasi bilan bog‘liq xos belgilari bor”, – deya ularning eng muhimlarini sanab o‘tadi.[6. 26] Uning fikricha, mazmun va shakldagi erkinlik mazkur davrning xos xususiyatlaridan sanaladi. Verlibr – sarbastning yetmishinch yillar o‘zbek adabiyotida rasmana ko‘rina boshlashi bevosita yoshlari ijodi bilan bog‘liq. Davrning yana bir xususiyati deya hayotning dramatik lavhalarini hayajon bilan tasvirlashga moyillik kuchayganligi e’tirof etiladi. Rauf Parfining “Abdullajon marsiyasi”, Shukur Qurbonning “Shoh Mashrabni osmoqdalar” she’rida yoshlari zamon ziddiyatlarini nozik his qilganliklarini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. “Tasvirda murakkab usullardan foydalanishga urinish, o‘ziga xoslikka intilish, nurli “izm”lar tamg‘asidan qo‘rmaslik xususiyati” Rauf Parfi, Muhammad Solih she’rlarini o‘qiganimizda o‘ziga xos tarzda bo‘y ko‘rsatadi.

Davr lirikasi, unga tegishli bo‘lgan o‘ziga xosliklar haqida ko‘plab tanqidchilarning kitoblarida ham ma’lum darajada to‘xtalib o‘tilganligining guvohi bo‘ldik. Chunonchi, Yo‘ldosh Solijonov “Adabiyot hiyoboni” kitobida “O‘tgan asrning 60-yillardan boshlab she’riyat maydoniga bahor nasimi kirib keldi. Bu bog‘da yangi kurtaklar barg yoza, durkun kurtaklar nish ura boshladi. Uning bag‘riga fayz-u latofat qaytdi. Lirika bog‘ini yangi nihol va gullar bilan boyitgan avlod she’rning azaliy mohiyatini amalda isbotlashga kirishdi. Ana shu avlodga mansub bo‘lgan Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Rauf Parfi, Omon Matjon, Musa Jalil kabilalar xalqimizni o‘zligini anglash, hayotda inson sifatidagi o‘rnini belgilashga da’vat etdilar”[7. 321], – deya ushbu davrni hozirgi rang-barang rang-barang o‘zbek she’riyatiga poydevor yaratgan muhim bosqich sifatida baholaydi.

Bu davr she’riyati haqida Botirxon Akromovning kichik tadqiqoti ham muhim ma’lumotlarni bera oladi. U lirikada obraz muammosi masalasiga to‘xtalib, shunday fikrlarni ilgari suradi: “Lirik she’riyatda poetik obrazning maxsus (hali keng ilmiy-tanqidiy muomalaga kiritilmagan) tipi mavjud bo‘lib, uni, bizningcha, lirik portret yoki obraz-portret deb atashga yetarlicha asos bor. Shubhasiz, bunday istiloh maxsus tipga mansub individual obrazni uni boshqa jinslardan farqlash va mustaqil tadqiq qilish imkonini beradi. Obraz-portret yoki lirik portret ko‘pincha tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan she’rlarda, avtobiografik xarakterdagi miniatyura va balladalarda, shuningdek, zamondoshimiz olami – suvrati va siyrati in’ikos etgan lirik-publisistik va voqeaband manzumalarda o‘ziga xos qirralari bilan ajralib turuvchi poetik figuradir. Bunday obrazlar lirikaning boshqa tur kechinma obrazlaridan bevosita yoki bilvosita konkret shaxs – lirik personaj xarakterini yoki ma’lum qirrasini (xoh lirik kechinma, xoh epik element, xoh ramziy-majoziy nisbat tarzida) chizib berish bilan farqlanadi”[8. 28]. U Abdulla Oripov, Rauf Parfi o‘ziga xos lirik portretlari vositasida davrning nafasini, yosh avlodning vatani, xalqi oldidagi burch-majburiyatlarini ifodalab bera organligini alohida ta’kidlaydi.

XX asr 60-70-yillari o‘zbek adabiyotining poetik va g‘oyaviy-mazmuniy boyitilishida Abdulla Oripovning o‘rni beqiyos. Abdulla Oripov adabiyotga o‘ziga tengdosh avlodning – XX asrning o‘rtalaridagi yoshlarning o‘y-fikrlarini, orzu-armonlarini, tuyg‘ulari va kechinmalarini

olib kirdi. Shoир ularni samimiy hurmat qiladi, ularning manfaatlari bilan yashaydi, ularning fikrlari bilan fikrلaydi, ularning hislari bilan his qiladi. O‘z lirkasida Abdulla zamondoshimiz obrazini, fikrlovchi inson obrazini, butun fikr-u zikri kelajakka yo‘naltirilgan, olam tashvishlarini o‘ylovchi, istiqbol uchun o‘zini mas’ul deb biluvchi ijodkor inson obrazini yaratdi.[9.22] Insoniy kechinmalarning haqqoniyligi, ehtiroslarning chinligi Abdulla Oripov she’riyatining qimmatini belgilaydi. Muhabbat, qayg‘u, shodlik tuyg‘ularini samimiyat libosiga burkab kuylaydi. Uning she’rlarida hayotning mohiyati, insonning o‘rni haqidagi teran o‘ylar qalbning prizmasidan o‘tkazib beriladi.

Akromov Botirxon uning lirk portret yaratish borasidagi mahorati haqida: “Umuman, A.Oripov she’riyati chuqur podkastga, ko‘pqirrali-polisemik ma’nolarga ega bo‘lgan obrazlari, shu jumladan, obraz-portretlari bilan ajralib turadi. Uning “Alloma”, “Alisher”, “Bag‘ishlov”, “Mayakovskiyga”, Nekrasov hasrati”, “Hamza monologi”, “General”, “Otello”, “Alvido, ustoz!”, “Hamid Olimjon xotirasiga”, “Karvon” kabi she’rlarida Beruniy, Navoiy, Gorkiy, Nekrasov, Mayakovskiy, Hamza, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Sobir Rahimov, Abror Hidoyatov obrazlari – o‘ziga xos, betakror lirk portretlari yaratiladi. Ularda ba’zan bevosita aniq, xarakterli faktlar badiiy o‘zlashtirilsa, ba’zan bilvosita – shoирning o‘sha aziz siymolar haqidagi o‘y-xayollari umumlashtiriladi”[10. 34], – deydi.

Shoир “Otello”, “Alvido, ustoz” she’rlarida qahramon portretini hazin-foje’ xarakterida chizib beradi. “Alvido, ustoz”dagi “Sarbonim, ne uchun ko‘tarmaysan bosh... Ajal, sen nayzangni sanchdingmi chindan o‘zbek she’riyatini pahlavoniga... Yorug‘ bu olamda bormikin axir Shoир vafotidan ortiqroq motam” satrlarida tragik ruhni shunday singdirganki, qahramonga ehtirom g‘urur, faxr-iftixor tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashib ketgan. Shoирning xotirasi nafaqat tasavvurimizda gavdalangan, balki qalbimizda manguga muhrlangan.

Muallif Rauf Parfining lirk portretlar yaratish mahoratini alohida baholaydi. Haqiqatdan ham, Rauf Parfi ijodida ham bashariyatning yetuk siymolariga bag‘ishlab yaratilgan poetik-obrazlarni uchratish mumkin. Uning “Nozimning sadosi”, “Oybek xotirasiga”, “Verlen”, “Betxoven”, “Bayronning so‘nggi safari”, “Aleksandr Ul’yanov”, “Tavfiq Fikrat kitobiga yozuv”, “Yegishe Charens xotirasiga”, “Pablo Neruda o‘limiga”, “Viktor Xaraning so‘nggi qo‘shig‘i” she’rlarida individual poetik usul yordamida lirk qahramonga chizgilar beradi. Musavvirona tasavvurlar va ranglar simvolikasi vositasida shoир o‘zining tengsiz iste’dodini namoyish eta olgan.

Risolada lirk portretning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning aniq proobrazga ega bo‘lishida deb belgilangan. Bu yerda masala faktlarning hujjatli aniqligida emas, balki uning badiiy o‘zlashtirilishida, obraz-portretning muhim unsurga aylanishida, kitobxonning qalbida his-hayajonni uyg‘otishadir. Lirk obrazlarda shoир shaxsiyatini belgilaydigan xususiyatlar bilan zamondosh kechinmalari ifodalangan jihatlar uyg‘unlashgan holatda bo‘y ko‘rsatadi. Abdulla Oripov, Rauf Parfi lirk portretlari bu jihatdan o‘z vazifasini bajargan deya olamiz. Muallif lirk portretlarning adabiyotdagи o‘rnini davrning yetakchi ijodkorlari, aniqrog‘i, yoshlari misolida ochib beradi.

Muallif Abdulla Oripov ijodiga alohida yondashadi: shoир she’rlarida poetik tafakkurning ikki muhim xususiyati sanalmish mazmundorlik va obrazlilik masalasi xususida to‘xtaladi. Rauf Parfi ijodiga xos xususiyatlar sifatida esa uning she’riyatidagi chuqur o‘ychanlik, ba’zan qattiq iztirobli, foje’ kayfiyat ustun kelishi, klassik musiqa asarlaridagi sirli teranlikning uchrashi alohida ta’kidlanadi: “Rauf Parfi she’riyatida san’atning turli sohalariga oid badiiylik elementlarini ilg‘ab olish qiyin emas. Unda hayratomuz yorqin tasviriylik – ranglar, chiziqlar, jilolar tiniqligi, nurlar, soyalar, ularning odatiy va odatdan tashqari ko‘rinishlaridan ruhiyat manzaralarini chizish, bugina emas, olamning turli tovush-ohanglari, sado va aks-sadolarini ham o‘sha tasviriy tiniqligi bilan

suvratlash ajralib turadi. Faqat Raufga xos poetik tafakkur me'yori, mushohada tarzi go'yo imkonsiz tuyulgan joyda ajoyib bir imkoniyat yashiringanini badiiy kashf etishga qodir". [192]

XX asr 60-70-yillaridagi ijodiy jarayon qay tarzda kechganligi, badiiy ijod maydoniga kirib kelgan yangi avlod vakillarining yutuq va kamchiliklari xususida munaqqid Mixli Safarovning "Dunyo kirmoqdadir shoir qalbiga" risolasida alohida to'xtalib o'tilgan. U davrga xos bo'lgan bir necha xususiyatlarni sanab o'tadi. Uning yozishicha, yoshlari she'riyati uchun internatsionalizm an'analarining ma'lum yo'nalishda davom etishi xos.

Shu o'rinda bu terminni izohlab o'tishimiz lozim. Internatsionalizm, baynalmilalchilik (lotincha inter – aro, natio – xalq) – turli millat, irqdagi kishilarning xalqaro birdamligini ifoda etadigan tushuncha. Internatsionalizm tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida, millatlarning kelib chiqishi va millatlararo munosabatlar natijasida muomalaga kiritilgan tushunchadir. Internatsionalizmning tub mohiyatini insonparvarlik, tolerantlik g'oyalari, xalqaro hamdo'stlik, birdamlik, hamjihatlik kabi umuminsoniy tamoyillar tashkil qiladi.

60-70-yillarda insonparvarlikka chorlovchi she'rlarning ko'plab yaratilishi ijtimoiy hayotdagi muhim tamoyillar adabiyotda ham o'z in'ikosini topayotganidan dalolat beradi. Xusan, Erkin Vohidovning "Kavkaz she'rlari" turkumiga kiritilgan she'rlarida Ozarbayjon va Armanistonga qilgan safaridan olgan taassurotlari, qardosh xalqlarning tabiatiga muhabbat, ularning qahramonona yaratuvchilik faoliyatiga olqish ruhi ustuvor. "Fuzuliy haykali qoshida" she'rida shoirning ozarbayjon xalqining madaniyatiga ehtirom tuyg'usi yaqqol bo'y ko'rsatib turadi. Mavzular miqyosining kengayishi ham internatsionallikni boyitishga yuksak xissasini qo'shayotganligini Erkin Vohidov, Barot Boyqobilov, Husniddin Sharipov, Jamol Kamol, Muhammad Alining she'rlari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, Jamol Kamol:

*Qalbingdagi o't-ku ganji muqaddas,
Qo'lingdagi o'tdan qo'rqaman, –*

Deya hasratlanishida bashariyatning qalbidagi vayronkorlik tuyg'usidan tashvishda ekanligini sezamiz.

60-70-yillar yoshlari lirkasi uchun konfliktlilikning jonlanishi, yangicha maqom kashf eta borishi xos. Uni munaqqid shunday asoslaydi: "Yoshlari she'riyatida konfliktlar rang-barang mazmunga va asosga ega. Ishqiy, intim kechinmalardagi ziddiyatli holatlardan tortib, umuminsoniy ahamiyatga ega siyosiy-g'oyaviy konfliktlar ham ular she'riyatida o'z ifodasini topayotir" [11.12] Abdulla Oripov, Rauf Parfi she'rlarida esa o'zgacha tusdagi, ya'nikim g'oyaviy asosi pishiq, pafosining yo'nalishi ayricha bo'lgan konflikt uchrashini ta'kidlaydi. Abdulla Oripovning "Uyqu" she'rida lirk qahramon bashariyat garchi fan-texnika taraqqiyotida yuksak marralarga erishayotgan bo'lsa-da, insoniylik nuqtayi nazaridan ancha ortda qolayotganligidan azoblanadi. Shu ikki narsani qarama-qarshi qo'yadi. Rauf Parfi esa "Kosmos" she'rida osmon faqat fan nuqtayi nazaridan o'rganiladigan narsa emas, tabiatning odamzod qalbiga zavq bag'ishlaydigan go'zal mo'jizalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Shoirning e'tiqodiga ko'ra, insoniylik shaxs kamolotining birlamchi asoslaridan sanaladi.

Mixli Safarov yoshlari ijodida xalq poetik an'analariga moyillik ham ancha kuchli ekanligini aytib, savol-javob, shartlilik usullaridan mahorat bilan foydalanish ko'nikmalari ularda shakllanayotganidan mammun bo'ladi: "Erkin Vohidov esa "Kosmonavt va shoir" she'rida xalq ertak va qo'shiqlarida ko'p uchraydigan shartli savol-javob usulidan foydalanadi. Ammo shoir xalq ijodidan faqat shu usulni o'zinigina olmagan, bu savol-javobga xos sodda, xalqchil ruhni ham saqlagan". Bunda shoir vatanga bo'lgan muhabbatini savol-javob zamiridagi chuqr ma'no orqali

anglashimiz mumkin, ya’niki shoir kosmosga uchadigan bo‘lsa, yerdagi barcha go‘zal narsalarni olishga qaror qiladi, ona yerdan bir siqim tuproq olmasdan fazolarga ham uchmasligini aytib o‘tadi. She’rda yosh ijodkor qalbidagi vatanparvarlik, yurtni sevish tuyg‘ulari jo‘sh urayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Abdulla Oripovda esa xalq ijodining g‘oyaviy an’analariga moyillik ko‘rinadi. Xalqning qahramonlari, ularning fazilatlari aks etgan rivoyatlar, motivlarni qayta ishlaydi, undagi g‘oyani rivojlantiradi. “Qasamdara” balladasida ohu ketidan jarga sakragan pahlavonning ortga qaytishi uchun el oqsoqolining bergen odilona maslahati yordam beradi. Donishmand aytgan bu usul ovchining daradan chiqishiga cheksiz kuch bag‘ishlaydi. Bunda folklorga xos bo‘lgan shartlilik usulidan o‘rinli foydalanganligini ko‘ramiz. Bu she’rlardagi tabiiylik ularning yanada jozibali bo‘lishiga, kitobxonga sodda va ravon tarzda tushunilishiga asos bo‘lgan deya olamiz. Muhammad Alining “Yuragim” turkumiga kirgan o‘n bir sakkizligida hayotga teran nigoh bilan qarayotgan, dunyoni falsafiy mushohada qilayotgan lirik qahramonning turli holati qalamga olinadi. Undagi bir sakkizlikda jahon adabiyotining nodir namunasi sanalmish Prometey rivoyati orqali odamlar qalbining ezungulikka ishonchi baland ekanligini aytadi. Jigarini tinmasdan cho‘qiyotgan Prometeyning halok bo‘lishiga odamlarning ishongisi kelmaydi:

*Bizga ayon, burgut had bilmas,
Prometey ayon qolmog ‘i dushvor.
Lekin, ajab, bizlarning-chi burgutmas,
U insonga ishonchimiz ulug ‘vor.*

Munaqqid Mixli Safarov “An’ana va an’anaviylik” maqolasida esa klassik she’riyatimizning g‘azal, ruboiy, to‘rtlik va fard kabi janrlarida o‘z kuchini sinab ko‘rayotgan yoshlар xususida fikr yuritadi. Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni”dagi lirik qahramon chuqur insoniy fazilatlarning egasi bo‘lishi bilan birga ruhiy uyg‘oq qalb sohibi hamdir. Muallif Erkin Vohidovning mumtoz she’riyatimiz uchun xos bo‘lgan an’anaviy obrazlarni o‘zgacha tarzda jonlantirayotganiga ham e’tibor qaratadi: Klassik she’riyatda “sham” va “parvona” obrazlari ham keng tarqalgan bo‘lib, ko‘pincha sham – ma’shuqa, parvona – uning vasliga talpinuvchi oshiq timsoliga aylangan. Erkin Vohidov g‘azallarida bu an’anaviy obrazlar ham boshqa mazmunlar bilan yangicha munosabatga kirishadi. Uning “Do‘st bilan obod uying...” g‘azalida qaddi rost sham rostgo‘y do‘sning ramziga, parvona esa bu do‘sning koyish-u ozorlaridan qo‘rqmaydigan kishiga qiyos etiladi. Tanqidchi devonda “Vazni yengil” fikrlar, gapga asoslangan g‘azallar ham uchrashini kamchilik sifatida belgilaydi.

Tanqidchi donishmandlik, ixcham va konkret shakl, chuqur obrazlilik kabi xususiyatlarni mujassam etgan ruboiy, fard, to‘rtlik kabi poetik shakllarda ham o‘zini sinab ko‘rayotgan yoshlар olamga faylasufona munosabatda bo‘lish, borliqni donishmandona anglash ko‘nikmalarini ijod namunalariga singdirayotganligini, Qambar O‘tayevning ruboiy va fardlari aforizmlarga, teran ma’noli majozlarga boyligi bilan ajralib turishini ta’kidlaydi.

Munaqqid 70-yillarning yirik voqelegi sanalgan she’riy roman xususida, Husniddin Sharipovning “Bir savol”i to‘g‘risida ham o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashadi: “She’riy roman – sintetik janr. Unda epik va lirik tur imkoniyatlari uzviy mujassamlanadi. Nasriy roman kabi u ham sujetli hamda voqeaband, hayot manzaralarini real aks ettiradi. She’riy romanda epiklik lirik janr talablariga bo‘ysunadi. Uning sujet rivojida, kompozitsion qurilishida lirik qahramon faol qatnashadi. Hayot lirik qahramonning emotsiyonal munosabatlari orqali aks ettiriladi. Voqelar bayoni lirik chekinishlar bilan almashinib turadi. “Bir savol”ni o‘qib, she’riy roman talablariga javob berishini his qilasiz”. Asar ustida bahs-munozaralarning qizg‘in kechishi esa Husniddin

Sharipovning o‘zbek adabiyotiga badiiy takomili va izlanishlardagi kamchilik bilan birga yutuqlarga ega bo‘lgan yangilik qila olganligidan dalolat beradi.

60-70-yillar nasri to‘g‘risida ham “Nasrimiz qaldirg“ochlari” maqolasida alohida to‘xtalib o‘tadi, bir necha nomlarni sanaydi: O‘zbek nasrida elliginchi yillarning o‘rtalarida va oltmishinchilarning boshsanishida ko‘ringan avlod bugun adabiyotimiz xazinasini yetuk asarlar bilan boyitmoqda. Ijodda esa yangi, yetmishinchilarning yillar avlodni paydo bo‘lyapti. Nasrdagi yangi avlodga mansub E.Raimov, A.Ibrohimov, E.Usmon, T.Malik, Habibullo, Z.A’lam, M.Mahmudov, X.Lutfulloyeva, M.Boboyev kabi yosh yozuvchilar allaqachon o‘quvchilarga dastlabki kitoblarini hadya etdilar. Murod Muhammad Do‘s, Q.Kenja, A.Ibodinov, E.A’zamov, S.Rajabov, Sh.Isaxonova, S.A’zamova va boshqalarning dastlabki hikoyalarini o‘qigan kishi kelajagi umidli yoshlardan yetishib kelayotganiga ishonch hosil qiladi.

Yosh tanqidchi Qamchibek Kenjaning “Yashil barg” hikoyasini tahlilga tortar ekan, hayotdagidagi dolzarb muammolarni ko‘targanligini, qahramonlarning ichki dunyosini turmushning murakkab ziddiyatlari doirasida ishonarli ifodalaganligi bilan xarakterlaydi. Alisher Ibodinovning “Dengizchi”, “Gulisafsar hidi”, “Chaqmoq chaqnaganda” hikoyalarini yozuvchining kamol topayotganligining belgisi deb bilsa, Xosiyat Lutfullayevaning “Ayollar” hikoyasida esa qahramonlarning taqdirini ochib berishda psixologik tasvirning o‘rni yuksakligi ta’kidlanadi. Murod Muhammad Do‘sning hayotni izchil va aniq ko‘rsatishi, oddiy detallardan katta psixologik ma’no topishi “Darvoza yonidagi it”, Betxoven haqidagi hikoyalari misolida tahlil qilib beriladi.

XX asr 60-70-yillarning manzaralari Ibrohim G‘afurovning bir necha kitoblarida yaqqol gavdalantirilgan. Uning “Joziba”, “O‘ttiz yil izhori”, “Lirikaning yuragi”, “Yonar so‘z” kitoblari vositasida nasr, nazm, dramaturgiyaga keskir nigoh, qat’iy talab bilan qarovchi munaqqidning qarashlari bilan tanishamiz.

“Yonar so‘z”ining “Ruh iqlimi” faslida davr poeziyasining inson ruhiy olamiga chuqurroq kirib borishi, ruhiy qatlamlarni kengroq ishg‘ol qilishi jihatlariga e’tibor qaratadi: “She’riyatimizning Zulfiya, Asqad Muxtor, Saida Zunnunova, Jumaniyoz Jabborov, Husniddin Sharipov, Yusuf Shomansur, Erkin Vohidov, Aziz Abdurazzoq, Abdulla Oripov singari namoyondalari ijodida inson ruhini, bir yosh shoir iborasi bilan aytganda, inson ruhining iqlimlarini chuqur o‘zlashtirishga, katta va jiddiy ijodiy razvedkaga mayllar bor. Buni Asqad Muxtorning “Quyosh belanchagi”, Zulfiyaning “Visol”, Saida Zunnunovaning “Qo‘shnilarim”, Jumaniyoz Jabborovning “Ilhom daqiqalari”, Yusuf Shomansurning “Yuragim”, Abdulla Oripovning “Ruhim” singari she’riy to‘plamlari yaqqol ko‘rsatib turibdi”. [12.17]


Tanqidchi Zulfiyaning “Ko‘zgu oldida”, “Qani, saloming” she’rlarida “inson ruhining oqimini, bu oqimdagagi tug‘yonli va sokin manzillarni” topish ustidagi izlanishlarini ko‘rsa, Asqad Muxtorning “Xotiralar” she’rida odam haqida, uning taqdiri haqidagi original gaplarni aytishini yuqori baholaydi, Mirmuxsinning “Yoshlik gunohlarim”ida esa inson nomiga dog‘ tushirmaslik g‘oyasi bo‘rtib ko‘ringanligini oydinlashtiradi. Yusuf Shomansurning ham “Men o‘tkazmagan daraxtlar” ida odam umrining qimmati ta’sirchan misralar orqali berilishini aytib, uning she’riyatiga, o‘ziga xosligiga e’tibor qaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Раҳимжонов Н. Фалсафий лирика ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан. 1978, № 3. – 87 б.

2. Ёрматов И. Хозирги ўзбек лирикасидағи синтезлашган фолклоризмлар хусусида// Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан. 1985, 2-сон, 35-бет. – 72 б.

-
3. Ҳудойберганов Н. Ҳақиқий муҳаббат борми?//Гулистан. 1973, 7-сони. – 32 б.
 4. Миртемир. Парвоз түгерисида. //Гулистан, 1975-йил, 4-сони.– 32 Б
 5. Гафуров И. Ям-яшил дарахт//Гулистан, 1975-йил, 4-сон. – 32 Б
 6. Истеъдод чироги. Воҳидов Э//Гулистан, 1978-йил, 4-сон. – 32 Б
 7. Солижонов Й. Адабиёт ҳиёбони. – Ф.: “Фарғона” нашриёти, 2020. – 321 б.
 8. Акромов Б. Оламнинг бутунлиги: лирикада образ муаммоси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 200 Б.
 9. Шараффиддинов О. Қалб ёлқини.//Шарқ юлдузи, 1978-йил 7-сони.– 31 Б.
 10. Акромов Б. Оламнинг бутунлиги: лирикада образ муаммоси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б 34.
 11. Сафаров М. Дунё кирмоқдадир шоир қалбига. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 117 Б.
 12. Гафуров И. Ёнар сўз. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 184 Б.



DILAFRUZ MUHAMMADIYEVA,

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

“BOBURNOMA”GA OID LUG‘ATLARNING MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Jamiyatimizda hozirgi davrda avtomatlashgan informatsion texnologiyalar va kompyuter muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yangi yo‘nalishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoxda. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining muhim yo‘nalishi hisoblanib, fanga oid barcha tadqiqotlar dasturiy ta‘minot va lug‘atlarning bilan uzviy bog‘liqdir. Tabiiy tiling milliy leksik boyligi, imkoniyatlari lug‘atlarda namoyon bo‘ladi. Shu bois lug‘atlar mashina o‘qiy oladigan formatda bo‘lishi, qidiruv tizimiga egaligi, indekslanganligi, kategoriyalashtirilganligi, klasterlashtirilganligi va foydalanuvchiga undan foydalanish imkoniyatining qulayligi va kengligi bilan xarakterlanadi. Dasturiy ta‘minot esa ana shunday mukammal lug‘atlar bilan lingvistik ta‘minot ba‘zasini ta‘minlab beradi. Ushbu maqolada parallel korpuslarni, xususan, “Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha parallel korpusini yaratishda ushbu tillardagi lug‘atlarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, turkcha, qozoqcha, parallel korpus, lug‘at, electron lug‘at, leksikografiya.

Abstract: Automated information technologies and computers are gaining importance in our society today. This is the reason for the emergence of new directions. Corpus linguistics is considered an important branch of computational linguistics, and all scientific research is inextricably linked with software and lexicography. The national lexical wealth and possibilities of the natural language are reflected in dictionaries. Therefore, dictionaries are characterized by being in a machine-readable format, having a search engine, indexing, categorizing, clustering, and the convenience and breadth of the user’s ability to use it. The software provides a linguistic support base with such perfect dictionaries. This article talks about the importance of dictionaries in these languages in creating parallel corpora, in particular, Uzbek, Turkish and Kazakh parallel corpora of “Boburnoma”.

Key words: “Boburnoma”, Turkish, Kazakh, parallel corpus, dictionary, electronic dictionary, lexicography.

So‘nggi paytlarda leksikografiya tilshunoslikning eng tez taraqqiy etayotgan va eng tez o‘zgaruvchan sohasi ekanligi yana bir bor isbotlandi. Lug‘at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davrning ko‘zgusi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslikning holati, lug‘atlarga ehtiyoji bo‘lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko‘pgina jihatlarga bog‘liq.

Lug‘atchilik tillarning maqomi, rivojidan ham darak beradi. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog‘liq ravishda lug‘atlarning rang-barang ko‘rinishlarining yuzaga kelishi,

umuman, lug‘atchilik taraqqiyoti – til va uning egasi bo‘lgan millatning taraqqiyoti bilan bog‘liq, uning porloq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi.

Muayyan tilda, muayyan tarixiy davrda muayyan lug‘atning yuzaga kelishi aynan shu davrda lug‘at yozilgan tilning rasmiy maqomi, lug‘atga ehtiyoj tug‘diradigan sohalar rivoji, aniqrog‘i, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bilan bog‘liq. Shu bois boshqa tilshunoslik bo‘limlaridan farqlanib leksikografiya mamlakat taraqqiyi etgan davrda “gullab-yashnagan”, mamlakat hayotida sokinlik hukm sursa, “so‘ngan”, o‘z taraqqiyotining har bir davrida davr mafkurasi, milliy g‘oyasi manfaatlarini amalga oshirish uchun xizmat qilgan. Bunga lug‘atchilik tarixi guvoh. Aniqroq qilib aytganda, lug‘atchilikning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, qolaversa, milliy til Renessansi bilan bog‘liq hodisa [2.460].

Lug‘atlar – bu ma’lum bir tilning so‘zлari, iboralari, ularning ma’nolari, sintaksisi, grammatic xususiyatlari va boshqa lingvistik jihatlari haqidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda to‘plagan asarlardir. Lug‘atlar har bir tilning leksik tizimini, o‘ziga xos so‘z boyligini, so‘zlarning qo‘llanilish kontekstini, sinonimlari va antonimlарini aks ettiradi. Ular lingvistik tadqiqotlar, tarjima, leksikografiya, va til o‘rganish jarayonlarida muhim vosita hisoblanadi. Lug‘at – bu tilning so‘zларини, ularning ma’nolarini, qo‘llanishini va boshqa lingvistik xususiyatlarini tizimli tarzda saqlaydigan va tushuntiradigan asar. Har bir lug‘at ma’lum bir tilning so‘z boyligini o‘z ichiga oladi va bu so‘zlarning ma’nolari, sinonimlari, antonimlari, grammatic shakkлari, qo‘llanilish usullari va boshqa tegishli ma’lumotlar bilan izohlanadi.

Lug‘atlar mohiyati jihatdan quyidagicha turlarga ega: qomusiy lug‘atlar (ensiklopedik) hamda lingvistik lug‘atlar (morfologik). Eng keng tarqalgan lug‘atlar lingvistik lug‘atlar hisoblanadi. Muayyan til doirasida lingvistik lug‘atlar imlo, orfoepik, izohli, frazeologik, etimologik va hokazolarga bo‘linadi. Morfologik lug‘atlarning obyekti so‘zdir. Ular so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi, yozilishi, semantikasi, etimologiyasi, grammatic xususiyatlari talqimi bo‘yicha ma’lumotlarni olib yuradilar. Lingvistik lug‘atlarda ma’lum bir tilning deyarli barcha so‘zлари mavjud holda bo‘ladi, ya’ni lingvistik lug‘atlar so‘zligida barcha mustaqil va yordamchi so‘zlar qayd etiladi.

Bugungi kunda dunyoda turli madaniyatlarning vujudga kelishi, tillar rivojlanishi va ularni o‘zlashtirishga oid texnik imkoniyatlarning kengayishi jamiyat kishilari dunyoqarashini tubdan o‘zgartirdi. Jamiyat tomonidan tilga alohida talab va ehtiyoj paydo bo‘ldiki, bu ko‘proq elektron lug‘atlar tuzish masalasiga aloqadordir. Bu talab va ehtiyojlar leksikografik nazariyaning yangi bir bosqichga ko‘tarilishiga olib keldi.

Yigirma yildan ko‘proq vaqt mobaynida elektron lug‘at tushunchasi lingvistika sohasida tor ma’noda, faqatgina kompyuter lingvistikasi doirasida tushunilib kelindi, soha muammolari faqat elektron texnologiyalar joriy etilishi bilan aloqador ekanligi haqidagi o‘ta tor ilmiy qarashlar natijasida kompyuter leksikografiyasi tilshunos olimlar tomonidan yetarlicha e’tiborga olinmadidi. Aslida mazkur atama va u bilan bog‘liq tushunchalar tilshunoslik sohasi rivoji va uning bugungi kundagi jamiyat ehtiyojlariga to‘laqonli javob berishiga xizmat qiladi. Bunda amaliy tilshunoslikning leksikografiya sohasi katta o‘zgarishlarga – takomillashuvga uchradi. Elektron lug‘at tushunchasi tilshunoslikka bir qancha jihatlar bilan turlichcha ta’sir ko‘rsatdi.

Biz yashayotgan davrda hayot sur’atlari behad tezlashgan bo‘lib, bugun dolzarb bo‘lib turgan tushuncha ertaga eskiradi. Yaratilayotgan bosma lug‘atlar katta oqim bilan kirib kelayotgan so‘zларни qamrab olib ulgurmeydi. Narsa, tushuncha, hodisaga izohli lug‘atlarda berilayotgan sharh lug‘at nashrdan chiqib o‘quvchlar qo‘liga yetib bormay eskiryapti. Bundan rosa bir asr oldin mashhur yozuvchisi, akademik, Nobel mukofoti sohibi Anatoliy Frans: “Lug‘at – bu alifbo tartibida joylashtirilgan yaxlit olam! Agar yaxshiroq o‘ylab ko‘rsangiz, lug‘at – kitoblarning kitobi. U boshqa barcha kitoblarni o‘z ichiga oladi, siz shunchaki undan o‘zingizga kerakli narsa topa bilishingiz

lozim...” deb yozgan edi. Ushbu ta’rif “lug‘at” tushunchasi paydo bo‘lgandan to bugungi kunga qadar ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Lug‘at undan muntazam foydalana bilgan kishi uchun chinakam xazina. Zarur ma’lumotlarni tez va qulay izlab topa bilish zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi. Inson hamma narsani bilishga qodir emas, ammo har qanday vaziyatda bilishi zarur bo‘lgan narsalarini topish imkoniga ega. Lug‘at aynan shu ish uchun maxsus yaratiladi [3. 2021].

Tilshunoslik qadimdan matematika fani bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan: ularning tub mohiyati bir o‘zakka – mantiqqa borib taqaladi. Amaliy tilshunoslikning rivoji bu fikrni yana bir bor quvvatlash bilan birga yanada samaraliroq qildi. Yangi paydo bo‘lgan texnologiyalar matnlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri elektron formatga tarjima qilishni ta’minlash bilan jarayonni osonlashtirgan bo‘lsa, har bir tilning tabiatidan kelib chiqib, matnlarning o‘ziga xos shakllantirilishini anglab yetishda foydalanuvchi mas’uliyatini oshirdi.

An’anaviy lug‘atlar bilan elektron lug‘at o‘rtasida farqlar bo‘lishi tabiiy. Bu farqlar u yoki bu lug‘at shaklining ustunligini ko‘rsatadi. Ya’ni bir jihat bilan an’anaviy lug‘atlar afzallik qilsa, ikkinchi bir jihatdan elektron lug‘atlardan foydalanish samaraliroq bo‘ladi. Masalan, an’anaviy lug‘atlar dan foydalanish uchun moddiylik, unga erishish uchun lozim bo‘lgan sharoit va amallar (lug‘at olish uchun do‘konga yoki kutubxonaga borish zarurati, uni topish, kutubxona bazasining quvvati yoki sotib olish uchun sarflanadigan moddiy qiymat) elektron lug‘atlarda mutlaqo talab qilinmasligi pandemiya sharoitida foydalanuvchilarga juda qo‘l keldi. Etalon til sir-asrorlarini bilish va chet tillarini o‘rganishda elektron lug‘atlardan foydalanish qulayligi yana bir bor o‘z isbotini topdi.

Leksikografiyada ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyaga kirishuvi, hamkorlikda rivojlanishini taqozo etadi. Bunda yuzaga kelgan vaziyat va unda mavjud muammolarga yechim topishda tilshunoslikning texnika fanlari bilan aloqasi talab qilinadi. Tilshunoslikning texnika fanlari bilan aloqasi asosida yangi injenerlik lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi, elektron lingvistika atamalari paydo bo‘ldi. Ushbu konsepsiya ostida tilni o‘rab turgan bir qator muhim muammolar hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kompyuterlar orqali tizimli til o‘rganish, mashina tarjimasi va leksikografiya masalalari bu sohadagi muhim masalalar sirasiga kiradi [2. 460].

Korpus katta hajmli lug‘atlarni tuzish uchun manba vazifasini o‘taydi. Vaqt o‘tishi bilan korpus turli lingvistik yo‘nalishlar uchun ahamiyatlari bo‘lishi bilan kuchli informatsion resursga aylandi. Korpus asosida kompyuter yordamida lug‘atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi. Shu yo‘l bilan ish boshlanishidan tugash jarayonigacha (nashrgacha) tilni aks ettirib turadi, lug‘at maqolasi “eskirish”ga ulgurmeydi. Korpus lug‘at harakatdagi lug‘at bo‘lib, zamon bilan hamnafas yuradi. Bunday lug‘atlar muttasil o‘zgarib, takomillashib, to‘ldirib boriladi. Ularni sodda qilib “tirik lug‘at” deb atash o‘rinli [8.429].

Har qanday tilning ma’lumotlar bazasini yaratishda mazkur tilning to‘liq lug‘atini yaratish muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi zamon talablariga ko‘ra, samaradorligi katta bo‘lgan lug‘at kompyuter lug‘atidir. Kompyuter lug‘ati, an’anaviy lug‘atdan farqli o‘laroq, quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

1. An’anaviy lug‘atlarga kiritiladigan leksik ma’noga ega, o‘zbek tilida keng iste’molda bo‘lgan so‘z va frazeologik iboralar. Lug‘atga barcha tub so‘zlar (o‘tsimon, kompyuter, yaxshi va h.k.), yasama so‘zlar (badavlat, chiroyli, ishchi va h.k.), qo‘shma so‘zlar (gultojixoz, oshqozon, kungabotar va h.k.), murakkab qisqartma so‘zlar (aeroport, mikroskop va h.k.) kiritiladi.

2. Barcha dialekt (sheva)ga xos so‘zlar.
3. Ayrim sohalarda ishlatiladigan atamalar.
4. Vulgar so‘z va iboralar.
5. Kishi nomlari.

6. Geografik nomlar.

7. Qisqartma so‘zlar (abbreviaturalar) [7. 213].

Tilimizdagи barcha so‘zlar o‘zbek tilining lug‘at boyligini tashkil qiladi. Bu leksemalarni matnni qayta ishslash, matnning avtomatik tahlili va tahriri, mashina tarjimasini amalga oshiruvchi dasturlarning lingvistik ta’midotida alohida maydonni tashkil etishini namoyon qiladi. Shu bois avtomatik tarjima qilish dastur, mobil ilova va platformalarning lingvistik tahminotini yaratishda ham morfologik analiz qilingan leksemalar bazaga leksik birlik shaklida kiritiladi va o‘zga tillarda ularning tarjimasi beriladi [4. 201].

Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi, avtomatik tarjima, mashina tarjimasi, google tarjimon, amazon tarjimon, microsoft tarjimon, DeepL, parallel korpus kabi atamalarning kundalik iste’molda tez-tez takrorlanishi, nafaqat tarjimashunoslik, balki mashina tarjimasi (XX asr 50-yillardan kompyuter va tilshunoslik sohalarinining integratsiyasidir) sohalarida ko‘plab ishlар amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Ko‘pchilikka ma’lumki, bu boradagi birinchi tajriba 1954-yil AQSHda Jorjtaun universitetida o‘tkazilgan bo‘lib, 1960-yilda esa mustaqil fan sifatida shakllangan [6.160].

D.O.Dobrovolskiy, Yu.Tao, A.A.Kokoeva va V.Zaxarov kabi olimlar parallel korpusning tulishi, tarkibi va imkoniyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, ko‘plab asarlar yaratishdi. Ularning fikricha, mashina tarjimasi sohasida parallel korpuslar yuaratish muhim ahamiyatga ega, chunki unga asl matn va tarjima matn biteks ko‘rinishida kiritiladi. Bu esa matn tajrimasida konteksga qarab matn mazmunini aniqlash va boshqa tilga tarjima qilishga semantik muvofiqini topish hamda parallel matnlarning semantik munosabatiga oid ko‘plab kerakli ma’lumotlarni o‘z ichiga olish imkonini beradi.

Shuningdek, respublikamizda ham ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilgan hamda chet tildagi matnlarni o‘zbek tiliga va yoki buning aksini tarjima qiluvchi dasturning lingvistik ta’motini yaratishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu sohaga das-turchi va matematiklar ham e’tibor qaratib muayyan tadqiqotlar olib borganligi eslatish ham bu sohaning dolzarbligini anglatadi [10. 297].

Korpusga asoslangan mashina tarjimasi eng keng tarqalagan yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bunda parallel korpusga kiritilgan bitekslarning (inglizcha – o‘zbekcha matn) har biri avtomatik tahlil qilinadi va tarjima uchun muayyan xulosalarga kelinadi. Mohir tarjimonlar yordamida tajima qilingan parallel matnlardagi so‘zlar, frazalar konteksga qarab ma’nolari aniqlanadi [9. 77].

Dunyo olimlari tomonidan ham Bobur asarlarining tiliga doir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu boradagi dastlabki urinishlar asarni tarjima qilish jarayonida tuzilgan lug‘atlardan boshlangan. V.Erskin, J.Leyden, A.Kayzer, Pave de Kurteyl, L.U.King, Denisson Ross, keyinchalik A.Alparslon, M.Jonpo‘lat, Yu.Bilol, T.Seyhan, N.Jeylan va boshqa tilshunos va man-bashunos olimlar ishlarida Bobur qo‘llagan so‘zlar lug‘ati, ularga izoh va ko‘rsatkichlar berilgan. Masalan, “Boburnoma” tarjimasi bilan shug‘ullangan L.U.King to‘rt mingdan ortiq so‘zni izohlagan. U.Tekston, R.Arat, A.Beverij tarjimalarida ham ko‘plab so‘zlarning izoh va sharhlari berilgan. Shuningdek, asarning hindcha va boshqa tillardagi nashrlarida minglab so‘zlarning izohi berib o‘tilgan. Ayniqsa, turkiyalik olimlar tomonida Bobur asarlari tili, jumladan, uning devoni-dagi leksik birliklar haqida ko‘pgina tadqiqotlar bajarilgan [5. 2024].

Bobur asarlarining o‘zbek tilidagi dastlabki izohli lug‘ati “Boburnoma”ning P.Shamsiyev, S.Mirzayevlar tomonidan 1948-1949-yillarda amalga oshirilgan birinchi nashri oxirida ilova qilingan. Shundan so‘ng, 1972-yilda X.Nazarova “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qis-qacha lug‘at”ini e’lon qilgan. “Boburnoma”ning 1960-yildagi nashrida 600 dan ortiq so‘z va bosh-

qa lug‘aviy birlklarga izoh berilgan. F.Is’hoqov tomonidan 2008-yilda “Boburnoma”ning izohli lug‘ati tuzilib nashr qilingan. Unda 2498 ta so‘z izohlangan. Ushbu lug‘at asarning 2002-yilda gi S.Hasanov nashri matniga asoslangan. A.Ibrohimov “Boburnoma”da hindcha so‘zlar” (2002), “Urducha-o‘zbekcha mushtarak so‘zlar lug‘ati” (2022) kitoblarida shoir qo‘llagan to‘rt mingga yaqin leksik birlklar haqida mulohaza yuritgan.

2024 yilda yaratilgan “Bobur asarlarining izohli lug‘ati” bu yo‘nalishdagi ishlarni yangi pog‘onaga olib chiqdi, deyish mumkin. Unda “Boburnoma”, “Bobur devoni”, “Mubayyin” asarlarida qo‘llanilgan minglab so‘zlar izohi berilgan. Bobur asarlaridagi so‘zlarning izohi borasida amalga oshirilgan bu kabi fundamental tadqiqotlar Boburning so‘z boyligini, shoirning barcha asarlarida qo‘llangan so‘zlar ma’nosini talqin qilishda manba vazifasini o‘taydi.

“Boburnoma” matni va tarjimalarining parallel korpusini yaratishda lug‘atlarning o‘rni juda muhim, chunki lug‘atlar va parallel korpuslar bir-birini to‘ldiruvchi va bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi vositalardir. Bunday parallel korpus, til o‘rganish, tarjima, tilshunoslik tadqiqotlari va boshqa lingvistik sohalarda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Parallel korpus – bu ikki yoki undan ortiq tillarda yozilgan matnlarning bir-biriga mos keluvchi versiyalaridan tashkil topgan ma’lumotlar to‘plamidir. Bunday korpuslar tarjimonlarga va tilshunoslarga so‘zlarning, iboralar va matnlarning kontekstual tarjimasini aniqlashda yordam beradi.

“Boburnoma” matniga oid o‘zbekcha lug‘atlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish “Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha parallel korpusini yaratish uchun zarur hisoblanadi. Shuningdek, asarga oid turkcha va qozoqcha lug‘atlarning ma’lumotlar bazasi ham xuddi shu zarurat asosida shakllantiriladi. “Boburnoma” matniga oid lug‘atlar va “Boburnoma”ning parallel korpusi o‘rtasida bir qator umumiy jihatlar mavjud: lug‘atlar o‘zbek, turkcha va qozoqcha so‘zlar va iboralarining ma’no va tarjimalarini aniq tasvirlaydi. Parallel korpus esa bir-biriga tarjima qilingan matnlarni o‘z ichiga oladi, bu esa tarjimaning to‘g‘riligini tekshirishga yordam beradi.

“Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha matniga oid lug‘atlarni yaratishda quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- Ma’lumotlar yig‘ish: Lug‘atni yaratish uchun so‘zlarning ma’lumotlari to‘planadi. Bu jarayonda tilshunoslar, tarjimonlar va mutaxassislar ishtirop etadi.

- Tuzilish va formatlash: so‘zlar alifbo tartibida joylashtiriladi va ularning ma’nolari izohlanadi.

- Sinonimlar, antonimlar va grammatic tafsilotlar qo‘sish: lug‘atga sinonimlar va antonimlar, so‘zning grammatic tavsiflari kiritiladi.

- Muqaddima va izohlar tayyorlash: lug‘atning asosiy qismidan oldin so‘zlar va izohlar bo‘yicha muqaddima tayyorlanadi.

Ushbu lug‘atlarning “Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha parallel korpusini yaratishdagi ahamiyati quyidagilar:

1. So‘z tarjimalarini aniqlash: “Boburnoma” matnida ishlatilgan o‘zbekcha so‘zlarning turkcha va qozoqchadagi to‘g‘ri tarjimalarini aniqlashda lug‘atlar muhim asos bo‘ladi. Har bir so‘z va iboraning bir nechta ekvivalentlari mavjud bo‘lishi mumkin, bu esa parallel korpusning sifatli bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Sinonimlar va antonimlar: Lug‘atlarda sinonimlar va antonimlar haqida ma’lumotlar keltiriladi, bu parallel korpusdagi so‘zlarning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini aniq belgilashga yordam beradi. “Boburnoma”da ba’zi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida turli ma’nolarda ishlatilgan bo‘lishi mumkin, bu esa tarjimada adashishga olib keladi. Lug‘at parallel korpusni yaratishda bu masalalarni hal qilishga yordam beradi.

3. Grammatik tavsiflar: Lug‘atlarda so‘zlarning grammatick tavsiflari (masalan, ot, fe’l, sifat va h.k.) keltiriladi, bu esa parallel korpusdagi matnlarni aniq va to‘g‘ri tahlil qilishda muhimdir. Matndagi har bir so‘zning grammatick xususiyatlari uning tarjimasida ham saqlanib qolishi kerak.

4. Kontekstual ma’lumotlar: “Boburnoma” matnida so‘zlar va iboralar o‘ziga xos madaniy va tarixiy kontekstga ega. Lug‘atlarning parallel korpusdagi yana bir ahamiyati shundaki, ular bu kontekstlarni aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, o‘zbekcha “shoh” so‘zi turkcha va qozoqcha ekvivalentlarida qanday o‘zgaradi va bu so‘zning tarixiy kontekstda qanday ishlatilganini tu-shunish muhimdir.

Lug‘atlar va parallel korpus bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida ishlaydi. Lug‘atlar til o‘rganuvchilarga yoki tarjimonlarga matndagi so‘zlar va ularning tarjimalarini izlash va tushunishga yordam beradi, parallel korpus esa bu tarjimalarni kontekstda tasdiqlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Boburnoma” matniga oid lug‘atlar parallel korpusni yaratishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular matnning tarjima qilish jarayonini aniq va to‘g‘ri amalga oshirishda yordam beradi. Lug‘atlar, parallel korpusda o‘zbekcha so‘zlarning turkcha va qozoqcha tarjimalari, sinonimlar, antonimlar, grammatick xususiyatlar va kontekstual ma’lumotlar orqali aniq belgilab beriladi. Bu nafaqat tarjimonlarga, balki tilshunoslar va til o‘rganuvchilarga ham katta yordam beradi. Parallel korpus va lug‘atlarning integratsiyasi tilning boyligini va tarjimaning to‘g‘riligini ta’minlashda juda muhim vositalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasi lingvistik asoslari. Qo‘llanma. Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Abduvaxobov G‘. O‘zbek tilida elektron lug‘atlar yaratish zarurati Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari – ctcl.2024. Toshkent, 2024.
3. Baxriddinova B., Bahodirova G. O‘zbekistonda milliy til renessansi va lug‘atchilik taraqqiyoti // O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari . – Toshkent, 2021.
4. Fattaxova D., Jumanazarova D. ‘zbek tili morfologik lug‘atining lingvistik ta’minoti // Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari – ctcl. 2024”. Toshkent, 2024.
5. Hayitov Sh. Turkiy boburshunoslikning tadrijiy takomili. Fil.fan.dok.diss. – Toshkent, 2024
6. Rahimov A. Kompyuter lingistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
7. Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi – Toshkent: Akademnashr, 2011.
8. Po‘latova G. O‘zbek tili tezaurusi uchun sifat so‘z turkumi lingvistik bazasini yaratish // Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari – ctcl.2024”. Toshkent, 2024.
9. Sirojiddinova M. Korpusga asoslangan mashina tarjimasi uchun ikki tilli frazeologik lug‘at yaratishning lingvistik ahamiyati (badiiy asar misolida) // Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari – ctcl.2024”. Toshkent, 2024.
10. Xakimov M.X. Расширяемый входной язык математического моделирования естественного языка для многоязычной ситуации машинного перевода // ЎзМУ хабарлари, 2009. – № 1.

MUHABBAT QURBANOVA,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbek filologiyasi fakulteti,
o'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri*

GO'ZAL QO'ZIBOYEVA,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbek filologiyasi fakulteti,
Lingvistika (O'zbek tili) mutaxasisligi II kurs magistranti*

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDAGI “HOLAT” SEMALI FRAZEMALARING KONSEPTOSFERASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir xalqqa tegishli bo'lgan milliy koloritini anglatuvchi frazema tushunchasining mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o'rni, ochib berilgan. Shuningdek, maqolaning asosiy obyekti sisatida Abdulla Qodiri ijodining lingvistik tadqiqi masalalariga alohida e'tibor berilgan. Frazemalarni tadqiq qilish natijasida: xalqning madiy turmush tarzini, asrlar mobaynida rivojlangan madaniyatning til bilan bevosita aloqadorligini, xalqning so'z boyuginining rivojlanishini, milliy tilning rang-barangligini aks ettirishda muhim o'rni borligi tadqiq qilindi. Bundan tashqari frazeologik tadqiqotlar bugungi kungacha qanday holatda tahlil qilinganligi va qaysi jabhalari nuqtayi nazaridan ilmiy izlanishlar olib borilganligi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: frazema, frazeosemantik maydon, konsept, konseptosfera, lingvokulturologiya, badiiy tahlil, lingvistik tahlil, turkologiya, madaniy kolorit.

Annotation: In this article, the essence of the phrase meaning the national color belonging to each nation, its role in linguistics, is revealed. Also, as the main object of the article, special attention is paid to the issues of linguistic research of Abdulla Qadiri's work. As a result of the study of idioms, it was found that they have an important role in reflecting the material lifestyle of the people, the direct connection of the culture developed over the centuries with the language, the development of the vocabulary of the people, and the diversity of the national language. In addition, comments were made about how phraseological research has been analyzed to date and from the perspective of which aspects scientific research has been carried out.

Keywords: phrasal verbs, linguoculturology, artistic analysis, linguistic analysis, Turkology, cultural color.

Аннотация: В данной статье раскрывается суть словосочетания, означающего национальный колорит, принадлежащий каждому народу, его роль в языкоznании. Также в качестве основного объекта статьи особое внимание уделено вопросам лингвистического исследования творчества Абдуллы Кадири. В результате изучения фразеологизмов было установлено, что они играют важную роль в отражении материального образа жизни народа, непосредственной связи складывавшейся веками культуры с языком, развития словарного запаса народа, и разнообразие национального языка. Кроме того, были высказаны комментарии о том, как на сегодняшний день анализируются фразеологические исследования и с позиции каких аспектов проводятся научные исследования.

Ключевые слова: фразовые глаголы, лингвокультурология, художественный анализ, лингвистический анализ, тюркология, культурный колорит.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikda inson tadqiqot markazida va uning faoliyatiga oid tahliliy va amaliy yo‘naltirilgan antropotsentrik tadqiqotlar muhim rol o‘ynamoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraladigan bo‘lsa, frazeologik birliklar va ularning semantik ma’nolari bevosita inson va uning faoliyatiga chambarchas bog‘liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalaydi. Bunday tushunchalar hodisalarning emotsiyalligini oshirishda, obrazli tarzda ifodalalab berishga yordam beradi, ularni til va madaniyatning o‘zaro bog‘liq munosabatida ekanligini tadqiq etishda yanada dolzarblik kasb etadi. Shu kabi tadqiqot ishlaridagi frazemalar o‘zbek xalqining milliy-madaniy dunyoqarashini frazeologik sathdagi aspektlarini tahlil etishga yo‘naltirilgan. Frazema til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo‘lib, birdan ortiq leksemaning o‘zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra tuzilma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap shakliga teng bo‘lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihatni bilangina emas, mazmun jihatni bilan ham farq qiladi. Adabiyotlarda ushbu til birligi frazeologizm, frazeologikbirlik kabi terminlar bilan ataladi; leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishi ma’qul. Frazemalar o‘rganiladigan sohani esa frazemika deb nomladik (adabiyotlarda frazeologiya termini qo‘llaniladi) .[20.2006.418]

Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha “cognitive – bilishga oid” so‘zi bilan bog‘liq. (Qiyyoslang: “cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq”, “cognition – bilish”). Ma’lumki, dunyonи, vogelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to‘g‘ridan to‘g‘ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog‘lab qo‘yishadi. Ammo, hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo‘lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma’lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (latincha), ya’ni “aql, tafakkur” hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagи nomenatal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo‘ladi.[14.2006.10]. O‘.Yusupov konseptni quyidagicha ta’riflagan: “Konsept – bu tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasidir, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy yoki neytral baholashdir”[15.2011.10].

Materiallar va metodlar. Dunyo tilshunosligida bugungi kunda shu o‘rinda, o‘zbek tilshunosligida ham frazemalarning kognitiv, milliy-madaniy xususiyatlariga oid bo‘lgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Badiiy asar va shoirlar yaratgan she’riy asarlarini lingvistik tadqiq qilish, ularni kognitiv tilshunoslikda ifodalovchi konseptual jabhalarini tadqiqotlarda bor imkoniyatlaridan qay darajada mahorat bilan foydalanishni, ayniqsa tilning asosiy birliklaridan hisoblangan frazemalarning badiiy asarda qo‘llanishini kognitiv-konseptual xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida frazemalarning turli xil ko‘rinishlarda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda tahlil qilingan asar davridan oldin qo‘llanilgan frazemalarning keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda shakli o‘zgargan holda, yangi ma’nolar ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin. Magistrlik dessertatsiyasini yozishdan maqsad ham Abdulla Qodiriy asarlarida uchratishimiz mumkin bo‘lgan barcha frazemalarni ajratgan holda ularni linvokulturologik jihatdan ya’ni frazemalarning kognitiv-konseptual xususiyatlarini ham amaliy ham nazariy jihatlarini ochib berishdan iborat. Bugungacha Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazemalar tadqiqi birmuncha o‘rganilgan bo‘lsa ham, badiiy asarlardagi frazemalarning kognitiv-konseptual xususiyatlari doirasida o‘zbek tilshunosligida hali tadqiqot qilingan emas. Shunday ekan tadqiqotimizning asosiy alohida ahamiyat kasb etadigan maqsadi ham Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazemalarning kognitiv-konseptual xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Bugungi kunda tilshunoslikda paydo bo‘lgan antroposentrik paradigma inson o‘zini qurshab turgan olamni va o‘zini o‘zi bilish orqali uning lisoniy tafakkurida millatga, xalqqa tegishli madaniy kod yashashini asoslab berdi. Markazida inson turuvchi va uning nutqiy shakllanishi, tafakkuri, mintaletiteti orqali o‘sha xalqqa tegishli konseptlarning mavjudligi sababli tilshunoslikda zamonaviy tilshunoslik sohalari butun jahon tilshunosligiga kirib keldi. Bu XX asr oxirida tilshunoslikning rivojlanishi uning konseptual va metalisoniy apparatiga olam manzarasi terminining kirib kelishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Antroposentrik paradigma doirasida tilshunoslikning turli sohalarida yangicha yo‘nalishli tadqiqot ishlari amalgalashmoqda. Bu kabi tadqiqot ishlarida tahliliy va amaliy mulohazalar yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib kelmoqda. Quyida frazemalarning kognitiv tahliliga doir tadqiqot ishlarini ko‘rshimiz mumkin. Bayjigitov Omonulla Israfilovich. O‘zbek muloqot nutqidagi frazeologik birliklar: kognitiv va lingvokulturologik tamoyillari[16.2023.34]. Z. Teshaboyeva o‘z tadqiqotida “Boburnoma”ning inglizcha tarjimasidagi frazema va frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini semantik, kognitiv-konseptual, component usullarda tahlil qilish orqali, tarjimadagi frazemalarning farqili tomonlari va o‘xshash jihatlarini aniqlagan. Shuningdek, ikki til o‘rtasidagi ba’zi frazemalarning muqobil variantlarini tavsiya qilib o‘tgan. [17.2017.45]

Tafakkur faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan “tushuncha” va kognitiv tilshunoslikda tadqiqotning asosiy predmeti sifatida qo‘llanilayotgan “konsept” atamalarini bir xil ma’no-mazmunda qo‘llash mumkinmi degan savol tug‘iladi? Bu ikki tilshunoslik terminlari bir biridan qanday farq qiladi? Tushinishimcha, bu ikkala atama ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bularning ikkalasining ham yadroviy nuqtasi voqeqlikda predmet va hodisa o‘rtasidagi obrazli tarzda tahlil qilinishi bilan muqobillanadi. Bu ikkisi tadqiqotning obyekti va tahlil natijalari bilan farqlanadi.

Natija va muhokama. Tadqiqot mavzusini yoritishda tahlil qilish, frazemalarni analiz qilish, komponent tahlil metodlari, qiyoslash va statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Masalaga ilmiy nuqtayi nazar bilan qaraydigan bo‘lsak, tilimizning frazeologik lug‘ati xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli manbayi hisoblanadi. Tadqiqot ishimizda bu lug‘at tarkibning yangicha sarhadlarini ochish va ularning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega deb o‘ylaymiz. Frazeologizmlarda har bir xalqning mifologik qatlami, milliy uduumlari, asrlar osha yetib kelgan rivoyatlari, chegaralangan taomillari, o‘ziga xos urf-odatlari, ma’naviyati haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Abdulla Qodiriyning asarlaridagi keltirilgan frazemalarni kognitiv-konseptual usulda tadqiq qilishning nazariy va amaliy ahamiyati, frazemalarning tub mohiyatida milliy madaniy kodnining mavjudligi, milliy fanni ochib berishdagi maqsadlaridan iborat hisoblanadi. Tadqiqotning amaliy natijalari orqali frazeologik lug‘atlarda o‘zgartirish yasash va bir yozuvchi asarlariga doir frazeologik lug‘atlar yaratish, lug‘at boyligimizni oshirishdan iborat. Tadqiqot natijasidan leksikologiya, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi sohalarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

“Ko‘ngil” konseptining frazeosemantik maydondagi konseptosferasi.
 “Holat” semali frazemalar.

T/R		Abdulla Qodiriy asarlarida mavjud frazemalar	“Holat” semali frazemalar- ning mikroguruhlari
1	“KO‘NGIL” KONSEPTI- NING KONSEPTOS- FERIK MAYDONI	ko‘ngil bog‘latmoq	ruhiy holat
2		ko‘ngli bo‘lmadi	ruhiy holat
3		ko‘ngil ko‘zi ochilmoq	tafakkur holatli
4		ko‘ngil tortmoq	ruhiy holat
5		ko‘ngil uzolmaslik	ruhiy holat
6		ko‘ngil qo‘ymoq	ruhiy holat
7		ko‘ngli g‘ashlanmoq	ruhiy holat
8		ko‘ngli aynimoq	jismoniy holat
9		ko‘ngliga kelmoq	tafakkur holatli
10		ko‘ngliga keltirmoq	tafakkur holatli
11		ko‘ngliga olmoq	jismoniy holat
12		ko‘ngli bo‘shashib ketmoq	jismoniy holat
13		ko‘ngliga tegmoq	tafakkur holati
14		ko‘ngliga shubha solmoq	jismoniy holat
15		ko‘nglidan kechirmoq	jismoniy holat
16		ko‘nglidan yuvib tashlamoq	jismoniy holat
17		ko‘nglini buzmoq	jismoniy holat
18		ko‘nglini to‘q tutmoq	tafakkur holati
19		ko‘nglini g‘ash qilmoq	jismoniy holat
20		ko‘ngli sovidi	jismoniy holat
21		ko‘ngli erib ketdi	jismoniy holat
22		ko‘ngli to‘ldi	jismoniy holat
23		ko‘ngli o‘ksidi	jismoniy holat
24		ko‘ngli qoldi	ruhiy holat
25		ko‘ngli g‘ash tortdi	jismoniy holat
26		ko‘ngliga tushmoq	tafakkur holati
27		ko‘ngli to‘lmoq	jismoniy holat
28		ko‘nglidan o‘tqazmoq	tafakkur holati
29		ko‘nglidan kechirmoq	tafakkur holati
30		ko‘nglidan chiqarib tashlamoq	tafakkur holati
31		ko‘ngli ketmoq	ruhiy holat
32		ko‘ngli tilamoq	ruhiy holat
33		Ko‘ngil yozmoq	jismoniy holatlari
34		Ko‘ngli olinmoq	ruhiy holat
35		Ko‘nglidan chiqarmoq	tafakkur holatli
36		Ko‘nglini ko‘tarmoq	ruhiy holat
37		Ko‘nglini ko‘tarib tushmoq	jismoniy holat
38		Ko‘nglini ovlamoq	jismoniy holat
39		Ko‘nglini olmoq	ruhiy holat
40		Ko‘nglini ochmoq	jismoniy holat
41		Ko‘nglini sovutmoq	tafakkur holatli
42		Ko‘nglini bo‘shatmoq	jismoniy holat

43	Ko'ngliga qaramoq	tafakkur holatli
44	Ko'nglini xippa o'ziga bog'lamoq	jismoniy holat

Antroposentrik paradigmalar vujudga kelgandan so'ng tilshunoslikda yangicha tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Tilshunoslikda shaxs va uni anglash birinchi darajaga olib chiqildi. Ushbu tadqiqotda ham shaxs va uni hatti-harakati frazemalar doirasida tahlil qilingan. Kognitiv nuqtayi nazardan olib qaralganda barcha tushunchalar inson atrofida birlashadi. Bilamizki, frazemalarning juda katta qismi insonning holatini ifoda etishga qaratilgan bo'ladi. Shunday ekan, nutqimizda deyarli holatni ifoda etuvchi frazemalar ancha faol. Abdulla Qodiriyning asarlarida ham frazemalarning katta qismini holat semali frazemalar tashkil qiladi. Tahlil natijalariga ko'ra ijodkor holat semali frazemalarni quyidagi maqsadlarda foydalangan:

1. qahramonning ichki holatini ifoda qilish uchun: (ko'ngil qo'yamoq, ko'ngli ketmoq, ko'ngli tilamoq)
2. qahramonning o'zgalarga nisbatan munosabatini aks ettirish uchun: (ko'ngli to'lmoq, ko'ngil qo'yamoq)
3. voqeа-hodisaning holatini aks ettirish uchun: (ko'ngli g'ash tortdi, ko'nglidan yuvib tashlamoq, ko'ngil ko'zi ochilmoq).

Xulosa. Dunyo tilshunsoligida bugungi kunda shu o'rinda, o'zbek tilshunosligida ham frazemalarning kognitiv, milliy-madaniy xususiyatlariiga oid bo'lgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Frazemalarni qiyosiy, chog'ishtirma, diaxron va shu kabi ko'plab aspektlarda faol va batatsil o'rgанишлар давом etib kelmoqda. Frazemalar diaxron aspektida uch xil ko'rinishda tadqiqotlar olib borilgan; lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilish orqali; diaxron turdag'i va sinxron aspektida qiyoslash orqali tahlil qilish va bu tadqiqotlarda belgilangan manbanito'g'ri tanlash muhim hisoblanadi. Manbalarda berilgan frazemalarni aniqlash va ularni tarjimasidagi muammolarni aniqlashtirishlardan iborat. Harakat va holatni ifodalovchi frazemalar tadqiq qilish natijasida ularning insonning ijtimoiy mavqeyi va kelib chiqishini, mehnat munosabatini, hayotiy faoliyatining turli jabhalarini qamrab olganini ko'rishimiz mumkin. Bu tushunchalarning ijtimoiy hayotdagi madaniy, lingvomadaniy, kognitiv xususiyatlarining munosabatlardagi o'rni aks etadi. Ruhiy holatni ifodalovchi, tafakkur orqali anglashiladigan frazemalar, jismoniy holat orqali ifodalanadigan frazemalar, nutq orqali ifodalangan harakat semali frazemalar til egasining har tomonlama tafakkuri bilan bog'liq holda uning kognitiv belgisini ifodalashi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda ham Abdulla Qodiriyning asarlaridan olingan frazemalarni turli xil frazeosemantik maydonlar doirasida ajratilgan holatda ularning kognitiv-konseptual tahlilini harakat, holat semali frazemalarning konseptosferasi yaratildi. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraganda so'z san'atkorlari tomonidan yaratilgan durdonas asarlar tilini o'rganish, ularning adabiy tildan, uning boy imkoniyatlaridan qay darajada mahorat bilan foydalanganliklarini o'rganish hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, tilning eng muhim birliklaridan biri hisoblangan frazemaning badiiy asarda qo'llanishining, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, badiiy nutqda tutgan o'rnining tahlilga olish, badiiy asar tili asarning asosiy qimmatini belgilovchi faktor ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotga kognitiv – konseptual nuqtayi nazardan qaralganda yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlarning tilini o'rganish, ularning adabiy tildan farqli jihatlarini, uning boy imkoniyatlaridan qay darajada mahorat bilan foydalanganliklarini o'rganish hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Tilning eng muhim birliklaridan biri – frazemalarning badiiy asarlarda qo'llanishining, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, badiiy nutqda tutgan o'rnining tahlilga olish, badiiy asar tili asarning asosiy qimmatini belgilovchi belgi ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. – Т.: Ўқитувчи нашириёти, 1978. – Б. 406.
2. Каҳхарова Х. Фразеологи Абдулла Қадири. АҚД. – Т.: 1985. – Б 246.
3. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. док. дисс... автореф. –Т.: 2000.
4. Маматов А.Э, Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг семантикпрагматик тадқиқи. Монография, Наврӯз. –Т.: 2019.
5. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. Ўқув қўлланма, Наврӯз. –Т.: 2019.
6. Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. Фан. Ном. Дисс... – Т.: 2008.
7. В. А. Маслова. Лингвокультурология. – Москва, 2001.
8. Худайберганова Б.Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. Фан. Док. Дисс... – Т.: 2015.
9. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоетик тадқиқи. Филол. Фан. Док. Дисс... – Т.: 2010.
10. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. Москва. –1987. С –288.
11. Джалолова Л.О. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. Фан. ном... дисс... автореф. – Т.: 2007.
12. Қодирий А. Сайланма. Шарқ, –Т.: 2019.
13. Чориева З.Т. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг лугавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. Фан. ном... дисс. — Т., 2006.
14. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Ilmiy risola “Sangzor” nashriyoti, – Jizzax: 2006. – В 10.
15. Юсупов Ў.Қ. Тилишуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим ислоҳотлар. Илмий мақола – Т.: 2011. – Б.10.
16. Bayjigitov Omonulla Israfilovich. O’zbek muloqot mutqidagi frazeologik birlıklar: kognitiv va lingvokulturologik tamoyillari. Filol. Fan. D-ri. Dis. – Qarshi, 2023.
17. Тешабоева З Бобурноманинг инглизча таржималаридағи фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. — Т., 2017.
18. Жуманазарова Г. Фраземаларнинг нутқда қўлланилиши. –Т.: Турон замин -зиё, 2017. – Б. 6.
19. Abdurauf F. Saylanma. –T.: Zabarjad media, 2022.– В. 163-239.
20. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. –T.: Universitet, 2006. –В. 418.
21. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.316.
22. Данькова Т.Н. Концепт “любовь” и его словесное воплощение в индивидуальном стиле А. Ахматовой. Канд. дисс. филол.наук. – 2000.
23. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / РАН ИЯ. М.: Языки славянской культуры. – 2004.
24. Арутюнова В.Д. Язык и мир человека. 2-е изд., испр. – М.: 1999. – 896 с.
25. Вежбицкая А. Семантика, культура и познание: общечеловеческие понятия в культурноспецифичных контекстах. Oxford: Oxford University Press, 1992. – p.3–22. – 206 с.

DILAFRO‘Z QO‘SHMURODOVA,
O‘zMU Lingvistika (O‘zbek tili) mutaxasisligi magistranti

O‘ZBEK REKLAMA MATNLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda o‘zbek reklama matnlarining lingvistik xususiyatlariga e’tibor qaratdik. Reklamaning hayotimizga chugur o‘rnashib boryotganining sabablaridan biri sifatida til xususiyatlari inobatga olindi. Reklama uchun tilning ahamiyati, qanday til vositalaridan foydalanish reklamaning muvaffaqiyatini ta’minlashi haqida fikr va mulohazalarimizni bildirib o‘tdik. O‘zbek reklama matnlarining til xususiyatlarini o‘rganishda, asosan, fonetik va leksik sathlarga e’tibor qaratdik. Bu sathlarning aynan reklamalar uchun ahamiyatli bo‘lgan jihatlarni hisobga oldik. Fonetik sathda reklama matnlarida uchrovchi alliteratsiya va qofiyaga ahamiyat berilgan bo‘lsa, leksik sathda qanday so‘z turkumlaridan foydalanish matn muvaffaqiyatini oshirishi, qisqartma so‘zlarning qo‘llanilishi, ma’no ko‘chish usullarining qaysi biri reklamada ko‘p uchrashi, chet so‘zlardan tarjimasiz foydalanish kabi holatlar misollar yordamida o‘rganildi. O‘zbek tili imkoniyatlari reklama matnlari yaratish uchun yetarli ekanligini birmuncha ochib berishga harakat qildik. Reklama matnlarida qaysi so‘z turkumlari qanday jihatlarni ochishga xizmat qilishi, bu matnlarda qaysi turkumlardan ko‘p foydalanishimiz haqida to‘xtalib o‘tdik. Reklamalarda chet so‘zlarning qo‘llanilishi va uning matnga ko‘rsatgan ta’sirlari, ya’ni matnning tushunilishiga qilgan ta’sirlari ham ko‘rib o‘tildi. Reklamalarda noaniqliklarga sabab bo‘layotgan holatlar ham o‘rganildi. Noaniqliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish lozimligi haqidagi o‘z tavsiyalarimizni berib o‘tdik. Maqolamiz orqali reklama iqtisodiyotning o‘rganish obyekti bo‘lishiga qaramay, uning til xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘rganish orqali tilshunoslikning ham obyektiga aylanib borishi birqadar asoslandi.

Kalit so‘zlar: reklama, reklama matni, til, fonetik xususiyat, leksik xususiyat, sintaktik xususiyat, sifat, son, ravish.

Аннотация: В данной статье мы остановились на языковых особенностях узбекских рекламных текстов. Языковые особенности были учтены как одна из причин, почему реклама глубоко вошла в нашу жизнь. Мы поделились своими мыслями и мнениями о важности языка для рекламы, о том, какие языковые инструменты можно использовать для обеспечения успеха рекламы. При изучении языковых особенностей узбекских рекламных текстов мы в основном ориентировались на фонетический и лексический уровни. Мы учили важные для рекламы аспекты этих уровней. Если на фонетическом уровне важны аллитерация и рифма, встречающиеся в рекламных текстах, то на лексическом уровне какие группы слов можно использовать для повышения успешности текста, использование сокращений, какие из способов передачи смысла наиболее распространены. в рекламе на примерах изучались такие зарубежные случаи, как использование слов без перевода. Мы постарались выявить, что возможностей узбекского языка достаточно для создания рекламных текстов. Мы обсудили, какие группы слов служат для раскрытия каких аспектов в рекламных текстах и какие группы мы используем в этих текстах чаще всего. Также

рассматривалось использование иностранных слов в рекламных объявлениях и их влияние на текст, то есть их влияние на понимание текста. Также изучались обстоятельства, вызывающие двусмысленность в рекламных объявлениях. Мы дали свои рекомендации, что делать, чтобы устранить неопределенности. Благодаря нашей статье, несмотря на то, что реклама является объектом изучения экономики, она стала объектом лингвистики, изучая ее с учетом особенностей языка.

Ключевые слова: реклама, рекламный текст, язык, фонетический признак, лексический признак, синтаксический признак, качество, число, манера.

Abstract: In this article, we focused on the linguistic features of Uzbek advertising texts. Language features were taken into account as one of the reasons why advertising is deeply entrenched in our lives. We shared our thoughts and opinions about the importance of language for advertising, what language tools can be used to ensure the success of advertising. In studying the language features of Uzbek advertising texts, we mainly focused on the phonetic and lexical levels. We took into account the aspects of these levels that are important for advertisements. If at the phonetic level, alliteration and rhyme found in advertising texts are important, at the lexical level, what word groups can be used to increase the success of the text, the use of abbreviations, which of the methods of transferring meaning are most common in advertising, foreign cases such as the use of words without translation were studied with the help of examples. We tried to reveal that the capabilities of the Uzbek language are sufficient for creating advertising texts. We discussed which word groups serve to reveal what aspects in advertising texts, and which groups we use the most in these texts. The use of foreign words in advertisements and their effects on the text, that is, their effects on the understanding of the text, were also considered. Circumstances causing ambiguities in advertisements were also studied. We gave our recommendations on what to do to eliminate uncertainties. Through our article, despite the fact that advertising is an object of study of economics, it has become an object of linguistics by studying it taking into account the characteristics of language.

Key words: advertising, advertising text, language, phonetic feature, lexical feature, syntactic feature, quality, number, manner.

K undan kunga rivojlanib borayotgan zamonimizda reklama hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Internet tarmoqlari, televideniya, radio, gazeta, jurnallar, peshlavhalar, savdo-sotiq markazlari, avtomobillar, kiyim-kechaklar bularning bar-chasida reklama bilan qarshilashamiz. Reklama qadimdan sodda shaklda mavjud bo‘lgan. Masa lan, bozorlarda o‘z mahsulotini sotish uchun uning xususiyatlarini aytib xaridor chaqirish “ob qoling, yeb qoling, olganlar darmonda, olmaganlar armonda” [Mamirova D., 2022: 12] kabi birliklar orqali, biror tomosha uyushtirish oldi u haqida e’lon osish yoki e’lon qilish kabilar buning yorqin isbotidir. Reklama so‘zi “qichqirmoq” degan ma’noni anglatadi, bu ma’no qadim zamonlardagi reklamalar uchun to‘la mos kelsa, hozirgi zamon reklamalari uchun majoziylik kasb etadi. Chunki hozir qichqiriqlar bilan hamisha reklama berilmaydi, aksincha uning zamirida shu kuch mujassam bo‘ladi.

Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, maishiy sohalarning barchasining tayanch markaziga aylanib ulgurgan – reklama. Reklama hayot tarzimizning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. U jamiyat uchun mo‘ljallangan ma’lumotdir. Reklamaning har qanday turi axborot berish uchun xizmat qiladi. Tezlik bilan hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelayotganligining sabablaridan biri uning til xususiyatlaridir. Reklama axborot berishi, ishontirishi, undashi uchun, albattra, tili ravon bo‘lishi

lozim. Shularni inobatga olib, reklamaning asosiy elementi til desak yanglishmaymiz. Reklamani tilsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xoh og‘zaki, xoh yozma reklama bo‘lsin barchasida til mavjud. Reklama til vositasida so‘zlaydi. Tilning qaysi qirrasidan foydalanishi reklama tuzuvchining xohishi va mahoratiga bog‘liq.

Til xususiyatlaridan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish reklama samaradorligini oshirib, mahsulot yoki xizmatning xaridorgir bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Reklamaning til xususiyatlarini tahlil qilishda fonetik, leksik jihatlarga e’tibor qaratish to‘g‘ri deb hisoblaymiz.

Reklamaning til xususiyatlarini o‘rganishda tavsifyi, assotsiativ eksperiment usullardan foydalanildi.

Reklama matnlarining fonetik xususiyatlari deganda, undagi tovushlar uyg‘unligiga e’tibor berish o‘rinlidir. Bu jarayonda alleteratsiya, qofiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular reklama matnida tovushlar uyg‘unligiga asoslanadi. Bu fonetik jihatdan reklamani shakllantirishda, jarangdorligini oshirishda eng muhim vositalardandir. Quyidagi misollar yordamida fonetik xususiyatning ahamiyatini izohlashga harakat qilamiz:

1. *Mobiuzga ulaning va avtomobil yutib olish imkoniyatiga ega bo‘ling!*

2. *Gilamni yuvdirma xotingga*

Xotin tengdur oltinga

Yuqoridaqgi reklama matnlarida qofiyadosh so‘zlardan foydalanish orqali reklama diqqatni jalb qilmoqda. Undagi tovushlar ohangdorligi reklamaning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilmoqda. Qofiya adabiyotshunoslik ilmida, arabcha so‘zdan olingen bo‘lib, she’rda bir necha bayt yoki misralar oxiridagi so‘zlarning o‘zaro ohangdosh, mos bo‘lishidir. Reklama matni hech qanday she’riy matn emas, ammo, unda ham qofiyadan foydalanilmoqda. Bunga asosiy sabab, xaridorni jalb etib, mahsulot yoki xizmatdan foydalanishga undashdir. Qofiyadosh so‘zlar orqali jarangdorlik va ta’sirchanlik kuchi ortadi, mana shular reklama matni uchun muhim. Bundan tashqari, reklama matnini xotirada tez va oson saqlanib qolishiga ham qofiya sabab bo‘ladi. Bu jarayon esa reklama samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘rinib turibdiki, reklama matni yaratuvchida lingvistik salohiyat bo‘lishi lozim. So‘z boyligi yaxshi bo‘lgan inson qofiyadosh so‘zlarni tanlashda qiynalmaydi.

Reklama matnining fonetik xususiyati uchun alliteratsiya hodisasi ham ahamiyatlidir. Alliteratsiya misralar, undagi so‘zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishidir. Bu hodisa ham jarangdorlikning ortishiga xizmat qiladi, bundan tashqari kishida reklamaga bo‘lgan qiziqishning oshishiga sabab bo‘ladi. Bir xil tovushlarning takrorlanib kelishi, eslab qolishni ham osonlashtiradi. Reklama uchun ahamiyatli hisoblangan bu jihat alliteratsiya orqali beriladi. Quyidagi reklama matnlari bunga misol bo‘la oladi:

1. *Biznesingizni biz bilan boshlang!*

2. *To‘yga to‘yona!*

Reklama matnlari ommaviy madaniyatning bir qismidir. Ular tildagi o‘zgarishlarga va leksika ga ham ta’sir o‘tkazadi. Reklama matnlari, asosan, mikromatnlar hisoblanadi. Mikromatn deb, bir necha gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan qo‘shma gaplarga nisbatan kattaroq yozma yoki og‘zaki nutq bo‘lagiga aytildi. Reklama matnlarining mikromatn shaklida ko‘p uchrashining asosiy sabablaridan biri, unga duch kelgan xaridor yoki foydalanuvchi uchun aniqlikni ta’minlash, vaqtini tejash va xotirada tez va uzoq vaqt saqlanib qolishidir.

Reklama matnida leksik xususiyatlar ham alohida ahamiyatga ega. Tilshunoslikda leksik sath, tilning lug‘at boyligi bilan aloqadordir. Shu tufayli, reklamadagi sifatlar, ravishlar, olmoshlar, olinma so‘zlarni tadqiq qilish orqali leksik xususiyatlarini o‘rganish o‘rinli deb hisoblaymiz. Reklamalarda barcha so‘z turkumlaridan keng foydalaniladi. “Qisqa va ta’sirchan matnni yara-

tishda mustaqil so‘z turkumlari, xususan, ot, sifat va fe’llardan faol foydalaniladi. Otlar mahsulot yoki xizmatning nomini, sifatlar uning ijobiy xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Fe’l esa foydalanuvchini harakatga keltirishda favqulotda muhim sanaladi. 200 ta reklama matnlari ning tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbekcha reklama matnlarini hosil qiluvchi so‘zlarning turkumlari quyidagicha nisbatda: otlar – 40 foizdan ko‘proq, fe’llar 20 foizdan ko‘proq, sifatlar – 16 foizdan ko‘proq. Otlar reklama matnlarida boshqa turkumlarga nisbatan ko‘proq qo‘llanishini mahsulot nomini anglatuvchi otning foydalanuvchilar tasavvurlarini ijobiy tuyg‘ular bilan bog‘lovchi boshqa otlarga qiyoslanishiga asoslanuvchi reklamalar salmoqli ekanligi bilan izohlash mumkin” [Yunusova Sh., 2023: 79].

Sifat, ravish, olmosh va sonlarning qo‘llanishi matnga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Sifatlar reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning tavsifini berib, ta’mi, shakli, mazasi va xususiyatlari haqidagi foydalanuvchida taassurot uyg‘otadi. Bular orqali foydalanuvchi reklamaga yuqori baho berib, reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatdan foydalanib ko‘rishga qiziqishi ortadi. Xususiyat sifatlari boshqa sifat turlariga qaraganda reklamada ko‘proq uchraydi. 100 dan ortiq reklama matnlari tahlili bunga yorqin isbot bo‘la oldi. Quyida ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

1. *Yanada chanqoq bo ‘l. Pepsi.*
2. *Zamonaviy qadoqdagi sevimli ta’m. Pepsi.*

Sifatning daraja shakllaridan ham reklama matnlarida keng foydalaniladi. Tadqiqotimiz natijasida orttirma daraja shakli, reklamada boshqa darajaga nisbatan ko‘p foydalaniladigan daraja ekanligiga amin bo‘ldik. Juda va eng so‘zlar bu darajani hosil qilishda ko‘p qo‘llanuvchi so‘zlar ekanligi ham tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘ldi. Masalan:

1. *Ushbu jazirama yozning eng qaynoq aksiyasi! CoCa Cola.*
2. *Cheers. Turfa xil va juda mazali!*

Bundan faqat shu so‘zlar orqali reklama matnlarida orttirma daraja hosil bo‘ladi, degan fikrga kelish noto‘g‘ri. Bu darajani hosil qilishda qo‘shimchalardan foydalanilgan reklama matnlari ham mavjud.

Yandex Go Biz taomni issiqqina yetkazamiz

mana bu reklama matnida orttirma daraja hosil qilishda qo‘shimchadan foydalanilgan.

Qiyosiy darajadan ham reklama matnlarida foydalaniladi. Bu daraja shakli qiyosiylik orqali reklamaga yangicha ruh bag‘ishlaydi. Quyidagi reklama matnlarida qiyosiy daraja orqali reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning tavsifi berilgan. Masalan:

1. *Yaqinroq*
- Tezroq*
- Kuchliroq*
2. *Yaxshiroq smartfon – yaxshiroq hayot! Galaxy A73*

O‘zbek reklama matnlarini o‘rganish jarayonida ozaytirma darajadagi sifatlarga duch kelmadik. Buning sababi ravshan. Ozaytirma daraja orqali belgining xususiyati kamaytililadi, bu jihat reklama muvaffaqiyati uchun to‘sinqilik qiladi. reklama uchun natija ahamiyatlidir. Shu tufayli, reklama yaratuvchilar bu daraja shaklidan foydalanishni ma’qul ko‘rmaydilar.

Olmoshlar tilshunoslikda biror nimani ko‘rsatish, umumlashtirish, donalash, takrorlarni oldini olish uchun qo‘llaniladi. Reklama matnlarida ham shu maqsadda foydalaniladi, desak yanglish bo‘lmaydi. Kuchliroq ta’kidlab, ko‘rsatish reklama matnlarida olmoshning zimmasidadir. Olmoshlar orqali xususiyatlar jamlab ko‘rsatiladi. Misol uchun ushbu reklama matnlarini ko‘rib chiqaylik:

1. *Siz va oilangiz uchun labaratoriya xizmatlari*
2. *Kunning barcha afzalliklari – bir obunada. Yandex Plus.*

100 dan ortiq reklama matnlari tahlil qilinganda, kishilik va belgilash olmoshlaringin boshqa olmosh turlariga nisbatan reklama matnlarida ko‘p uchrashi, qo‘llanishi jihatidan so‘roq va ko‘rsatish olmoshlari ulardan keyingi o‘rinni egallashi aniqlandi. Kishilik olmoshlari shaxsni anglatuvchi so‘zlar o‘rnida qo‘llansa, belgilash olmoshlari biror narsa yoki shaxsnинг belgisini jamlab yoki ayirib ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Bu olmoshlarning shu xarakteri reklama matnida ko‘p qo‘llanishiga sabab bo‘ladi. Buning isboti sifatida, yuqoridaqgi reklama matnlarini ham keltirishimiz mumkin. Ko‘rsatish olmoshlari ko‘rsatib, biror narsaga ishora qilishda, so‘roq olmoshlari so‘rash va reklama matnida biror qarorga kelishga undash vazifalarini bajaradi. Olmoshning boshqa turlari ham reklama matnlarida uchrab turadi, ammo, ularga nisbatan kam duch kelamiz.

Sonlarni matnlarda keltirishimizdan maqsad, matnning aniqlik darajasini oshirishdir. Mana shu jihat bilan sonlar reklama matnlarida ham keng qo‘llaniladi. Reklamalarda biror nimaning aniq miqdorini ifodalash yoki tartibini ko‘rsatish uchun sonlardan foydalaniladi. Ma’lumki, sonlar arab raqamlari (3, 17, 30, 26, 18), rim raqamlari (V, XV, XX, XVI, XIX) yoki harflar (ikki, sakkiz, o‘n bir, yuz, yigirma) bilan ifodalanadi. Reklama matnlarida miqdor sonlar, asosan, arab raqamlarida, tartib sonlar esa harflar vositasida beriladi. Quyidagi reklama matnlarini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. *Eco dry – terlashga qarshi 7 kungacha himoya*
2. *Shoshil va **birinchi** bo‘l!*

Misollarimizdan ma’lum bo‘ladiki, miqdor sonlar reklamalarda aniqlik uchun xizmat qilsa, tartib sonlar ta’kid uchun xizmat qilib kelmoqda.

Ravish so‘z turkumining reklama matnlarida qo‘llanib, belgining belgisini bildirib kelishi, ko‘tarinki ruhni berish va da’vat etish, undash kabi vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Reklamalarda payt va holat ravishlaridan boshqa ravish turlariga nisbatan ko‘p foydalaniladi. Masalan:

1. *Hozir ol,*
- Keyin to ‘la. ANORBANK.*
2. *Artel – doimo birga!*

Ushbu reklama matnlarida asosiy fikrlar ravishlarda jamlangan. Ravish so‘z turkumi orqali reklamaning bosh g‘oyasi ifodalanagan.

Reklama matni erkin matn bo‘lganligi tufayli, unda barcha so‘z turkumlari qo‘llanishi mumkin. Bu jarayonda barcha so‘z turkumlari ma’lum bir vazifa yuklatiladi. Matnning ommabop shaklda bo‘lishi, unda qo‘llanuvchi turkumlarga bog‘liq. Reklama matni faqat bir so‘z turkumi orqali ham berilishi mumkin. Bu jarayonda matnning yo‘naltirish kuchi yanada ortadi. Chunki faqat bir so‘z turkumidan foydalanish matnning esda qolishi va diqqatni tez jalb qilishiga sabab bo‘ladi, bu jarayonda ta’kid kuchli bo‘ladi. Misol sifatida quyidagi reklama matnini ko‘rsatishimiz mumkin:

Tatib ko‘ring!
Qiyoslang!
Tanlang! Sherin.

Bu reklama matnida faqat fe’l so‘z turkumidan foydalanilgan. Satrdan satrga ma’no kuchayib borgan. Avval kolbasa mahsulotlarini iste’mol qilib ko‘rishga chaqiriq bo‘lsa, ta’tib ko‘rib uni boshqasi bilan taqqoslashga da’vat etish keyingi satrda oydinlashadi, bu jarayonlar bajarilganidan so‘ng esa iste’molchi yoki foydalanuvchiga tanlov qilish borasida chaqiriq mavjud. Bu hodisa bosqichma – bosqich qay tarzda amalga oshirilishi mantiqiy ketma-ketlikda bir so‘z turkumi orqali berilmoqda. Bir so‘z turkumi vositasida mana shunday reklama matnlari yaratish bir xillikdan ochishgiga xizmat qiladi.

Reklama matnlarida tildagi ma’no ko‘chish usullaridan ham keng foydalaniladi. Ma’no ko‘chishi deyilganda, bir predmet yoki biror hodisa nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyati tushuniladi. Tilda ma’no ko‘chishining quyidagi turlari uchraydi:

1. Metafora usuli bilan ma’no ko‘chishi – ifodalanayotgan predmet yoki hodisalar o‘rtasida o‘xhashlik asosida ko‘chadi. Masalan: baxt cho‘qqisi, choynakning burni.
2. Metonimiya usuli bilan ma’no ko‘chishi – bu usul predmet yoki hodisalarning o‘zaro aloqadorligiga asoslanadi. Masalan: Boburni ko‘tarib yuribman; Urush boshlanganidan bexabar shahar osuda uxlari edi. Shahar (aholi punkiti) – Shahar (o‘sha yerning aholisi) ma’nolarida.
3. Sinekdoxa usuli bilan ma’noning ko‘chishi – bunda predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariiga asoslaniladi. Masalan: Qo‘limni kesib oldim, Eshigimizga kimlar kelmagan.
4. Vazifasidagi o‘xhashlik asosida ma’no ko‘chishi – o‘q (miltiqning o‘qi) – o‘q (zambarakning o‘qi) – o‘q (nayzaning o‘qi) kabilar.

Yuqoridagi usullardan metonimiya hodisasi reklama matnlarida eng ko‘p uchraydigan ma’no ko‘chish usullaridir. Quyidagi reklama matnlarini bularga misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. **PRESIDENT** bilan Parijga uchamiz!
2. **HUAWEI** rekordlarni zabit etmoqda!

Misollarda keltirilgan 1-reklama matnidagi **PRESIDENT** so‘zi orqali ma’no ko‘chirilgan, bunda davlat rahbari bilan sayohat qilish emas, balki shu brend nomi ostidagi mahsulotlarni ya’ni, sut mahsulotlarini sotib olishga undash mavjud. 2-matnda **HUAWEI** brendidagi telefonlar nazarda tutilgan. Bulardan ko‘rinib turibdiki, reklama matnlarida metonimiya hodisasidan keng foydalaniladi. Bu usul reklamaning ta’sir kuchini oshirib, mahsulot yoki xizmatning nima ekanligiga, undan foydalanishga qiziqish uyg‘otish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtida reklama matnlarida o‘zlashma qatlama so‘zleri ancha faol qo‘llanilmoqda. Bunga jahonda yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayon o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Natijada unga qo‘yilgan talablar ham shunga qarab o‘zgarib bormoqda. Shu tufayli reklama qiluvchilar bu holatlarni inobatga olib, reklama matnlari yaratish jarayonida o‘zlashma qatlama so‘zlaridan keng foydalanishmoqda. O‘zlashma qatlama so‘zleri brendlarni nomini ifodalashda erkin qo‘llaniladi. Chunki brend ishlab chiqaruvchi va targ‘ib qiluvchilarning nomi (ismi) bo‘lganligi tufayli uni tarjima orqali berish maqsadga muvofiq emas. Ammo ba’zi so‘zlarning tarjimasiz, qistarma (abbrviatura) shaklida berilishi noaniqliklar keltirib chiqarmoqda. Bu kabi holatlarga e’tiborli bo‘lish zarur. Misol tariqasida ushbu reklama matnini ko‘rsatishimiz mumkin:

1. **IT** ning tagi rohat
2. **PAPAni** qo‘li shirinroq. **PAPAJOHNS**.


Yuqoridagi reklamalarda IT abbriviaturasidan foydalanilgan. Bu tarjima qilinmay shu holi-cha olingan birikma. IT ning yoyilmasi “information technology” ingliz tilidagi so‘z. Bu o‘zbek tiliga “axborot texnologiyalari” deb tarjima qilinadi. Zamонавиу texnologiyalarning rivojlanishi natijasida xalqimizning ma’lum bir qatlami buning nima ekanligini va o‘zbekcha muqobilini ham tushunishadi, ammo, butun xalq emas. U soha haqida hech qanday ma’lumoti bo‘lmagan inson, IT abbriviaturasini it (hayvon) shaklida tushunishi tabiiy. Mana shu kabi chalkashliklar reklama matnlarimizda uchrab turibdi. Bu chet so‘zлarni tarjimasiz olish natijasida vujudga kelmoqda. Reklama bunday yondashuv va bunday munosabat, nafaqat reklamaning muvaffaqiyatsiz bo‘lishiga ta’sir o‘tkazadi, balki o‘zbek tilining mavqeyiga ham putur yetkazadi. Bunday o‘rinlarda so‘zni tarjimasining abbriviaturasini olish yoki shunga mos keluvchi boshqa jumla yaratish o‘rinli deb hisoblaymiz. Yoki 2-reklama matnidagi **PAPA** so‘zining qo‘llanishi. Bu ham tarjimasiz berilgan rus tilidagi so‘zdir. To‘g‘ri, bu qaysidir ma’noda yangilik, insonlar qiziqishini ortishiga sabab bo‘lувчи vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin reklama matnida, ammo, shu o‘rinda chalkashlik keltirib

chiqaruvchi vosita sifatida ham keltirishimiz mumkin. **PAPAJOHNS** nomli pitsa brendining mavjudligi haqida xabardor bo‘lgan kishi reklamadagi ishorani to‘liq tushunishi mumkin, ammo, u haqida xabari bo‘lmasan insonda qo‘llangan chet so‘z yana tushunmovchiliklar keltirib chiqaradi.

Reklama xususiyatlarini ochuvchi qurol til bo‘lganligi tufayli, undagi tilni o‘rganish reklamaning muvaffaqiyatiga sabab bo‘ladi. Tadqiqotlardan ko‘rinadiki, reklama tili sodda, ravon, o‘ynoqi bo‘lishi mumkin. Tilning qaysi shakli tanlanishi emas, ommaviylik kasb eta olishi reklama uchun muhimdir. Chunki reklama ommaga mo‘ljallangan ma’lumotdir. Shu tufayli, u ma’lumot yetkazilishi mobaynida xalqchillikka e’tibor qaratish o‘rnlidir. Reklama matnida yuqoridagi holatlarni e’tiborsiz qoldirmasligimiz lozim. Bular tilimiz mavqeyining pasayishiga olib keluvchi elementlar bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ularga bee’tibor bo‘lish, tilimiz mavqeyining pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Botirova M. (2023). *Jahon tilshunosligi va turkologiyada reklama tadqiqiga oid ishlar tahsilii*// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Iyun.
2. Фарбі Э.Д. (2004). Как создать успешную рекламу. - Санкт-Петербург: Нева.
3. Gafurov B. (2023). *Reklama diskursida tibbiyot leksikasi: funksional-semantik va lingvom-adaniy jihatlar (rus va o‘zbek tillari misolida)*: Avtoreferat. filol. fanlari doktori (DSc) diss. – Buxoro.
4. Mamirova D. (2022). *O‘zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari*: Avtoreferat. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. – Samarqand.
5. Николаевич М.П. (2005). Психолингвистические аспекты воздействия рекламных текстов: Автoref. дисс. ...канд.филол.наук. – Москва.
6. Ризв Р. (1973). Слова в рекламы. - Москва.
7. Розенталь Д.Э, Кохтев.Н.Н. (1981). Язык рекламных текстов. – Москва.
8. Репьев А.П. (2008). Язык рекламы. – Москва: МГУ.
9. Yunusova Sh. (2023). *O‘zbek tilida reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari va pragmatik xoslanishi*: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. – Guliston.
10. Shamsiyeva M. (2017). *Reklama matnining psixolingvistik xususiyatlari*// Metodist – I. – Toshkent.



С.С.КАЗАХБАЕВ,

Эжинияз атындағы Нөкис мәмлекеттік педагогикалық
институты филология илимлери докторы (DSc)

ФОЛЬКЛОРТАНЫҢШЫ АЛЫМ ҲӘМ ШЕБЕР ДӘРЕТИҮШИ

(FOLKLORSHUNOS OLIM VA MAHORATLI IJODKOR)

Annotatsiya: Maqolada atoqli folklorshunos olim Kenesboy Allambergenovning ilmiy va ijodi hayot yo 'li keng turda bayon qilingan. Shuningdek, uning ijodkor sifatida adabiy meroslari adabiy va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: folklorshunoslik, K.Allambergenov, "Edige" dostoni, adabiyotshunoslik, qoraqalpoq prozasi.

Аннотация: В статье описана научная и творческая жизнь известного ученого-фольклориста Кенесбоя Алламбергенова. Также с литературной и научной точки зрения анализируется его литературное наследие как творца.

Ключевые слова: фольклор, К.Алламбергенов, эпос "Едиге", литературоведение, каракалпакская проза.

